

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Sh.M.Amirsaidova

MAXSUS PSIXOLOGIYA

(Oligofrenopsixologiya)

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari
5111900-Defektologiya yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya
etilgan*

Toshkent-2018

MUNDARIJA

So'z boshi	3
1.Bob Oligofrenopsixologiya fanining umumiy masalalari	5
1.1. Oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.	5
1.2. Psixik rivojlanishning umumiy va xususiy qonuniyatlari	14
1.3. Aqli zaif o'quvchilarning psixologik- pedagogik tavsifnomasi.	27
2.Bob. Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati	
2.1. Aqli zaif o'quvchilarning sezish va idrok xususiyatlari.	40
2.2. Aqli zaif o'quvchilarning diqqat xususiyatlari.	53
2.3. Aqli zaif o'quvchilarning xotira xususiyatlari.	58
2.4. Aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlari.	63
2.5. Aqli zaif o'quvchilarning nutq xususiyatlari	71
3.Bob. Aqli zaif o'quvchilar shaxsi	81
3.1. Aqli zaif o'quvchilar shaxsi va rivojlanish xususiyatlari	81
3.2. Aqli zaif o'quvchilarning shaxslararo munosabat xususiyatlari.	84
3.3. Aqli zaif o'quvchilarning xissiy-idoraviy xususiyatlari.	98
3.4. Aqli zaif o'quvchilarning o'quv faoliyati munosabati.	105
3.5. Aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi	112
4.Bob. Aqli zaif o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish	126
4.1. Aqli zaif o'quvchilarga ko'rsatiladigan psixologik xizmat.	126
4.2. Aqli zaif o'quvchilar bilan olib boriladigan psixokorreksion ish turlari	140
Glossariy	
Keys	
Test	
Adabiyotlar ro'yxati	

So’z boshi

Mustaqillik barcha jabhalarda kabi uzlusiz ta’lim tizimida ham katta o’zgarishlarga zamin yaratdi. Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, davlat ta’lim standartlarini bajarilish sifatini ta’minlash mazkur sohaga oid yangi texnologiyalarni kiritish hozirda pedagogikaning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko’rsatilganidek, shaxsning har tomonlama uyg’un kamoloti va o’z qobiliyati hamda malakalarini ro’yobga chiqarishning sharoitlarini, samarali mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o’zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning maqsadi va harakatlantiruvchi kuchdir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning ruhiy jarayonlarining rivojlanishi, ayniqsa imkoniyati cheklangan alohida yordamga muhtoj bo’lgan bolalarning ruhiy jarayonlari xususiyatlarini bilish bo’lajak defektolog mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega.

Maxsus psixologiya (oligofrenopsixologiya) darsligi 5111900-defektologiya bakalavriat bosqichi o’quv rejasiga asosan tayyorlangan bo’lib, fan dasturi maqsad va vazifalari mazmunidan kelib chiqqan. Darslik O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari va o’quv dasturlari asosida takomillashtirildi.

Alohida yordamga muxtoj bolalar xususan aqli zaif bolalarga ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish, korreksiyalashga yo’naltirilgan pedagogik vositalardan to’g’ri foydalanish, aqli zaif o’quvchilarning bilish faoliyatini va xissiy-irodaviy doiralari, individual psixologik xususiyatlarini e’tiborga olgan xolda pedagogik ta’sirning samarali metodlarini va usullarini bilish malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir. Mazkur qo’llanmada so’nggi yillardagi darsliklar va qo’llanmalarda keltirilgan qator nazariy materiallardan foydalanilgan. Maxsus psixologiya (oligofrenopsixologiya) darsligi horijiy ilmiy adabiyotlardan olingan nazariy va amaliy ma’lumotlar asosida mazmunan boyitilgan.

Darslik pedagogika institutlari, universitetlarning defektologiya ta’lim yo’nalishi talabalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, amaliyotchi defektologlar uchun mo’ljallangan.

Darslikdan oliy o’quv yurtlarining psixologiya, boshlang’ich ta’lim yo’nalishlarida tehsil olayotgan talabalar ham foydalanishlari ham mumkin.

Darslikning mazmuni bakalavriat bo’yicha defektologiya ta’lim yo’nalishining Davlat ta’lim standartlari haqida malaka talablariga mos keladi.

Darslik so’z boshi, 4 ta bob va ilovadan iborat.

Birinchi bobda oligofrenopsixologiya fanining umumiy masalalari yoritilgan bo’lib, unda oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, psixik rivojlanishning umumiy va xususiy qonuniyatları, aqli zaif o’quvchilarning psixologik-pedagogik tavsifnomasi berilgan.

Ikkinci bobda aqli zaif o’quvchilarning bilish faoliyati sezgi va idrok xususiyatlari, diqqat, xotira, tafakkur, nutq xususiyatlari ochib berilgan.

Uchinchi bobda aqli zaif o’quvchilarning shaxsi va shaxslararo munosabat, xissiy-irodaviy, ijtimoiy moslashuvi, xususiyati ularning o’quv faoliyatiga munosabati berilgan.

To’rtinchi bobda aqli zaif o’quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish mazmuni, ularga ko’rsatiladigan psixologik xizmat, o’quvchilar bilan olib boriladigan psixokorreksion ish turlari bayon etilgan.

I.BOB. Oligofrenopsixologiya fanining umumiy masalalari

1.1. Oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari

“Psixologiya, degan edi L.S.Vigotskiy, – birinchidan, konkret, amaliy fan bo‘lib – ta’lim va tarbiya, bolaning rivojlanishi, mehnat faoliyati haqidagi fan bo‘lmog‘i lozim. Faqat shu vazifagini psixologiyani tirik va kerakli fanga aylantirishi mumkin”¹. Psixologiya umuman ruhiyatning, xususan inson ruhiyatining namoyon bo‘lishi, rivojlanishini o‘rganuvchi sohadir. Psixologiya ongli sub’ekt – insonning ichki dunyosini o‘rganadi.

Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino birinchi bo‘lib, psixik funksiyalar miyadagi ma’lum markazlar faoliyatiga bog‘liq degan fikrni ilgari surdi va uni ilmiy isbotlashga urindi. Uning fikricha, jonivorlar va insonlar, o‘simpliklar dunyosidan farqli o‘laroq, tashqi ta’sir kuchlarini hissiy idrok etish qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat uch xil kuch orqali namoyon bo‘ladi: tanani harakatga keltiruvchi, harakatlantiruvchi kuch, umumiy kuch (u ko‘rish, eshitish, xis etish, ta’m va hid bilish faoliyati bilan bog‘liq) va aql kuchi (unga xayolot, xotira va aql-idrok kiradi). Mana shu kuchlarning har biri, miyaning ma’lum qismi bilan bog‘liq hamda bosh miya biron qismining kasallanishi uning bilan bog‘liq, kuch faoliyatining ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ibn Sino insonning tafakkur qobiliyatiga yuqori baho beradi. Inson aql-idrok orqali narsa va hodisalarni qiyoslash va abstraksiyalash yo‘li bilan bir-biridan ajratadi. "Tafakkur kuchi, - deb yozadi u,- ezgulik va adovat, haqiqat va yolg‘onni farqlaydi hamda ularning foyda yoki zararini his etib tekshiradi". ("Tib qonunlari" 1-kitob). Ibn Sino "Tib qonunlari" ning uchinchi kitobida tafakkurga yetadigan zararlar va buning natijasida kelib chiqadigan kasalliklar haqida ham keng ma’lumot beradi². U asablarning asosiy vazifasi miya bilan turli xil sezgi va harakat organlari o‘rtasida aloqani amalga oshirishdan iborat ekanini yaxshi tushungan. U sezgi organlari bilan asablar vositasida tashqi muhitning moddiy realligi idrok qilinishini asablarning biologik va fiziologik funksiyalarini ajratib ko‘rsatib beradi. Asablarning foydasi ikki

¹ Выготский Л.О. Основы дефектологии-СПб 2003

² Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik, saylanma. Xalq merosi. 1993

tomonlamadir. Birinchisi bevosita foyda: masalan, miya asablar vositasida hislar va harakatlarni boshqa organlarga yetkazadi; ikkinchisi bilvosita foyda: masalan, etni mahkamlash va tanaga kuch baxsh etish.

Abu Nasr Forobiyning ta'kidlashicha, bilish nazariyasi, ya'ni insonning bilishini, ruhiy qobiliyatini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolarni hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovchi markazdir. Inson barcha bilimlarni tashqaridan oladi. Buning uchun ko'plab vosita va imkoniyatlarga ega: bular sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy fikrlash, aql va nutq - shu vositalar yordamida inson ilmlarni o'zlashtiradi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan soha – aqli zaif bolalar psixologiyasi, maxsus psixologiyaning bir tarmog'i bo'lib, aqliy jihatdan turli darajada meyordan chetlangan bola va o'quvchilarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganadi. Maxsus psixologiya - nuqsonli bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, quyidagi qismlardan iborat:

1. Aqli zaif bolalar psixologiyasi (oligofrenopsixologiya).
2. Qulog'i kar va zaif eshituvchi bolalar psixologiyasi.
3. Ko'zi ko'r va zaif ko'rvuchi bolalar psixologiyasi.
4. Turli darajada nutqlari buzilgan bolalar psixologiyasi.
5. Murakkab nuqsonli bolalar psixologiyasi.
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi.
7. Tayanch xarakat tizimi buzilgan bolalar psixologiyasi.

Nuqsonli bolalar ichida aqli zaif bolalar ruhiyati nisbatan mukammal o'rganilgan tarmoqdir. Ammo bu tarmoq ham normal bolalar ruhiyatiga nisbatan birmuncha keng, atroflicha o'rganilmagan.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari shu toifa bolalarning ruhiy xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan defektologlarni, oligofrenopedagoglarni qurollantirishdan iborat. Aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasini korreksiyasini to'g'ri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari haqidagi bilimlar juda zarur. Aqli zaif bolalar psixologiyasi ma'lumotlari defektologlarda, oligofrenopedagoglarda ob'ektiv dunyoqarashning

shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Ruhiy jarayonlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tushunib yetish, shaxsning barkamol shakllanishida alohida ahamiyatga ega.

Oligofrenopsixologiya faninig yuzaga kelish tarixi. Ma’lumki, har bir fan o‘zining yuzaga kelish, rivojlanish, taraqqiy qilish tarixiga, qonuniyatlariga ega. Shu singari aqli zaif bolalar psixologiyasi fani ham ma’lum rivojlanish tarixiga ega. Aqli zaif bolalarning ruhiyatini o‘rganishning mumkinligi va zarurligi, ularni o‘qitish, tarbiyalash kerakligi, tibbiyot, xususan psixiatriyaning rivoji bilan uzviy bog‘liq. XVIII asr oxirlari, XIX asr boshlarida aqli zaif bolalarni davolash, tarbiyalash, o‘qitishga oid ma’lum ijobiq qarashlar yuzaga keldi va shakllana boshladи. Shuni eslatib o‘tish joizki, aqli zaiflar ta’lim - tarbiyasi masalalari dastlab, asosan aqliy nuqsoni og‘ir darajadagi bolalar ustida boshlangan. Nisbatan yengil darajadagi aqli zaif bolalarni o‘rganish, davolash, tarbiyalash muammolari birmuncha keyinroq, XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘rganila boshlangan. 1858 yilda rus pedagogi N.A.Dobrolyubov tomonidan aqli zaif bolaning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Uning ko‘rsatishicha, “faollikning pastligi”, “sekin idrok qilish”, “quruq yodlashning ustunligi”, “bir xildagi harakatlar”, “yangi sharoitlarga yomon moslashish”, “bilimlarini to‘g‘ri ishlata olmaslik” – aqli zaif bolalarga xos xususiyatlar ekan.

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Rossiyada aqli zaif bolalarni o‘rganuvchi, davolovchi, tarbiyalovchi, bilim beruvchi qator davolash, tarbiyalash muassasalari ochila boshlandi (Riga, Peterburg, Moskva, Kiev shaharlarida). 1910 yilda Moskvada aka-singil Postovskiylar boshlang‘ich bilim yurti qoshida aqli zaif bolalar uchun yordamchi sinflar ochdilar, hamda bolalarni o‘rganish uchun eksperimental psixologik kabinet tashkil qildilar. 1911 yilda shifokor-psixiatr, professor G.I.Rossolimo Moskvada bolalar psixologiyasi va nevropatologiyasi institutini ochdi va bu yerda aqli zaif bolalar ruhiyatining o‘ziga xos tomonlari o‘rganila boshlandi. Aqli zaif bolalarni o‘rganishda 1915-yilda G.Y.Troshinining “Tarbiyaning antropologik negizi, normal va anomal bolalar psixologiyasini qiyoslash” nomli asarning chop etilishi muhim ahamiyat

kasb etdi. G.Y.Troshin rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga yordam berishda faol qatnashdi. 1906-yilda G.Y.Troshin boshchiligidagi davolash maktabi tashkil etildi va bu yerda anomal bolalarga uchun chuqur ilmiy bilimlar berish masalalariga e’tibor qaratildi. G.Y.Troshinning asosiy o‘rganish predmeti – aqli zaif bolalar edi. Defektologiyaning fan sifatida shakllanishida G.Y.Troshin tomonidan ilgari surilgan va asoslangan normal va nuqsonli bola rivojlanish qonuniyatlarining umumiyligi to‘g‘risidagi fikrlari katta ahamiyat kasb etadi. “Mantiqiy normal va nuqsonli bolalar o‘rtasida farq yo‘q. Unisi ham bunisi ham inson, unisi ham bunisi ham bola, unisini ham bunisini ham bir qonuniyat bo‘yicha rivojlanadi”. G.Y.Troshin normal rivojlanayotgan va nuqsonli bolaning psixologik rivojlanishini solishtirishga asoslangan bola rivojlanishining psixologik tahliliga yondashishning asosini yaratdi. Uning fikricha, nuqsonli bolani o‘rganish inson tabiatini anglashga yordam beradi va psixologiyaning rivojlanishiga bebaxo xissa qo‘shadi.

1920 yillardan boshlab maxsus psixologiya, xususan aqli zaif bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida o‘quv darajalariga kiritildi. Shu davrdan boshlab bu muammo davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ishlar tizimiga kiritilib, alohida e’tibor berila boshlandi. 1925 yilda Moskvada eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. L.S.Vigotskiy (1896-1934) rahbarligida aqli zaif bolalarni o‘rganish ishlari boshlab yuborildi. Yetuk psixolog L.S.Vigotskiy maxsus psixologiya sohasida juda katta nazariy meros qoldirdi, hamda haqli ravishda oligofrenopsixologiyaning asoschisi hisoblanadi. 1935 yildan aqli zaif bolalar ruhiyatini o‘rganuvchi laboratoriyanı L.V.Zankov boshqara boshladi. Bir necha yillar mobaynida L.S.Vigotskiy bilan xamkorlikda ishladi. L.V.Zankov aqli zaif bolalar xotirasi rivojlantirish muammolarini ishlab chiqishga katta xissa qo‘shdi. 1943 yilda mavjud bo‘lgan eksperimental defektologiya instituti Defektologiya ilmiy tekshirish institutiga aylantirildi. Institutga T.A.Vlasova 1985 yilga qadar rahbarlik qildi.

Aqliy jixatdan zaif bolalar psixologiyasini rivojlanirishga J.I.Shif, G.M.Dulnev, B.I.Pinskiy, S.Y.Rubinshteyn kabi olimlar ham katta xissa qo'shdilar.

Donald K. Routh, Editorlar fikricha aqli zaif bolalar muammolarini o'rganishda eksperimental psixologiya yutuqlarini qo'llash hozirda yangilik hisoblanmaydi. Ma'lumotlarga asosan, XVIII asrga kelib, Itard (1962) qisman ingliz empiristlarining farazini, ya'ni ongni tuyg'ular asosida shakllanishini Aveyron ismli yovvoyi tabiatga ega bolaning reaksiyalarini eksperimental tarzda o'rgandi. Itard protseduralarni hozirda mavjud zamonaviy labaratorilarda ishlata diganlaridan u qadar farq qilmadi³.

"Men ba'zida uni ovqatlanishga nisbatan ishtahasi bilan bog'langan holda o'yin faoliyatiga qiziqtira oldim. Masalan, bulardan biri men uni o'zim bilan kechki taomga olib chiqqanimda yuz bergan edi. Men uning oldiga xech qanday simmetrik tartibsiz holda bir nechta qadahlarni joylashtirdim. Ularning biri ostida kashtan mevasi yashirilgan edi. Bu uning diqqatini tortishiga amin edim. Ularni bir-biriga tekis qilib qo'ydim. Qolgan qadahlar bo'shligini unga ko'rsatganidan so'ng, ularning joyini almashtirdim va unga ishora orqali endi uning navbatilagini tushuntirdim. U qidirgan 1-qadahda unga tegishli bo'lgan kichik mukofotni yashirgan edim". Aqli zaiflikka nisbatan bu turdag'i eksperimental yondoshuv faqatgina uzoq vaqt davom etgandagina amaliy ta'sirga ega bo'lishini eslatib o'tish lozim. Itardning eksperimental tadqiqotlari keyinchalik Seguin va Seguinning shogirdi Montessorining amaliy tadqiqotlari uchun poydevor bo'ldi.

O'zbekistonda oligofrenopsixologiyaning nazariy va amaliy rivojlanishiga bir qancha pedagog, psixologlar katta xissa qo'shdilar. Urushdan keyingi davrda respublika maorif vazirligi "Nuqsonli bolalar umumiy majburiy ta'limni ta'minlash choralarini to'g'risida" qaror qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda respublikaning turli viloyat va shaharlarida aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar uchun maktab, maktab internatlar tashkil etila boshlandi. Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ishi markaziy Osiyoda

³ Donald K. Routh, Editor The experimental psychology of mental retardation 2006

birinchi bo‘lib 1967-yilda Toshkentdagি Nizomiy nomli pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida boshlandi. Shu institutni bitirgan o‘zbek olimlaridan G‘.B.Shoumarov, K.Q.Mamedov va G.Berdievlar maxsus psixologiya fanining rivojlanishiga katta xissa qo‘sib kelmoqdalar. Ular tomonidan maxsus psixologiya faniga oid uslubiy tavsiyalar, o‘quv - uslubiy qo‘llanmalar, darsliklar, monografiyalar yaratilgan.

G‘.B.Shoumarov – “Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar maxsus mактабини bitirgan yosh oilalarda ijtimoiy - psixologik muammolar” mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. K.Q.Mamedov “Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘quvchilarining aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida)” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. G.Berdiev o‘z ilmiy - tadqiqot ishida sog‘lom va aqli zaif bolalarning shaxslararo munosabatlari muammosini o‘rganib chiqqan.

Mamlakatimiz va chet el defektologlarining nazariy tekshirishlari, tajribalarining ko‘rsatishicha, potensial rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lar ekan. Aqli zaif bolalarning ruhiy taraqqiyot xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari haqida ularning bilim egallash xususiyatlarini bilmaslik, defektologlar uchun kundalik ishlarida katta qiyinchilik, tushunmovchiliklarga olib keladi.

Oligofrenopsixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Oligofrenopsixologiya boshqa fanlar singari turli fanlar bilan uzviy bog‘liq. Oligofrenopedagogika, psixiatriya, fiziologiya, logopediya, umumiy va bolalar psixologiyasi va boshqa fanlar shular jumlasiga kiradi. Aqli zaif bolalar ruhiyatining o‘ziga xosligi yuqorida ko‘rsatilgan fan yutuqlarining natijalari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Normal va nuqsonli bola taraqqiyoti umumiy, yagona qonuniyatlar asosida kechishini hisobga olsak, normal bolalar psixologiyasi fani aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun ilmiy asos rolini o‘taydi. Ammo, aqli zaif bolalar taraqqiyoti o‘ziga xos yo‘sinda amalga oshadi. Aqli zaif bolalar psixologiyasi umumiy va ijtimoiy psixologiya ma’lumotlariga asoslanib ish yuritadi.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi yosh davrlar psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi. Qaysi yoshda, qaysi ruhiy holatlar, qay darajada o'sishini, rivojlanishini bilishini ahamiyati katta. Pedagogik psixologiya ham aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun yetarli ma'lumotlar beradi.

Logopediya fani bolaning nutqidagi kamchiliklarini aniqlash, logopedik tekshirishni amalga oshirish imkonini beradi. Oligofrenopedagogika fani aqli zaiflik darajalarini, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida korreksion ish tizimining samarali usullarini tanlashga yordam beradi.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi oligofreniya klinikasi, nevropatologiya, fiziologiya fanlarining yutuqlariga asoslanadi.

Oligofreniya klinikasi aqli zaiflikning etiologiyasini ochib berishga yordam beradi. Nevropatologiya aqli zaif bolalar markaziy asab tizimining anatomik va organik buzilishlari haqida bilim beradi. Fiziologiya esa, markaziy asab tizimining funksional buzilishlari haqida axborot beradi. Bularning barchasi aqli zaif bola ruhiyatining nuqsoni haqidagi bilimlarimizni yanada kengaytiradi, aqli zaif bolalar psixologiyasi, markaziy asab tizimining egiluvchanligi haqida I.P.Pavlovning fiziologik ta'limotiga asoslanadi. Sog'lom qolgan markaziy asab tizimining ayrim qismlari maksimal rivojlanishi, kompensatsiya qilinishi aqli zaif bolalar taraqqiyotidagi yutuqlardandir. Aqli zaif bolalar psixologiyasi psixiatriya yutuqlaridan ham to'la foydalanadi. G.E.Suxareva, M.S.Pevzner aqli zaif bolalarni klinik o'rghanish ishlariga juda katta hissa qo'shdilar. Ular tomonidan aqli zaif bolalar etiologiyasi, patogenezi, davolash ishlari, kasallik natijalari, kasallikning ikkilamchi asoratlari atroficha o'rGANildi. Aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi, ularning taraqqiyot dinamikasi o'rGANildi. Aqli zaiflarga xos, o'xshash tomonlar o'rGANilib bayon etildi. Psixiatr, pedagoglar tomonidan hamkorlikda tekshirishlar olib borilishi natijasida aqli zaiflikni pedagogik, psixologik tashxis qilish mezonlari yaratildi. Aqli zaiflik sabablari, darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, aqliy taraqqiyot bosh miya zararlanishi darajalariga ko'ra davom etadi.

S.L.Rubinshteynning yozishicha, “a’zo tuzilishi bilan, uning funksiyasi orasidagi bog‘liqlik bir tomonlama emas, funksiya a’zo tuzilishiga bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki a’zo tuzilishi ham uning funsiyasiga bog‘liqdir”.

Oligofrenopsixologiya fani metodlari. Fanning usullari deganda nimani tushunamiz? Aslida, uslublarni turli ma’nolarda tushunish mumkin. Turli fanlarda mujassamlangan nazariy, amaliy bilimlarni o‘quvchilar ongiga yetkazishning u yoki bu yo‘lini ham uslublar deb tushunish mumkin. Bu yerda esa, har bir fanning shu fanga oid bilimlarni yig‘ish, tanlash yo‘llari tushuniladi. Aqli zaif bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy jarayonlarining o‘ziga xosligi, bilim egallash imkoniyatlari haqidagi oligofrenopedagoglar uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar quyidagi uslublar orqali yig‘iladi. Bularga kuzatish, tajriba, suhbat, anketa, test, o‘quvchilar faoliyat natijalarini tahlil qilish va boshqa usullar kiradi.

Zeman fikricha, aqli zaif bolalar bilan eksperimental tadqiqotlar, avvalo, kuzatishdan boshlanadi. Zero, aqli zaif bolaning xulq-atvori me’yorda rivojlanayotgan bolanikidan muntazam ravishda farq qiladi-hatto aql uchun moslashuv chorasi qabul qilinganda ham. Zeman ajratib bo‘lmaydigan bu farqni kompyuter analogiyasi orqali aniqlaydi. Kompyuterda buning uchun dasturlash tizimi mavjud. Migrem bu kabi farqni tilshunoslikning kompetensiyasi haqidagi ma’ruzasini keltirgan holda ta’riflagan⁴.

Kuzatish – eng asosiy usullardan bo‘lib, u orqali juda ko‘p va sifatli psixologik ma’lumotlar yig‘iladi. Ammo, har qanday kuzatish orqali kerakli ma’lumotlar olinmaydi. Tegishli, zarur ma’lumotlarni yig‘ish, aniq maqsad asosidagi, izchil kuzatishni talab qiladi. Bu usulning asosiy yutug‘i shundaki, kuzatish tabiiy sharoitda, tekshiriluvchi bilmagan holda amalga oshiriladi. Buning oqibatida tekshiriluvchi hech narsadan tortinmagan holda o‘zini namoyon qiladi. Ammo bu usulning ham o‘ziga xos kamchiligi bor. Bu kamchilik shundan iboratki, tekshiruvchi uchun kerak bo‘lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma’lumotlar ko‘p vaqt talab qilishi mumkin. Lekin kuzatish muddati ortgan sari olinayotgan

⁴ Donald K. Routh, Editor The experimental psychology of mental retardation 2006 Mazmun mohiyati olingan

ma'lumotlar ko'payib boradi. Uzoq muddatli kuzatishlar turli yoshdagi bolalarning nutq, tafakkur, hissiyot, qiziqishlar, xarakter hislatlari, qobiliyatlarini tekshirish vaqtlarida olib boriladi. Bunday uzoq muddatli tekshirish natijalari maxsus kundaliklarda qayd etib boriladi. Kuzatish vaqtlarida bolalarning sog'lig'ini, kayfiyatini, o'zini his qilishini, charchaganlik darajasini inobatga olish talab etiladi.

Psixologik ma'lumotlar yig'ishda tajriba usuli keng qo'llaniladi. Bu usulning qulayligi shundan iboratki, tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar qisqa muddatlarda qo'lga kiritiladi. Bu usulning afzalligi ham shunda. Ammo, tajriba vaqtida tekshiriluvchi bola har doim ham o'zini erkin tutmaydi. Bola iymanib, uyalib, tortinib turadi. Buning natijasida bola o'zini to'la namoyon etmaydi. Bola o'zining ustida tekshirish olib borilayotganligini bilgani uchun ham, tekshiruvchi uchun kerakli ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasligi mumkin. Tajriba usuli o'z navbatida tabiiy va laboratoriya tajribalari turlariga bo'linadi.

Psixologik ma'lumotlar suhbat usuli orqali ham yig'iladi. Bola bilan suhbat qilish jarayonida tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar yig'ib boriladi. Suhbat ma'lum bir maqsadga qaratilgan va savollar mavzuga oid tayyorlanishi kerak.

Anketa usulining mohiyati shundan iboratki, kerakli ma'lumotlar bolalarga ma'lum savollarni o'z ichiga olgan anketalar tarqatish orqali olinadi. Bolalar qisqa muddatda javob beradilar. Anketalar tarqatib ma'lumotlar yig'ishning afzalligi, yutug'i shundaki, qisqa muddatda juda ko'p bolalarni tekshirish mumkin.

Shuni qayd etish o'rinniki, keyingi yillarda test usuli keng qo'llanila boshlandi. "Test" inglizcha so'z bo'lib "tekshirish", "sinash" ma'nolarini bildiradi. Maxsus topshiriqlar tizimidan iborat bo'lgan eksperimental tekshirishdir. Test usuli chet ellarda ayniqsa keng qo'llaniladi. Bu usulning afzalligi shundaki, qisqa vaqtida, ommaviy tarzda juda ko'p tekshiriluvchilarni tekshiruvdan o'tkazish, olingan ma'lumotlarni matematik tahlil qilish mumkin.

Test usulini qo'llash uchun alohida, maxsus sharoitlar, texnika jihozлari har doim ham talab etilmaganligi sababli, bu usulni qo'llash birmuncha oson kechadi. Testlar mazmuniga, tuzilish shakliga ko'ra: individual, guruhli, harakat hamda intellektual qobiliyat va boshqa turlarga ajratiladi.

Oligofrenopsixologiya fani usullariga yuqoridagilar bilan birga bola va o'quvchilar ijodiy faoliyat mahsulotlarini psixologik tahlil qilish ham kiradi. Asosiy e'tiborni faqatgina mehnat mahsulotlarini tahlil qilishga qaratiladi, shu bilan birga faoliyatni ham kuzatish darkor. Mehnat natijalariga qanday erishilganligini ham aniqlash talab etiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinniki, juda ko'p hollarda alohida bir usul qo'llanib qolinmasdan, balki bir nechta usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday holat olingan ma'lumotlarning yanada ishonchli, ob'ektiv bo'lishiga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari.
2. Oligofrenopsixologiya fanining maqsad, vazifalari, metodlari nimalardan iborat?
3. Maxsus psixologiya bo'limlari
4. Oligofrenopsixologiya fanining metodlarini aytib bering.
5. Oligofrenopsixologiya fanining rivojlanish tarixi.
6. XVIII asr oxirlari, XIX asr boshlarida aqli zaif bolalarga bo'lgan munosabat
7. Aqli zaif bolalar psixologiyasini ilmiy jihatdan o'rgangan olimlarni ko'rsating.
8. Oligofrenopsixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini chizmada ko'rsating.

1.2. Psixik rivojlanishning umumiy va xususiy qonuniyatları.

Inson - biosotsial mayjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tugma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko`rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o`ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatining ongli sub`ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo`ladi.

Bu yo`nalish tarafdarlaridan, amerikalik psixolog E.Torndayk o`quvchilarning “*tarbiyaviy kuchlari*” va “*tugma mayllar*”i psixik rivojlanishning etakchi omili qilib ko`rsatib, muhitning, ta`lim-tarbiyaning ta`siri - ikkinchi darajalidir deb aytadi.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatları borligini qayd etib ko`rsatmoqdalar. Biroq muhit ta`siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o`ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatta va tarbiyaga bog`liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda *psixik rivojlanishning notejisligi* kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta`lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to`xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo`nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo`ladi va bu sharoitlarning ba`zilari vaqtinchalik, o`tkinchi xarakterda bo`ladi. *U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo`lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi.* (L.S.Vigotskiy, A.N.Leont`ev). Bunday senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organic jihatdan etilgan qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo`ladi.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi asosiy 3 omili:

- *Birinchisi* - inson tug`ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta`siri;
- *Ikkinchisi* - odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta`lim tarbiyaning ta`siri;
- *Uchinchisi* - odamga tug`ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta`siridir.

Uzoq vaqt davomida maxsus psixologiyada umumiy va xususiy qonuniyatlarni 2 ta mustaqil yo`nalish sifatida o`rganish kerakmi yoki xususiy qonuniyatlarni alohida namoyon bo`lish shakli sifatida qarash lozimmi degan savol muammo bo`lib kelgan. Normal rivojlanayotgan bolalar va nuqsonli bolalar o`rtasidagi farqlarga katta ahamiyat berilgan. Ammo, ular o`rtasidagi o`xshashlik va umumiyliliklar esa e'tibordan chetda qolgan.

Bunday munosabat, ya’ni faqat farqli tomonlarinigina e’tiborga olish bevosita turli xil nuqsonli bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga, hamda jamiyatning munosabatida ham o‘z aksini topdi.

Bunday bolalarning potensial imkoniyatlarini rad etish natijasida ta’lim jarayonining faqatgina bolaning aktual rivojlanish zonasigagina qaratilishiga olib keldi. Buning oqibatida esa ko‘plab bolalarga ta’limga layoqatsiz, rivojlanishga qodir emas deb qaraldi.

Qator ilmiy-tajriba kuzatishlarining ko‘rsatishicha, aqli zaif va normal bolalar taraqqiyoti yagona, umumiy rivojlanish qonuniylari asosida amalga oshar ekan. Normal rivojlanishning barcha bosqichlarida dinamik tarzda amalga oshsa, aqli zaif bolalar rivojida birmuncha chetga chiqish ko‘zga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar rivojlanishi bosh miya nuqsoni asosida kechar ekan.

Demak, aqli zaif bolalar markaziy asab tizimining turli tomonlari, ruhiy jarayonlar adinamik tarzda rivojlanadi. Bu borada L.S.Vigotskiyning “birlamchi” va “ikkilamchi” nuqsonlar nazariyasi, “erishilgan” va “yaqin vaqtarda rivojlanishi mumkin bo‘lgan daraja” haqidagi katta ishlari nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Birlamchi nuqsonlar deganda bosh miyaning turli salbiy ta’sirotlar oqibatida organik buzilishini tushunamiz. Bunday salbiy ta’sirotlarga turli jarohatlar, urilishlar, kasalliklar kiradi. Bularning barchasi bosh miyani u yoki bu darajada zararlaydi. Yuqoridagi birlamchi nuqsonlar ta’siri ostida ikkilamchi hosilalar deb ham yuritiladi. Ikkilamchi nuqsonlarning mazmuni, asosan birlamchi nuqsonlarning chuqurligiga, yuz bergan vaqtiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ikkilamchi nuqsonlar bevosita aqli zaif bola shaxsidagi turli o‘zgarishlardir. “Erishilgan” (aktual) taraqqiyot zonasi deganda tekshirilayotgan vaqtdagi bolaning taraqqiyot darajasi tushuniladi.

“Yaqin vaqtarda rivojlanishi mumkin bo‘lgan zona” esa, ma’lum ta’lim-tarbiya, taraqqiyot bosqichlaridan keyingi rivojlanish darajasini tushunamiz. L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, ta’lim-tarbiya taraqqiyotdan oldinda boradi. Taraqqiyot, rivojlanish esa ta’lim-tarbiyadan bolaning “erishilgan” taraqqiyot

darajasiga asoslanib emas, balki bolaning “yaqin vaqtarda rivojlanishi mumkin bo‘lgan darajaga” asoslanib tashkil qilish lozim⁵.

Ma’lumki, aqli zaif bola tafakkurining rivojlanmasligi asosida bosh miya po‘stloq ostki qismlar faoliyatining buzilishi yotadi. Pedagoglar fikricha, aqli zaif bola taraqqiyoti davomida nazariy bilimlarni egallab boradi. Ammo, bolaning aqliy koeffitsenti (IQ) o‘zgarmaydi degan fikrni yoqlab chiqqanlar. Ruhiyatning rivoji og‘ir darajadagi aqli zaiflarda ham davom etadi.

Hatto, aqliy nuqson og‘irlashib boruvchi holatda ham ruhiy rivojlanish davom etadi.

Bola ruhiyati har qanday og‘ir nuqsonda ham rivojlanib borish xususiyatiga ega ekan. J.I.Shifning e’tirof etishicha, “Aqli zaif bola ruhiyati, normal bola ruhiyati kabi rivojlanish davrlarini boshidan kechiradi”. Ruhiyatning rivojlanish qonuniyatlariga ta’lim-tarbiya ham ma’lum darajada ta’sir etadi.

Oligofreniya muammosiga bag‘ishlangan adabiyotlarni tahlil qilsak, 2 ta o‘ziga xos oqimni ko‘rish mumkin:

Birinchi oqim tarafdarlarining ta’kidlashicha, aqli zaif bola u yoki bu darajada sodda, elementar bilimlarni o‘zlashtiradi. Ammo, ular umumlashtirish, abstraksiyalash jarayonlarini normal bolalardek bajara olmaydilar. Ruhiyatning qaysi sohasini olmang, taraqqiyotda yuqori darajaga yeta olmaydilar.

Bularning asosida yetakchi kamchilik bo‘lgan umumlashtirish jarayonlarining zaifligi yotadi.

Ikkinci yo‘nalish, L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Ruhiy taraqqiyotni yagona jarayon deb hisoblab, har bir rivojlanish bosqichi undan oldingi rivojlanish darajasiga bog‘liqligi uqtiradilar. L.S.Vigotskiy birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni ajrata bilish zarurligini ko‘rsatadi. “Dastlabki va tez-tez uchraydigan nuqson psixologik funksiyalarning rivojlanmasligidir. Buning asosida xotira, tafakkur, xarakter buzilishlari yotadi. Nuqsonli bola ruhiyati rivojlanishining asosiy belgisi biologik va madaniy rivojlanish orasidagi bog‘liklikning buzilishidir,” deb ta’kidlaydi L.S.Vigotskiy.

⁵ Выготский Л.О. Основы дефектологии-СПб 2003

Boladagi biologik nuqson o‘z navbatida madaniy bilimlarni egallahsga to‘sinqilik qiladi. L.S.Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, oliy ruhiy funksiyalar xotira, tafakkur, xarakter madaniy rivojlanish mahsulidir. Aqli zaif bola rivojidagi biologik va madaniy sohalarning bir-biridan uzoqlashishi natijasida ulardagi intilish va talablar disgorminik, uyg‘un bo‘lmagan tarzda shakllanadi.

S.S.Korsakov 1905-yilda chop etilgan “Mikrotsefallar psixologiyasi” asarida “Chuqur darajadagi aqli zaif bolalarda atrofni bilishga bo‘lgan intilish shakllanmagan”-deb ta’kidlagan edi. Bu fikrlarni G.E.Suxareva o‘z ishlarida rivojlantiradi. M.G.Blyumina esa, “Bog‘cha yoshidagi oligofren bolalarga bo‘shlik, zaiflik, tashabbussizlik, qiziqishlarning yetishmasligi xosdir”-deb ko‘rsatadi. Shuni qayd etish o‘rinliki, aqli zaif bolalarda jinsiy yetilish muddatidan birmuncha oldin yuz beradi. Albatta, bu holat nuqsonli mazmun kasb etadi. Shuning asosida sekin-asta barcha ruhiy rivojlanish buzila boshlaydi.

Aqli zaif bolalar nutqi birmuncha sekin rivojlanib boradi. Buning natijasida aqli zaif bolalar atrofdagilar bilan muomalasi kechikib boradi. Ma’lumki, jamoa bola ruhiyatining rivojida yetakchi omil vazifasini o‘taydi. Ammo, aqli zaif bolalar normal tengdoshlaridan ajralib, chetda qoladilar. Aqli zaif bola ruhiyatining rivoji ichki va tashqi noxush sharoitlar asosida qiyin amalga oshadi. Asosiy noxush omillarga boladagi qiziqishlarning zaifligini, qiyin uquvchanligini, yomon idrok etishlarini ko‘rsatish mumkin. Aqli zaif bolalardagi bunday xislatlar ichki biologik belgilardir. Shular asosida aqli zaif bola, bolalar jamoasidan chetda qoladi.

L.S.Vigotskiy o‘zining 1936-yilda chiqqan “Tarraqqiyot diagnostikasi va qiyin bolalikning pedagogik klinikasi” asarida quyidagi fikrlarni bildiradi. “Simpton birlamchi nuqsondan qancha uzoq tursa, shuncha oson tarbiyaga, davolashga beriladi”. Bu qo‘llanmada nuqsonlilikni erta diagnostika qilishning ahamiyati ekanligini alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Muammo yuzasidan salmoqli ilmiy ishlar M.S.Pevzner va V.I.Lyubovskiy faoliyatlariga to‘g‘ri keladi. Ular o‘zlarining uzoq yillik kuzatishlari asosida 1936-yilda “Oligofren bolalarning taraqqiyot dinamikasi” deb nomlangan fundamental asarlarida zaif bolalarning aqliy taraqqiyotidagi samarali davrlarni ko‘rsatib

berganlar. Mualliflarning ta'kidlashlaricha, ta'limning dastlabki yilidagi har taraflama pedagogik ta'sirga qaramay, aqli zaif bolalar rivoji sekin amalga oshar ekan. Aqli zaif bola taraqqiyotida 3-4 sinflar asosiy rol o'ynar ekan. Bu yoshlarda sezilarli siljishlar yuz berar ekan.

O'smirlar davrida, egallangan bilimlar mustahkamlanib borar ekan. Ammo, bilim egallah bilan, uni amalda qo'llay olish orasida katta farq yuzaga kelar ekan. Aqli zaif bolalarning ruhiy taraqqiyotida yuqori sinflar yetakchi rol o'ynar ekan. Albatta, olimlarning xulosalari asosiy aqli zaif bolalar yuqoridagi yosh davrlariga mos kelmasligi mumkin.

Chet el olimlari orasida ilg'or fikrli olimlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Bularga misol qilib, E.Xayssermann, R.Zazoni, D.Uortisni ko'rsatishimiz mumkin. Bu mutaxassislarning e'tirof etishlaricha, aqli zaif bolalarda ham potensial rivojlanish imkoniyatlari mavjud ekan. Aqli zaif bolalar ruhiyatining rivojlanish dinamikasi buzib ko'rsatuvchi oqimlar ham mavjud. Bularga misol qilib "chegara", "taraqqiyotning to'xtashi", "taraqqiyot chegarasi", "degeneratsiya nazariyasi", "ahloqiy nuqsonlilik" kabi qator noilmiy qarashlarni ko'rsatish mumkin. Ammo, ilg'or chet el olimlarining va mamlakatimizning olimlari tomonidan qo'lga kiritilgan ilmiy tajribalarining natijalari yuqoridagi qarashlarning asossizligini allaqachonlar isbot qildi.

Inson ongingin rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishida namoyon bo'ladi.

Insonning borliqni (voqelikni) aks ettirishi-faol jarayondir. Ma'lumki, inson zotining rivojlanini ob'ektiv borliqqa (voqelikka) va o'ziga faol ta'sir ko'rsatishida sodir bo'ladi. Bolaning katta yoshdagi kishilar bilan tashkil qiladigan amaliy faoliyati, masalan, o'yini, kuzatishi, mehnati, o'qishi, adabiy asarni mutolaa qilishi hamda qizishining barqarorlashuvi, iqtidorining takomillashishi va boshqalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Rivojlanish inson shaxsining tarkib topish jarayonidir. Rivojlanish o'zaro uzviy bog'liq qator bosqichlarda amalga oshadi. Bola aql zakovatining ko'rsatkichi, sifati, xarakteri uning atrofdagi odamlar bilan kundalik munosabatlar va amaliy faoliyatida

vujudga keladi. O‘zaro ta’sir natijasida unda aqlning ijodiy mahsuldorligi, teranligi, tezligi orta boradi.

L.S.Vigotskiy yosh psixologiyasiga turli davrlar uchun xarakterli bzlgan davr inqirozi (krizisi) tushunchasini kiritdi (Go‘daklik davri inqirozi, bir yoshli davri inqirozi, uch yoshli davr inqirozi, yetti yoshli davr inqirozi, o‘n uch yoshli davr inqirozi, o‘n yetti yoshdagi inqiroz).

L.S.Vigotskiyning shogirdi L.I.Bojovich insonning kamol topishini yosh davrlariga bo‘lishda motivlarni asos qilib oldi, shuning uchun ham buni motivatsion yondashish deb atash mumkin. (1-bosqich-chaqaloqlik, 2-bosqich-motivatsion tasavvur, 3-“Men”ni anglash davri va x.k.)

D.B.Elkonin tasnifi A.N.Leontevning yetakchi faoliyat to‘g‘risidagi nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror turi ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxch sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi. Shunga asoslanib, D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

- Go‘daklik davri bir yoshgacha, asosiy faoliyati-bevosita emotSIONAL muloqot
- Ilk bolalik-1-3 yosh, asosiy faoliyati-predmet bilan nozik harakatlar qilish (manipulatsiya)
- Maktabgacha davr-3-7 yosh asosiy faoliyati-rolli o‘yinlar
- Kichik mакtab yoshi-7-10 yosh, asosiy faoliyati-o‘qish
- Kichik o‘smirlik 10-15 yosh, asosiy faoliyati-shaxsnинг intim muloqoti
- Katta o‘smirlik yoki ilk o‘spirinlik davri 16-18 yosh, asosiy faoliyat-o‘qish, kasb tanlash

Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsni tarkib topishiga sotsial-psixologik nuqtai-nazardan yondoshib, yosh davrlarining o‘ziga xos tasnifini yaratdi. A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsnинг bir tekis kamol topishini o‘rgangan bo‘lsalar, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksil ijtimoiy) bosqichlari ham bo‘lishi mumkinligini isbotlab berishga harakat qiladi: Shaxsnинг kamol topishi uchta

makrofazadan iboratligini qayd etib, 1-bolalik davriga to‘g‘ri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish, ko‘nikish (adaptatsiya) ro‘y berishini; 2-o‘s米尔arga xos individuallashish; 3-o‘spirinlikda, ya’ni yetuklikka intilish davrida o‘ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari paydo bo‘lishini bayon qiladi.

Psixik rivojlanishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini norma va patologiyada. Rivojlanishda turli xil nuqsonlari bo‘lgan bolalarni maxsus o‘qitish tajribasi shu turdagи o‘qitish muassasalari tashkil etilgandan so‘ng birinchi navbatda bilish jarayonlarini psixologik o‘rganishni jadallashtirdi. Bu jarayon (ya’ni psixologik o‘rganish jaaryoni) bolalarni materialni o‘zlashtirishdagi imkoniyatlarini tushunish, o‘qitish uslublarini tanlash va ularni izohlash uchun zarur edi. Bularni o‘rganish jarayonida shu narsa ayon bo‘ldiki aqliy rivojlanishi normada bo‘lgan bolalardagi ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ham taalluqlidir.

Birinchi marta bu qonuniyat vrach va psixolog T.Y.Troshin tomonidan “Antropologik tarbiya asoslari”, “Nuqsonli bolalarning qiyosiy psixologiyasi” kitobida 1915-yilda Petrogradda, keyinchalik esa L.S.Vigotskiy tomonidan ta’kidlangan.

Bu qonuniyatga birinchi navbatda ruhiy rivojlanishning bosqichma-bosqich amalga oshishi, ruhiy funksiyalarni rivojlanishida sendetiv davrlarning borligi, oliy ruhiy funksiyalarni rivojlanishida nutqning roli, o‘qitish, o‘rgatishning ruhiy rivojlanishdagi asosiy roli taalluqlidir. Bu esa boshqa normal va ruhiy buzilishdagi rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini L.V.Zankov, T.A.Vlasova, I.M.Solovyov, T.V.Rozanova, J.I.Shif va boshqalarning tekshiruvlarida ham 1930-yildan 1970-yilgacha ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu psixologlar va ularning hamkasblarining ko‘rsatishicha ong, xotira, tasavvur, aqlning rivojlanish qonuniyatlarini normal rivojlanayotgan bolalar uchun ham eshitishida nuqsoni bo‘lgan yoki aqli zaif bolalar uchun ham umumiyyidir. Umimiy xulosaga kelishda psixologiya sohasining yirik mutaxassislari L.S.Vigotskiydan boshlab har xil davrlarda shug‘ullangan olimlarning bolalar ruhiy rivojlanishini

o‘rganishi asosiy o‘rin tutgan. Bu ayrim qarashlarni solishtirishga, maxsus psixologiyadagi bir-biriga zid bo‘lgan qarashlarni yengib o‘tishga imkoniyat yaratdi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarni ayrim turlarini o‘z ichiga olgan solishtirma tekshiruvlar 1960-yildan boshlab o‘tkazila boshlangan (normada qanday, patologiyada qanday). Masalan, AQShda S.Krik va uning hamkasblari turli toifadagi bolalarni psixologik qobiliyatini o‘rganishgan. X.Furt kar bolalarda hamda turli toifadagi bolalarda nutqni rivojlanishini o‘rgangan. Buyuk Britaniyada N.O.Konnor solishtirma tekshiruvlar o‘tkazib aqli zaif va kar bolalarda predmetni anglashga so‘zning roli va ta’sirini solishtirgan. Bu barcha tekshiruvlar va izlanishlar natijasida normal rivojlanayotgan bolalar uchun ham umumiy bo‘lgan qonuniyatlar borligi hamda faqat rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun alohida qonuniyatlar borligi aniqlangan. Nuqsonli bolalarni qiyosiy tekshiruvi umumiy psixologiya uchun ham ahamiyatga ega.

Nuqsonli bolalarni ruhiy rivojlanishida ikkilamchi defektlarni kelib chiqishi 1930-yillarda L.S.Vigotskiy tomonidan anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatları sifatida ta’kidlab o‘tilgan. U ko‘rsatib o‘tganidek rivojlanishida nuqsoni bor bolalarda ham sotsial muhitda, ham tashqi dunyo bilan bo‘lgan muloqotdagi buzilish bitta umum qonuniyatda yuzaga chiqadi.

Rivojlanishidagi buzilish muammolarini ko‘rib chiqib J.I.Shif bu qonuniyatni quyidagicha izohlaydi: “Anomal rivojlanishning barcha holatlari uchun umumiy bo‘lgani shuki, nuqson natijasida yuzaga chiqqan oqibatlar anomal bolani shaxs sifatida rivojlanishini buzilishiga olib keladi” bu bolalarni hammasida nutq orqali muloqot buzilishi, garchi har xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar o‘rganilayotgan hodisalar guruhida ta’sir qiluvchi qonuniyatlarni o‘rnatalishi va o‘ziga xosligini ko‘rsatish har bir fan doirasidagi muhim vazifalardan biridir.

Bu maxsus psixologiya uchun ham taalluqlidir. Biroq umumiy qonuniyatlarni ajratish bir tomonlama, shu qonuniyatlarni alohida maxsus ko‘rinishi boshqa tomonlama, ayniqsa alohida nuqsonlarni rivojlanishi uchun taalluqli tomoni qiyin va murakkab.

Misol tariqasida nuqsonli bolalarni tekshirish natijasida kelib chiqqan fikrlarni keltiramiz.

“So‘zlarning ahamiyati o‘quvchilarning ongida juda noaniq, bir-biridan chegaralanmagan, o‘zgaruvchan”. Buning natijasida kuzatiladiki, o‘quvchilar nutqida ishlatiladigan so‘zlar bilan ob’ektiv borliq predmetlarni bitta so‘z bilan ataydi yoki bironta predmetlarni boshqa predmet nomi bilan ataydi. Shunisi xarakterlikи buning uchun ularga asos bo‘lib predmetlarni tashqi ko‘rinishining o‘xhashligi xizmat qiladi. O‘quvchilar foydalanadigan bu umumlashtirish borliqni anglab borish natijasida asta sekinlik bilan o‘zgarib boradi.

“So‘z bolalarda tashqi muhitni ko‘rib anglashdagi tajribasiga suyangan holda ishlatiladi. U o‘zida yolg‘on tushuncha saqlaydi. O‘ziga xos bo‘lgan bir so‘zni ikkinchisi bilan almashtirish predmetlarga bo‘lgan keng taalluqlilikdir. Bitta hodisaga taalluqli bo‘lgan so‘zlarni aralashtirish, almashtirish predmetni nomini anglatuvchi so‘zlarni ularni belgisi bilan nomlash va boshqalar bu hammasi juda sekin rivojlanuvchi nutqiy muloqot qobiliyatini ko‘rsatadi”. Aniqlanishicha, biron nuqson uchun olimlar tomonidan maxsus, o‘ziga xos deb aniqlangan qonuniyat ko‘pincha faqat shu nuqsonli bolalar uchun taalluqli bo‘lmay balki umumiylar xarakterga ega bo‘ladi. Bu holat aniq tasdiqlab beradiki, biron bir nuqsoni bor bolalarni o‘ziga xosliklarini norma bilan solishtirish yetarli bo‘lmaydi. Negaki shu nuqsonni o‘ziga xos belgilarini yuzaga chiqarishga faqat unga xos bo‘lgan qonuniyatlarini aniqlashga imkon bermaydi. Haqli ravishda bunday solishtirish bir necha tur nuqsonli rivojlanish qonuniyatlarini bir-biridan farqlashga qodir emas.

Agar ularni ahamiyatliligi darajasi bo‘yicha navbat bilan joylashtirsak 1-navbatda shubhasiz kuzatilayotgan bolalarda normal bolalarga nisbatan ma’lumotlarni qabul qilish va uni qayta ishlash qobiliyatini eslab o‘tish kerak. Barcha turdagи rivojlanishning buzilishlarida qabul qilinishi kerak bo‘lgan ma’lumotning hajmi (ma’lum vaqt birligida) normadan kamroq bo‘ladi. Nuqsonli bolalarda normal bolalar qabul qiladigan hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi. Bundan tashqari sezgirlik chegarasining oshishi (masalan eshitish sustligida) shovqin darajasini ko‘tarilishiga olib keladi. Bu esa qabul qilinayotgan

ma'lumotlarni aniqligiga ta'sir etadi. Ma'lumotlarni qayta ishlanishi sekinlashadi. Ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash bu sensor jarayonlar-sezish, qabul qilish, xotira, tasavvur, nutq, ong shularga mos ravishda ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni susayishi ham turli sabablar bo'lishi mumkin. Birinchi navbatda bularning sababi sensor kirishdagi defektdir, ya'ni analizatorning (sezgi organi) retseptor qismidagi yoki analizator markaziy qismining buzilishidir (miya po'stlog'idagi shu funksiyaga javob beruvchi markazning buzilishi). Inson MNSning po'stloq qismiga yetib bormaydigan ta'sirlarga ham javob reaksiyasi ko'rsatishi mumkin. Bu reflektor instinktli reaksiya asosida sodir bo'ladi, ma'lumot qabul qilish va uni qayta ishlash haqida gapirilganda MNSga yetib boradigan ta'sirlar nazarda tutiladi.

Psixofiziologiya nuqtai nazaridan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashni buzilishida integrativ jarayonlarni buzilishi ham ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu predmetlarni, hodisalarini tanib olishning qiyinligi bilan namoyon bo'lib bu jarayonni amalga oshirish uchun obrazlarni tasavvurini faollashtirish zarur bo'ladi.

Sensor organlarida yetishmovchiligi bor yoki MNSda yetishmovchiligi bor bolalarda yosh davrlaridan boshlab umum yoki maxsus rivojlanish qonunlarining ta'siri ko'rina boshlaydi. Avvalo, bu bolani faolligi, ta'sirchanligini sustligida namoyon bo'ladi. Bu davrda bolaning rivojlanishdagi omillardan asosiysi uning onasi bilan bo'lgan aloqasidir. Bu aloqa faqat ko'krak suti bilan oziqlantirishda, yo'rgaklash, cho'miltirishda emas, balki, birinchi kundan ona u bilan gaplashadi, silaydi, unga kulib qaraydi, qo'liga oladi. Bu harakatlar barchasi bolaning sezgi organlariga ta'sir etadi. Ko'rish, eshitish, teri-taktik sezish va bu hammasi birgalikda bolaning ruhiy rivojlanishi uchun stimul hisoblanadi.

Go'dak o'z navbatida onaning o'zaro aloqasiga o'zining reaksiyasini bildira boshlaydi, 2 oylikdan boshlab buni psixologlar, fiziologlar, vrachlar "jonlanish kompleksi" deb ataydi. Bu reaksiya go'dakning kulishi, qo'lini qimirlatishi, qo'llari bilan onasiga intilishi, oyoqlarini ko'tarishidir.

Go'dakdag'i bu reaksiya onasiga ijobiy ta'sir etadi va go'dak bilan ko'proq, uzoqroq muloqot qilishga harakat qiladi. Ona bola o'rtasidagi muloqotning uzoqroq bo'lishi bola rivojlanishini tezlashtiradi. Biron bir nuqsoni bor bolalarda esa ona va

bolaning muloqoti boshqacharoq kechadi. Bunday bolani ona qo‘liga olganda, unda jonlanish kompleksi sodir bo‘lmaydi yoki kechikib sodir bo‘ladi. Bolada reaksiyaning yo‘qligi yoki sustligi onaning u bilan bo‘ladigan muloqotini susaytiradi va muloqot faqat hayotiy zaruratlarni qondirishdangina iborat bo‘lib qoladi. Ona bola o‘rtasidagi muloqotning susayishi bolaning fiziologik, psixologik rivojlanishini kechikishiga olib keladi.

Kattalar bilan doimiy muloqotning yetarli emasligi bolalar uyidagi (mehribonlik uyidagi) bolaning rivojlanishidagi orqada qolishlarga sabab bo‘ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muloqotda bo‘ladi, lekin har bir tarbiyachiga 8-10 ta bola biriktirilgani uchun bu muloqot uydagiga nisbatan 8-10 marttaga qisqaradi. Bundan tashqari o‘z tuqqan onasi bilan bo‘lgan muloqot his-hayajonga boyroq bo‘ladi va muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun mehribonlik uyidagi bolalarda ular hech qanday nuqsonsiz sog‘lom bo‘lganida ham go‘dakligidan boshlab ruhiy rivojlanishning susayishi kuzatiladi. Agar bola biron bir nuqson bilan bo‘lsa unda bu sezilarli darajada bo‘ladi. Bunday bolalar mакtabgacha bo‘lgan davrda defektlarni effektiv korreksiyasiga muhtoj bo‘ladi. E.P.Kuzmicheva boshchiligidagi defektologlarning olib borgan tekshiruvlari shuni ko‘rsatadiki, sensor nuqsonlari bor bolalar bilan erta boshlangan korreksion pedagogik ishlar ularni rivojlanishini normaga yaqinlashtirishi mumkin.

Motorikadagi kamchiliklar nutqning rivojlanishdagi talaffuzidagi nuqsonlarga sabab bo‘ladi. Fonetik nuqsonsiz nutq, nutq organlarining aniq koordinatsiyasi bilan bog‘liq. Oyoq, qo‘l harakatlarida namoyon bo‘lgan motorika buzilishi nutq harakatlarida ham o‘z aksini topadi. Maktab davrida motorikadagi kamchiliklar har darsda, darsdan tashqari o‘tkaziladigan korreksion tarbiya natijasida silliqlanib, sezilarli bo‘lmay qoladi. O‘quvchilarning harakatida asta-sekin aniqlik paydo bo‘ladi. Yuqori sinflarda ular yengil va chiroyli yurishni, raqs tushishni, yugurish, koptok o‘ynash, murakkab harakatlarni o‘rganib oladi.

Aqli zaif bolalarni e’tiborli boshqaruvsiz, noaniq, diqqatini tortish qiyin. Asosan qisqa va kam xajmdagi e’tibori qo‘zg‘aluvchan o‘quvchilarga xos. Qo‘zg‘aluvchanligi sust oligofren bolalar bir qarashda e’tiborlidek ko‘rinadi.

Bulardagi sustkashlik patologik enartlikning bir ko‘rinishi xolos. Kichik sinflardagi aqli zaif bolalar ham juda e’tiborsiz. Bu ularni o‘qish, o‘rgatish ishlarida halaqt beradi. Ular kerakli darajada bajarayotgan ishiga e’tibor qaratmaydi, chalg‘imasdan ishlay olmaydilar. Bunda ularni qiziqishlarining rivojlanmaganligi ham ahamiyatga ega.

Qiziqishlar bola xulqini uyg‘otadi va sotsial faollikni oshiruvchi kriteriylardan biridir. Motivatsion talab sferasi aqliy rivojlanishi sust bolalarda shakllanishni boshlang‘ich davrida bo‘ladi. Ularning qiziqishlari bajarayotgan faoliyatini bandligi bilan bog‘liq, intensivligi past, chuqur emas, bir tomonlama, shakllanmagan va mutloq emas, fiziologik talablarga nisbatan hosil bo‘ladi. ularni atrofdagi predmetlarga bo‘lgan qiziqishi sust. Qo‘zg‘aluvchan bolalar hamma narsaga talpinadi, mumkin yoki yo‘qligini o‘ylab o‘tirmay ko‘zi nimaga tushsa ushlab oladi. Lekin ularni qiziqish boshqarmaydi, balki ularga ‘os bo‘lgan impulsivlik boshqaradi. Ular shu zahoti ushlagan narsalarini tashlab yuboradi. Chunki u ular uchun qizi emas.

Qo‘zg‘aluvchan bo‘lmagan oligofrenlar esa atrofdagi xech narsani sezmaganday ko‘rinadi. Ularni e’tiborini hech narsa bilan tortib bo‘lmaydi. Ular kattalarga juda kam savol beradi. Biron bir predmet haqida mustaqil o‘rganishga harakat qilmaydi, biron bir predmetga qaratilgan harakati og‘ziga tiqib ko‘rishdan, shu predmet bilan stolni urib ko‘rishdan iborat bo‘ladi. Ba’zan ular ayamasdan yangi o‘yinchoqlarni buzadi, sindiradi. Bunday bolalarga maktabda, o‘qish davrida xech qanday qiziqishdar bo‘lmaydi yoki chuqur bo‘lmagan, befoyda, bir tomonlama bo‘lishi mumkin. Ular qiziqishlarini to‘liq anglamaydi, yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Ularni shaxsiy qiziqishlari hamma narsadan ustun. Kichik sinfdagi aqli zaif bolalar o‘quv darslarida faol emas, ayniqsa fikrlash zarur bo‘lgan mashg‘ulotlarda, o‘qishning qiziqishlari o‘qitish uslubini yorqin berilishiga boqliq. Ularda normal tengdoshlariga nisbatan o‘quv materialini mazmuniga bo‘lgan qiziqish kechroq namoyon bo‘ladi. Ba’zan o‘qishga befarqlik bilan birgalikda shunday holatlar ham kuzatiladiki, o‘qitishning boshlang‘ich davrida bolalarda ular uchun yangi mashg‘ulotlar bilan o‘qishga, darslarga bo‘lgan ijobiy munosabat kuzatiladi. Hattoki, vazifani to‘liq anglamay, uni bajarish usullarini tasavvur qilmasdan turib o‘quvchilar

katta qiziqish bilan uni bajarishga kirishadi. Uni bajarish usullarini egallay borgan sari o‘quvchi tomonidan unga bo‘lgan qiziqishi ortadi.


Savol va topshiriqlar

1. Psixik rivojlanish haqida umumiy tushuncha bering
2. Aqli zaif bolaning psixik rivojlanishning xususiy xususiyatlari
3. Psixik rivojlanish patologiyasidan kelib chiqadigan aqli zaiflik haqida ma’lumot bering.
4. Inson shaxsining psixik rivojlanishining omillari
5. L.S.Vigotskiyning “birligi” va “ikkinchi” nuqsonlar nazariyasi nimadan iborat.
6. Aqli zaiflikning kelib chiqish sabablarini ko’rsating.
7. D.V.Elkonin yosh davrlarni qaysi bosqichlarga ajratgan.
8. A.V.Petrovskiyning yosh davrlar tasnifi


1.3. Aqli zaif o‘quvchilarning psixologo-pedagogik tavsifnomasi.

Bolalarda aqliy rivojlanishning kechikishning turlari:

Kasallikning darajasiga qarab, aqlan zaiflikning 4 ta asosiy toifalari mavjud.



Kasallikning darajasiga qarab, aqlan zaiflikning 4 ta asosiy toifalari mavjud.



Og'ir aqlan zaiflik

O'ta og'ir aqliy zaiflik

1. Yengil aqlan zaiflik:

- Taxminan 10 ta aqliy nogiron bolaning qariyb 8 nafari yengil aqlan zaiflik toifasiga kiradi.
- Bu kasallikka chalingan bolalarning IQ aqliy darajasi 50-75 orasida o'zgarib turadi va ular boshlang'ich ilmiy bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin.
- Bu toifadagi bolalarga muloqot qobiliyatini o'rganish ko'proq vaqt olishi mumkin, ammo o'zlashtirib bo'lganidan keyin boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilishlari mumkin.
- Yengil aqlan zaif bolalarning asosiy muammolari bular, yozish va o'qish bilan bog'liq muammolar, qaror qabul qila olmaslik va ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lmaslik.
- Yengil aqlan zaif bolalar jamoat va ota-onada yordami bilan mustaqil hayot kechirishlari mumkin.

2. O'rtacha aqlan zaiflik:

- Aqlan zaif bolalarning taxminan 10 foizi o'rta darajadagi aqlan zaiflar toifasiga kiradi.
- Bunday bolalarning IQ darajasi o'rtacha 35-55 atrofida bo'ladi.
- Bu toifadagi bola cho'milish, yeb-ichish, tashqariga chiqish kabi vazifalarni ota-onada nazorati ostida bajarishi mumkin.
- Bola umumiy yozish, o'qish va hisoblash qobiliyatlarini o'zlashtirishi mumkin.
- Bola asta-sekinlik bilan o'rganayotganiga qaramasdan, u kunlik sodda vazifalarda qatnashishi mumkin.
- Erta yoshda muloqot qobiliyatiga ega bo'lgach, bu toifadagi bolalar kelajakda funktsional hayot kechirishlari mumkin, ammo ular nazorat ostida bo'lishlari zarur.

3. Og'ir aqlan zaiflik:


- Aqlan zaif bolalarning qariyb 3-5 foizi og'ir kechish darajasiga tushadi.
- Bunday bolalarning IQ darajasi o'rtacha 20-40 atrofida bo'ladi.
- Ular ba'zi o'zini eplash va muloqot qobiliyatlarini o'rganishlari mumkin.
- Og'ir aqlan zaif bolalar maxsus jamoat uylarida yashashlari zarur.

4. O'ta og'ir aqliy zaiflik:

- Aqlan zaif bolalarning 1-2 foizi o'ta og'ir aqliy zaiflashgan guruhga kiradi.
- Ularning IQ darajasi 20-25 artofida.
- Asosiy muloqot va o'z-o'zini himoyalash ko'nikmalarini maxsus o'qitish usullari orqali o'zlashtirishlari mumkin.
- Bola nevrologik kasalliklarga duchor bo'lganida, ushbu kasallik darajasiga chalinishi mumkin.

Aqli zaiflikning quyidagi asosiy sabablarini ko'rsatadi:

Kasallikning darajasiga qarab, aqlan zaiflikning 4 ta asosiy toifalari mavjud.



1. Genetik omillar:

- Aqlan zaif bolalarning 10 nafardan 3 tasi bu kasallikka irsiy muammolar sabab chalinadi.
- Ota-onalardan g'ayritabiyy genlarni meros qilib olish orqali bunday bolalar xromosoma nuqsoniga olib keladigan nozik X sindromiga ega bo'ladi.
- Farzandingiz Fenilketonuriya (PKU) bilan og'rigan bo'lishi ham mumkin, bu yana bir genetik nuqson bo'lib, u tug'ishdan keyin sodir bo'ladi.

- Bundan tashqari, genetik rivojlanish jarayonida keraksiz mutatsiyalar tufayli bolangiz aqliy qobiliyatsiz bo'lib qolishi mumkin.

2. Ota-onas kasalliklari:

- Homila spirtli ichimlik sindromi aqliy qobiliyatning pasayishiga olib keladigan xavfli omillardan biridir.
- Homiladorlikning dastlabki uch oyligida, agar noqonuniy giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilgan bo'lsangiz, chaqalog'ingiz bunday sindromga duch kelishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, homiladorlik davrida spirtli ichimliklar iste'moli bolalarda o'rganish qobiliyatini rivojlanlanishida muammolarga olib keladi.
- Shuningdek, aqliy zaiflashuv sigaret chekish bilan ham bog'liq.
- Qizamiq, toksoplazmoz, glandular kasalliklar yoki sitomegalovirus (CMV) infektsiyasi kabi onalik infektsiyasiga chalinish ham, tug'ilman bolangizni aqliy zaiflashuviga olib kelishi mumkin.
- Homiladorlik paytida sizda yuqori qon bosimi (gipertoniya) mavjud bo'lsa, tug'ilman homilada qon aylanishi buziladi va miyaning noto'g'ri rivojlanishiga olib keladi.
- Ba'zi tug'ilish nuqsonlari chaqaloqning miyasida, boshida va markaziy nerv tizimida jismoniy buzulishga olib kelishi mumkin, bu esa aqliy zaiflashuvga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar farzandingiz nerv to'qimasi nuqsoni bilan kasallangan bo'lsa, unda umurtqa mushakning shakllanishi noto'g'ri bo'ladi, bosh miya suyuqligi uning bosh suyagi ichida to'planadi va u o'zlashtiruvchanlik qobiliyati yo'qligidan aziyat chekadi.

3. Bolalikdagi jarohatlar va kasalliklar:

- Suvchechak, qizamiq, ko'k yo'tal va gipertireoz kabi xافتli bolalikdagi kasalliklar uzoq vaqt davomida davolanmasa, aqliy zaiflashuvga olib kelishi mumkin.
- Menengit yoki ensefalit kabi infektsion miya kasalliklari miyada mushaklarning shikastlanishiga va aqliy kechikishga olib kelishi mumkin.

- To'satdan ro'y berган yo'l-transport hodisalari yoki yuqori balandliklardan yiqilish ham miya shikastlanishi keltirib chiqarib, bolalarda aqliy kamchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

4. Atrof – muhit omillari:

- Bolangizni rivojlanayotgan jarayonida tarbiyasini e'tiborsiz qoldirsangiz yoki befarq bo'lsangiz, u zarur aqliy va jismoniy stimulga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda u zarur narsalarni o'rganishdan aziyat chekadi, va bu aqliy qobiliyatni pasayishiga olib keladi.
- Oziqaviy moddalarning yetishmovchiligidan aziyat chekadigan yoki zo'rslashga uchragan, qashshoqlikda va nosog'lom turmush sharoitlarida yashayotgan yoki yetarli tibbiy yordamga ega bo'lmasligi bolalar ma'lum bir yoshga yetgunga qadar aqlan qoloq holga kelishi mumkin.
- Qo'rg'oshin yoki simob kabi toksik kimyoviy moddalarga nisbatan yuqori ta'sirchanlik ham bolalarda aqliy nobarkamollikka olib kelishi mumkin.

Olim bolalarda aqlan zaiflikning quyidagi belgilarini ko'rsatadi:

1. Bolalarda aqliy zaiflashishning ayrim umumiyligi belgilari quyidagilardan iborat;
2. Normal intellektual me'yorlarga mos kelmaslik;
3. O'tirish, yurish va emaklashning kech yoshda bo'lishi;
4. So'zlashuvda muammolar;
5. Narsalarni eslab qola olmaslik;
6. Sodda narsalarni tushuna olmaslik;
7. Mantiqan fikrlash qobiliyati yo'qligi;
8. O'rganishda qiyinchiliklar;
9. Bolacha o'zini tutish;
10. Mustaqil qaror qabul qila olmaslik;
11. Kiyinish, hojat qabul qilish va mustaqil ovqatlanish kabi kundalik ishlarni sekin o'zlashtirish

Aqli zaif bolalarda qaramlik, tajovuz, psixotik buzilishlar, o'jarlik, o'z-o'zini zararlashga qarshi kurashish, ijtimoiy faoliyatdan chekinish, impuls nazoratini

yo'qligi, diqqatni jamlashda muammolar, o'ziga past baho berish, nofaol, past bardoshlik darajasi ko'rsatiladi

Zehni zaif bolalarning xarakteristikalari:

Yangi narsalarni o'rganishdagi qiyinchiliklar va kognitiv zaiflik aqlan zaif bolalarning odatiy xarakteristik xususiyatlaridan biridir. Bunday bola zaif xotiraga, diqqat e'tiborini jamlolmaslik muammolariga va sekin o'rganish darajasiga ega bo'ladi.

Keling, aqlan zaif bolalarning xarakteristikalarini ko'rib chiqaylik:

V.P.Xevard aqli zaif bolalar xotirasini quyidagicha tavsiflaydi⁶:

Aqliy nogironligi bor bolalar ismlarni, telefon raqamlarini, kichik detallarni va shu kabi ma'lumotlarni eslashga qiynalishadi.

Kasallikning og'irligiga qarab, bola yodlash qobiliyatini aks ettiradigan yengil va sezgir kognitiv buzuqlikdan aziyat chekadi.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, aqlan zaif bolalar ko'pincha qisqa muddatli xotiraga ega bo'ladi va ular bir necha soniya yoki bir necha daqiqadan keyin sodir bo'lgan oddiy voqeani eslay olmaydi.

V.P.Xevard o'quv faoliyatlarini quyidagicha tavsiflaydi:

Aqlan zaif bolaning yangi ko'nikmalarni va bilimlarni o'rganadigan darajasi odatdagidek sog'lom bolanikidan past bo'ladi.

Bunday bola kundalik faoliyatni amalga oshirish uchun muntazam ravishda ota-onada yordamiga muhtoj bo'lishi mumkin.

Bolaning o'zlashtirish sifati yomon bo'lganligi sababli, u aniq tushunishi uchun ota-onada ko'rsatmalarni bir necha marta takrorlaydi.

V.P.Xevard aqli zaif bolalar diqqat xususiyatlarini quyidagicha tavsiflaydi⁷

Aqli zaif bola kuchsiz e'tiborni jamlash qobiliyatiga ega bo'ladi, va u muntazam diqqatni talab qiladigan harakatlarni bajara olmaydi.

⁶ By W.L. Heward — Pearson Allyn Bacon Prentice Hall
Updated on Apr 30, 2014

⁷ By W.L. Heward — Pearson Allyn Bacon Prentice Hall
Updated on Apr 30, 2014

Zaif e'tibor tufayli hayotning keyingi bosqichida oliy ma'lumotga erisha olmaydi.

Qiziqishning sustligi: Aqlan zaif bolalarning ba'zilari muammoni hal qilish vazifalariga qiziqish yo'qligini ko'rsatadilar. Qayta qayta takrorlangan muvafiqiyatsizliklar tufayli ular umidini yo'qotib, ijtimoiy faoliyatlardan o'zlarini cheklashadi.

V.P.Xevard bolalardagi aqliy yetishmovchilikning diagnostikasini aniqlash uchun ota-onalariga quyidagi tavsiyalar beriladi:

Agar chaqalog'ingiz jismoniy bezovtalikdan aziyat chekayotgan bo'lsa, bu metabolik yoki genetik buzulishni ifodalishi mumkin, bu vaziyatda, shifokor bir nechta sinovlarni tavsiya qilishi mumkin. Siydk testlarini, qon tekshiruvini, ko'rish meshlarini (miyada tizimli muammolarni aniqlash uchun) yoki elektroensefalografiya (EEG) ni qo'llash alomatlarni aniqlash uchun yordam beradi.

Bolangizning sekin rivojlanish darajasi yoki zaif o'quv qobiliyatiga ega bo'lsa, shifokor eshitish masalalari yoki nevrologik kasalliklar kabi muammolarni aniqlash uchun bir nechta tibbiy testlarni o'tkazishni tavsiya etadi.

V.P.Xevard ta'kidlashicha aqli zaif bolalar kamchliklarini bartarf etish uchun Hukumat aqlan zaif bolalar uchun maxsus maktablar va shaxsiy ta'limni tartibga solgan. Uch yoshga to'lgan bolalar bunday maktablarda qatnashishi va erta aralashuv dasturlarini olishlari mumkin. Bu treninglar, avvalo, aqlan zaif bolaga oziq-ovqat iste'mol qilish, alifbo va raqamlarni tanib olish va boshqalar bilan muloqot qilish kabi kunlik faoliyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy va darsdan tashqari tadbirlar bolaning o'zini o'zi qadrlashiga yordam beradi.

Treninglar darajasi kasallikning darajasiga bog'liq. Yengil aqlan zaif bola mustaqil ravishda yashash yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun kamroq yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Og'ir va o'ta og'ir aqlan zaif bolalar esa doimiy kuzatuvda va qat'iy nazorati ostida yashashi kerak.

Oila terapiyasi aqliy zaif bolaning ota-onasiga vaziyatni yengishga yordam beradi. Ular o'z farzandlarini osonroq his qilishlari mumkin. U ota-onalarni aqlan zaif farzandlari uchun har tomonlama qulay sharoit yaratib berishlariga ko'maklashadi.

Bolalardagi aqlan zaiflikni oldini olish:

Farzandingizni aqliy zaiflashuvdan himoyalashi mumkin bo'lgan foydali maslahatlar:

Voyaga etmagan farzandingiz qizamiq va suvchechak kabi zararli yuqumli kasalliklarga chalinmasligi uchun zaruriy immunizatsiya olishi juda muhimdir. Ushbu yuqumli kasalliklarning ba'zilari bolangizning miya faoliyatini rivojlanishiga to'sqinlik qilishi va aqliy zaiflashuvga olib kelishi mumkin.

Sizning o'sib borayotgan farzandingiz pediatr mutaxassis tomonidan olib boriladigan rivojlanish tekshiruvidan muntazam o'tishi kerak. Bunday sinov natijasida rivojlanayotgan bolalar davolash jarayonida foydali moddalarni olishlari mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri tug'ishdan oldin parvarish qilish kichik bolalarda aqlan zaiflikni yengishga yordam beradi. Homiladorlik vaqtida onalar giyohvand moddalarni va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish xatarlari haqida ta'lif olishlari kerak. Ular o'z tug'ilmanan chaqaloqlarini sog'ligi uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilishlari shart. Homilador onaning homilasida homilaning sog'lom rivojlanishini aniqlash uchun homilador ayol muntazam tibbiy ko'rirkdan va Ultrasonografiya testidan o'tkazilishi kerak.

V.P.Xevard Aqlan zaif bolalarning ota-onalari uchraydigan umumiyl muammolarni ko'rsatadi⁸:

Aqli zaif bolani katta qilish ulkan hissiy moslashuvchanlik va kuch talab qiladi. Ota-onalar alohida farzandiga g'amxo'rlik qilishiga qaramay, uning asosiy ehtiyojlariga, ya'ni tibbiy yordam, kunlik yordam va ta'lif mas'uliyati kabilarga ehtiyyotkorlik bilan e'tibor qaratishi kerak.

Intellektual darajasi zaif bolalarning ota-onalari depressiya, umidsizlik va qayg'u kabi ruhiy jarohatlarga duch keladilar. Bolani kotta qilish uchun muntazam ravishda kurashish ularni spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga yoki chekishga undaydi.

⁸ By W.L. Heward — Pearson Allyn Bacon Prentice Hall
Updated on Apr 30, 2014

Ota-onalar tez-tez jismonan charchab qolishadi, chunki ular bolaning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun haddan ortiq ishlashlari kerak. Bolaning kundalik faoliyati mustaqil ravishda amalga oshirilmagani sababli, ota-onalar doimo ularning hayotlarida ishtirok etishlari kerak.

Aqlan zaif bolaning ota-onasi bolani o'qitish bilan bog'liq murakkab muammolarga duch kelishlari mumkin.

Aqlan zaif bolani o'stirish sog'lom bolani tarbiyalashda ancha qimmat bo'lishi mumkin. Ota-onalar ta'lim, tarbiya, maslahat va tibbiy mashinaga qo'shimcha pul sarflashlari kerak.

So'nggi yillarda bolalar rivojlanishining murakkab nuqsonlari muammosi keskinlashmoqda. Yordamchi maktab o'quvchilari tarkibi og'irlashmoqda. Kar va zaif eshituvchi bolalar orasida aqli zaiflikning tarqalishi taxminan 10%, ko'r va qisman ko'rvuchilar o'rtasida 20% tashkil etadi.

Bir qator xollarda aqli zaiflik tayanch-harakat tizimi buzilishlari bilan, autizm bilan birlashadi. Tadqiqotlar ko'rsatishiga, murakkab nuqsonlar irsiy kelib chiqishga ega.

Bolada murakkab nuqsonning borligi uning rivojlanishi yo'nalishini tormozlaydi, nuqsonlarni korreksiyalash imkoniyatini kamaytiradi, o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni sezilarli qiyinlashtiradi. Bunday bolalar bilan muvaffaqiyatli ish olib borish e'tibor va keng bilim doirasiga ega bo'lishni talab qiladi.

Murakkab nuqsonli bolalar alohida muammoni yuzaga keltiradilar. Ular maxsus o'rganilishi kerak. Lekin bu turdag'i tadqiqotlar xali juda kam.

Aqli zaif o'quvchilar alohida toifa bolalarni tashkil etadi. Ular boshqa turdag'i maxsus mакtab, o'quvchilaridan farq qiladilar. Biroq har bir yordamchi mакtab o'quvchilari tarkibi turlicha. Shuning uchun Rossiyada yetakchi bolalar psixologlari tomonidan aqli zaif bolalar tasnifi ishlab chiqilmoqda. Odatda ular klinik patogenetik prinsipga asoslanadilar. (D.N.Isaev, 1982, M.S.Pevzner, 1959, G.E.Suxareva 1965 va boshqalar).

Yordamchi maxsus mактабларда ishlovchi defektologlar M.S.Pevzner taklif etган tasnifdan foydalanадilar. Bu tasnif oligofren bolalar xulqi va psixik faoliyatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunish imkonini beradi va korreksion-tarbiyaviy ishlar yo'llarini izlashni yengillashtiradi.

M.S.Pevzner oligofreniyaning 5 ta asosiy turini ajratadi:

1. Oligofreniyaning murakkab bo'lмаган тuri.
2. Neyrodinamikasi buzilgan oligofrenlar.
3. Ma'lum analizatorlari buzilgan oligofrenlar.
4. Shaxsi qo'pol buzilgan olifgorenlar.
5. Telbanoma xulqli oligofrenlar.

Bu beshta turdan birinchi ikkitasi juda keng tarqalgan.

1. Oligofreniyaning murakkab bo'lмаган тuri nerv jarayonlarining vazminligi bilan tavsiflanadi. Bu shaklda hissiy irodaviy sfera nisbatan saqlangan. Bilim faoliyatidagi buzilishlar ayrim analizatorning qo'pol buzilishi bilan kechmaydi. Bola berilgan topshiriq unga oson bo'lsagina maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatadi. Odatdagи vaziyatda uning xulqi dekvat, u mo'min, atrofdagilarga xayrirox. Ko'pincha ota-onalar uning harakat, nutq, xotira, fikrlash jihatidan ortda qolishini sezmaydilar va uni normal deb biladilar. Bunday bolalar odatda umumta'lim maktablariga tayyorlanmagan bo'ladi. Ular muntazam o'zlashtirmovchi o'quvchi bo'lib qoladilar. Bunday bolani yordamchi maxsus mактабга yoki maxsus sinfga o'tkazish o'zining o'qishga layoqatsizligini susaytirmaslik imkoniyatini beradi. U dasturni yaxshi o'zlashtirib, ustaxonada mammuniyat bilan ishlaydi. Uning rivojlanish va moslanish istiqboli ko'ngildagidek bo'ladi.

2. Qo'zg'alish va tormozlanish, hissiy irodaviy sohaning beqarorligi boladagi og'ishlar uning xulqi va faoliyati o'zgarishida aniq namoyon bo'ladi. Qo'zg'aluvchi oligofrenlar ko'pincha notinch, ta'sirchan, to'xtovsiz, xarakatlari bexalovat, xaddan tashqari chalg'iydi, quloqsiz, urushqoq. Ular kattalarning ogohlantirishiga befarq qaraydi.

Sinflarda qo‘zg‘aluvchan bolalar notekis, shoshib ishlaydilar. Ko‘rinib turgan mammuniyat bilan ustaxonaga boradilar, lekin o‘ylamay pala-partish ishlaydilar. Ularda tez-tez intizom buzilishlari bo‘lib, ko‘ngilsiz oqibatlarga olib keladi. Bu o‘quvchilarga tinch sharoit va faoliyat turlarining o‘zgarib turishi kerak. Ularni individual xususiyatlarini hisobga olingan ta’lim va tarbiya jarayonida qo‘zg‘aluvchan oligofrenlar og‘ir-vazmin va mehnatga layoqatli bo‘lib qoladilar. Ular ijtimoiy moslashadilar, lekin jamoa a’zolari bilan ahamiyatsiz sabablarga ko‘ra janjallashadilar, intizomsizlik ko‘rsatishlari mumkin.

Tormozlangan oligofrenlar bo‘shliq, immillaganlik, inertligi bilan ajralib turadilar, bu ularning motorikasi, xulqi, past mehnat layoqatida ko‘rinadi. Ular sekin harakat qiladilar. Ularga o‘z faoliyatini tashkil qilish uchun ko‘p vaqt kerak. Ular sinfdagilar ortidan ulgurmaydilar. Ularni shoshirish befoyda, negaki ularning o‘z harakat templari bor. Ustaxonada ular xafsala bilan, ma’lum bir tirishqoqlik bilan, lekin sekin ishlaydilar. Bu toifaga kiruvchi o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlar asosan yuqorida qayd etilgan nuqsonlarni korreksiyalashga yo‘naltiriladi.

3. Analizator funksiyasi buzilgan yoki maxsus nutq buzilishi oligofrenlarda po‘stloqning tarqoq shikastlanishi yanada chuqur lokal shikastlanishlar bilan birlashib ketadi. Bunday bolalar aqli zaiflik asosiy nuqsonidan tashqari eshitish, ko‘rish, nutq, tayanch-harakat apparati nuqsonlariga ega. Ular odatda eshitish, ko‘rishi zaif bolalar, bolalar serebral paralichi bo‘lgan bolalar va nutqi buzilgan bolalar mакtablarining maxsus tashkil qilingan sinflarida o‘qiydilar. Ularning hayotiy istiqbollari chegaralangan, negaki 2 yoki 3 xil nuqsonning borligi ularni oldinga siljish va ijtimoiy-mehnat adaptatsiyasini qiyinlashtiradi.

4. Bosh miya po‘stlog‘ining peshona bo‘limlari yetishmasligi oligofreniyada bolalar bilish faoliyati buzilishlari, shaxsning qo‘pol buzilishlari motorikaning keskin buzilishlari bilan kechadi. Bu bolalar bo‘sh, g‘ayratsiz, yordamga muxtoj. Ularning nutqi ma’nosiz, taqlidiy xarakterda. Bolalar faoliyat va faollikka yo‘naltirilgan psixik zo‘riqishga qodir emas. Ular vaziyatni yaxshi

tushunmaydilar. Bu o‘quvchilar mehnatni sevmaydilar, oddiy maishiy burchlarni bajarishdan qochadilar. Ularning rivojlanishi sekin amalga oshadi. Lekin ular shubhasiz oldinga siljishlari va maktab ta’limining oddiy turlarini bajarishga qodir bo‘lib qoladilar.

5. Telbanomo xulqli oligofreniyada bolada hissiy-irodaviy doira keskin buziladi, shaxsga tegishli komponentlarning o‘ziga xos rivojlanmaganligi namoyon bo‘ladi, o‘zi va atrofdagilarga nisbatan keskinlik tushishi, qiziqishlarning to‘xtamasligi, jazavalarning sababsizligi ularga xos. Ular orasida «qochoq»lar bor, ya’ni hech qanday sababsiz maktabdan, maktab internatidan chiqib ketib, transportga o‘tirib, qayoqqa va nimaga ekanligini o‘zлari ham bilmay ketaverishi mumkin. Bunday bolalar bilan o‘tkaziladigan korreksion ish, birinchi navbatda hissiyot va idoralarni shakllantirish, atrofdagilarga ijobiy xulqli rivojlantirishga qaratiladi.

Aqli zaif bolalar psixik faoliyatida ham umumiyligi xolatida ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjuddir.

Umumiyligi xususiyatlardan deganda barcha aqli zaif bolalarga tegishli, ularni bir toifaga birlashtiruvchi va maxsus yordamchi maktablarga yo‘llovchi belgilarga aytiladi. Aqli zaif bolalarga og‘zaki mantiqiy fikrlash buzilishi, xotiraning, idrokning, ixtiyoriy diqqatning buzilishlari, normal intellektual me’yorlarga mos kelmaslik, o’tirish, yurish va emaklashning kech yoshda bo’lishi, so’zlashuvda muammolar, narsalarni eslab qola olmaslik, sodda narsalarni tushuna olmaslik, mantiqan fikrlash qobiliyati yo’qligi, o’rganishda qiyinchiliklar, bolacha o‘zini tutish, mustaqil qaror qabul qila olmaslik, kiyinish, hojat qabul qilish va mustaqil ovqatlanish kabi kundalik ishlarni sekin o’zlashtirish xosdir. Mana shu umumiyligi psixologik xususiyatlarini xisobga olib o‘quv dasturlari va darsliklar tuziladi, maxsus usullar ishlab chiqiladi va sinflarda frontal ishlar tashkil qilinadi.

Psixikaning ayrim belgilari M.S.Pevzner ajratgan oligofrenianing 5 ta asosiy turining birortasiga tegishligi nuqsonning tuzilishi, o‘ziga xosligi bilan muhim darajada bog‘liq. Shunday qilib, faoliyati va hulki keskin buzilgan,

qo‘pol motorika buzilishlari, ko‘rinib turgan fonetika-fonematik eshitish nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun korreksion xarakterga ega, ularga xos kamchiliklarni yengishga yo‘naltirilgan maxsus ish tizimi ko‘zda tutilgan.

Nihoyat, o‘ziga xos xususiyatlari bilan sinfdoshlaridan keskin farq qiluvchi ayrim o‘quvchilar ham uchraydi. Ularda qaramlik, tajovuz, psixotik buzilishlar, o’jarlik, o’z-o’zini zararlashga qarshi kurashish, ijtimoiy faoliyatdan chekinish, impuls nazoratini yo’qligi, diqqatni jamlashda muammolar, o’ziga past baho berish, passivlik, past bardoshlik darajasi kuzatiladi. Shuningdek bola joyda juda bo‘sh mo‘ljalga oladi, bu uni yozish, o‘qish matematika va boshqa predmetlarga o‘qitishda qiyinchiliklar tug‘diradi. O‘quvchi individual yondashishga muxtoj, bu siz u o‘quv dasturini o‘zlashtira olmaydi.

Qisqacha oligofrenga o‘xhash bolalar haqida to‘xtalib o‘tamiz. Ko‘pchilik hollarda ular mакtabga bolalar uylaridan keladilar. Go‘dak yoshida bu bolalar chaqaloqlar uyida bo‘lgan. Ular hech qachon ona g‘amho‘rligi va erkalashni, ota-onalar bilan hissiy muloqotni ko‘rmaganlar, ya’ni erta bolalar deprivatsiyasi sharoitida yashaganlar. O‘qish va tarbiyani bolalar uyida davom ettirib, bunday bolalar o‘z tengdoshlaridan ortda qoladilar, tengdoshlari normal bolalikni shaxsiy rivojlanish va bilish faoliyati shakllanishini ko‘zdan kechirganlar. Maktab yoshiga kelib ular xulqi, qiziqishlari, nutqining va ongingin holati bo‘yicha aqli zaif bolalar bilan bir xil darajada bo‘ladilar. Ular rivojlanmaganligi turg‘un xarakterga ega bo‘ladi.

Ular ko‘pincha yordamchi maxsus korreksion mакtablarga yo‘llansada, yuqori sinflarga chiqib ularning ba’zilari ijtimoiy imkoniyatlar va boshqa kriteriylar bo‘yicha o‘z sinfdoshlaridan o‘zib ketadilar. Aynan ana shular o‘zlariga quyilgan tashxisni oldirib tashlamoqchi bo‘ladilar va bunga erishadilar ham. Bir qator hollarda bunday bitiruvchilar o‘z ma’lumotlarini davom ettiradilar.

Savol va topshiriqlar

1. “Aqli zaif” tushunchasini izohlab bering.

2. Aqli zaiflikni keltirib chiqaruvchi sabablar
3. Aqli zaiflik darajalari
4. M.S.Pevzner tasnifi
5. Oligofrenga o‘xshash bolalar haqida ma’lumot bering.
6. Bolalarda uchraydigan aqli zaiflikning belgilarini ko‘rsating.


II.BOB. Aqli zaif o‘quvchilarning bilish faoliyati

2.1. Aqli zaif o‘quvchilarning sezgi va idrok xususiyatlari

Har bir odam tevarak-atrofdagi narsalarni sezish va idrok qilish qobiliyatiga ega. Odam osmonning moviyligini, daraxt barglarining yashilligini ko’radi, ko’cha tomondan quloqqa chalinuvchi har hil tovushlarni eshitadi, ba’zi narsalarning sovuqligini boshqalarning issiqligini sezadi. Odam o’ylaydi va gaplashadi, ya’ni u tafakkur va nutqqa egadir. Biz ilgari bo’lib o’tgan narsa va hodisalarni xotira va hayol tufayli esda saqlaymiz va kelajak haqida orzu qilamiz, bizning sezgilarimiz, diqqatimiz, idrokimiz, xotiramiz, tafakkurimiz, nutqimiz, xayolimiz psixik jarayonlar deb ataladi. Ko’pgina voqealar odamni to’lqinlantiradi, quvontiradi yoki uning g’azabini qo’zg’atadi, ya’ni odamda ma’lum his-tuyg’ular uyg’otadi. Odam nimagadir intiladi, o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishish yo’lida sabot-matonat ko’rsatadi, irodasini ishga soladi. Ba’zi hollarda psixik jarayonlar ancha murakkab va barqaror ko’rinishga ega bo’ladi, ularning aktivligi kuchaygan yoki susaygan holatda nomoyon bo’ladi, ma’lum kechinmalarni maydonga keltiradi. Bular psixik holatlar deb ataladi. darsda o‘quvchining diqqat-e’tiborlilik yoki parishonlik holati, odamlarda sodir bo’lib turuvchi quvnoqlik yoki achchiqlanish va shu kabilar psixik holatlarning misollaridir. Har bro dam boshqalardan o’zining shaxsiy, barqaror xususiyatlari, ma’lum darajadagi barqaror psixik sifatlari bilan ajralib turadi. Ba’zi odamlarda qiziqishlar kuchli bo’lsa boshqa biro dam ulkan qobiliyatlaei bilan undan farq qiladi. Ba’zi bir odam qiziqqonroq bo’ladi bunday odam jo’shqin temperamentli odam deyiladi. Boshqa odam haqida og’ir vazmin yaxshi harakterli odam deb o’ylaymiza. Qobiliyat, temperament, xarakter odamning psixik xususiyatlaridir. Psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlar bir-biri bilan o’zaro bog’liq

hodisalar bo'lib ularning barchasi birqalikda psixika hisoblanadi. psixik jarayon, holat va xususiyatlar o'zgarmas hodisalar bo'lib, ularning barchasi birqalikda psixika hisoblanadi.

Sezish jarayoni



Sezgi - tashqi olamdagi narsa va hodisalarning bevosita a'zolariga ta'siri tufayli yuzaga keladigan aks ettirish jarayonidir. Sezish jarayoni quyidagicha ro'y beradi: 1. Narsa yoki hodisalar sezgi a'zolariga ta'sir etib, tegishli sezuvchi nerv uchlarini qo'zg'aydi; 2. Shu yerda kelib chiqqan qo'zg'alish afferentnervlar orqali bosh miya po'stlog'ining tegishli markaziy xujayralariga ma'lumotlarni yetkazadi; 3. Tegishli nerv markazlarida ma'lumotlar qayta ishlanib, qaror qabul qilinadi; 4. Qabul qilingan qaror (sezgi)yana qaytib efferent nervlar orqali sezuvchi nerv uchlariga yetkaziladi.

David G. Myers Psixologiya kitobida "Teri orqali sezishda biz asosan bosim, issiq, sovuq va og'riqni sezamiz" deb fikr bildiradi. David G. Myers taktik stimulyatsiya sensor idrokni o'rganish asosida "iliq+sovuvq=issiq (qaynoq)" sezishimizni eksperimental isbotlab beradi.⁹

Aqli zaif bolaning ruxiyati o'ziga xos sistemani aks ettirib, turli nuqsonlar va rivojlanishda orqada qolishlar to'laligicha faoliyatning ruxiy jarayonlariga ta'sir etadi. Bu xolat idrokka ham ta'lluqlidir.

⁹ David G. Myers.Psychology. 2010 by Worth Publishers, 286 pege

David G. Myers fikricha, idrok jarayonida sensor adaptatsiya alohida o’rin egallaydi. Muallif sensor adaptatsiyani yuqoridagi rasmda tasvirlangan eksperiment natijalariga tayanib asoslab beradi. A variantda tekshiriluvchining ko’zga taqiladigan kontakt linzalariga kamera o’rnatilish jarayoni rasvirlangan. Kamera linzaga ulangani bois ko’z harakatiga ta’sir etmaydi va uni chegaralamaydi. Tekshiriluvchi A variantda tasvirlangandek, avval rasmni yaxlit to’la ko’radi, birozdan so’ng rasm fragmentlarini qotishi va lippilashini (fragmentlar huddi o’chib yonvotgan kabi), yaxlit bo’lmagan tasvirni ko’radi.¹⁰

Aqli zaif o‘quvchilarining ko‘ruv idroki. Hozirgi kunda eng ko‘p o‘rganilgani aqli zaif o‘quvchilarining ko‘ruv idroki hisoblanadi. Ko‘rish orqali idrok etish – juda murakkab ish bo‘lib, bu jarayonda ko‘pgina qo‘zg‘atuvchilar ko‘zga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Idrok etishda analiz qanchalik aniq bo‘lsa, sezish shunchalik sifatli, kuchli va to‘la, aniq bo‘lib ular qo‘zgatuvchilarda differensial aks ettiriladi.

Sharxlash psixologiyasi – katta, murakkab, oligofren bolalarga nisbatan yaxshi o‘rganilmagan bir muammodir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, kichik sinflarning aqli zaif o‘quvchilarining atrofni sharxlash imkoniyatlari juda past , bu ularning hulqiga ham ta’sir qiladi. Ko‘ruv idroki bolaning ruhiy rivojlanishida, unda atrof–olamdagи predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘ruv idroki – bu murakkab jarayon, mazkur jarayonda ko‘zga ta’sir etuvchi katta miqdordagi qo‘zg‘atuvchilar tahlili amalga oshadi. Ko‘ruv idroki qanchalik mukammal bo‘lsa, his etish sifat va kuchiga ko‘ra shunchalik turli-tuman bo‘ladi, ya’ni, qo‘zg‘atuvchini shu qadar to‘liq, aniq, differensial aks ettiradi. Atrof-olam haqidagi axborotlarning asosiy miqdorini inson ko‘rish qobiliyati tufayli oladi.

Aqli zaif bolalar o’zlarining kognitiv jarayonlarini anglashda bir qancha qiyinchiliklarga uchraydi. Hatto Zigler, aqliy zaiflik nazariyalarini hisobga olgan holda bir qancha xatoliklarga uchraydi¹¹. Uning tajribaviy ishlarida qatnashganlarning barchasi MA va IQ sinovlarining asosini tanlaydi. Lekin hech kim o’ylashning yoki bilish qobilyatining ko’proq aniqlashtirishda tavakkal qlishga

¹⁰ David G. Myers.Psychology. 2010 by Worth Publishers, 286 pege

¹¹ Favqulodda bolalarga Maxsus Ta’limga Kirish, W.L.Heward, 2006 yil nashri, p.145-148

tayyorligi bilinib qolgan edi. Zigler test natijalaridan foydalangan holda bolalarning tushunishdagi rivojlanish qobiliyatlarini tadbiq qiladi. Zigler va Zaman o'rtasidagi suhbat tajribaviy ravishda berilgan topshiriqlarning asoslanganligini kamaytiradi uni bir qancha jihatlarini imkoniyatini susaytiradi. Eng muhim narsa bu sharxlangan masalalarning ta'sirlari qay darajada ekanligidadir.

Qiziqrli va hissiyotlarni topib olish, bilish bir qator algoritmlardan yoki muammolarni hal qilish yo'llaridan iboratligini anglatadi. Ushbu algoritmlarning aksariyati qadimiy madaniy merosning bir qismidir, masalan, o'z-o'zini ko'rsatma shaklida tilni qo'llash, sotib olishning o'ziga xosligi yoki taqqoslanuvchanligini ta'minlovchi tenglar yoki yashirin rekonstruktsiya vositasi sifatida. Bunday algoritmlar, albatta, lingvistik emas. Luriya kitobi, "Mnemonistik aql" (1968), tasvirni xotiraga yordam sifatida tasvirlashni keskin tasvirlaydi. Yangi algoritmlarni boshqa odamlarga ixtiro qilish va o'rgatish mumkin, shu bilan intellektual ish faoliyatini yaxshilaydi. Shu ma'noda bugungi kunda maktab o'quvchisi hisoblashda, o'lchashda va arifmetik operatsiyalarda foydalanish uchun mos keladigan o'nlik raqamli tizim shaklida tarixiy odamga chek qo'yadi. Algoritmlarni o'rganish, diqqat, xotira, til va shunga o'xshash narsalarga yordam beradigan mexanik yoki elektron qurilmalardan foydalanish ham nazarda tutilishi mumkin; ular qalam va qog'oz kabi oddiy yoki raqamli kompyuter kabi murakkab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif o'quvchilarning ko'rvu idroki qator o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanib, bular atrof – olam va uni o'rghanishga ta'sir ko'rsatadi. Bu xususiyatlarga ob'ektni ko'rishni idrok etishining sekinlashishi kiradi. Tajribalarning ko'rsatishicha, bolalarga yaxshi tanish bo'lgan rangli rasmlarni davomiyligi 22 millisekund vaqtini tashkil etgan paytda ko'rsatganda, aqli zaif bolalar bularning birortasini bilmagan va to'g'ri ayta olmagan. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabining I sinf o'quvchisi shunday sharoitda ko'rsatilgan rasmlarning 57% ni to'g'ri aytadi va taniy oladi.

Kuzatish muddatni 42 millisekundga cho'zganda aqli zaif bolalardan 55% javoblarni eshitish mumkin. Bunday sharoitda ularning soglom tengdoshlarining 95% to'g'ri javob qaytaradi . Ko'rib turganimizdek aqli zaif bolalarga sog'lom

bolalarga nisbatan tanish narsalarni tanib olishi uchun uzoqroq , ya’ni ko‘proq vaqt kerak. Bu oligofrenlarga xos bo‘lgan analiz va sintez jarayoning sekinlashishi bilan xarakterlanadi .

Maxsus tekshiruvlar shuni ko‘rsatadiki, aqli zaif o‘quvchilarga berilgan masala qiyinlashtirganda, ularda sensor axborotni qayta ishlash ancha sekinlashadi.

Olingan tahlil natijalari aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlarda qo‘l kelishi mumkin .

Aqli zaif o‘quvchilarning maktabda o‘qish yillarida ularning ko‘rvu idroki sezilarli darajada tezlashadi. Shunday qilib, III sinf o‘quvchilariga 22 millisekund vaqtida ko‘rsatilgan rasmlarda 27% to‘g‘ri topiladi. (Ommaviy maktabning III sinf o‘quvchilari 100% natija beradi.) Ammo bu vaqtini 42 millisekundga cho‘zganda 100% natija berishadi. Ushbu ma’lumotlar oligofrenlarning ko‘rib idrok etishi tezlashgani haqida xabar beradi, ammo bu III sinf o‘quvchilari uchun yetarlicha sekinlashgan . Aniqlanishicha, aqli zaif bolalarning ko‘rilishi sodda bo‘lgan narsalarni idrok etishi tezlashib, narsalarning ko‘rinishi murakkblastha, ularning idrok etishlari sekinlashadi. Shunga ko‘ra, murakab shakllar ko‘rish analizatorining analitik – sintetik faoliyatida xali xam sodda ko‘rinishlarda aks etadi.

Sog‘lom bolalarga nisbatan aqli zaif bolalar atrof vaziyatga ko‘z yogurtirib chiqqanda kam narsalarni idrok etadi. Bu ularga atrof - muhit bilan tez tanishishga, ma’lum bir predmetni, hodisani ajratib olishni qiyinlashtiradi.

Aqli zaif o‘quvchilarga ko‘rvu idrokining qisqaligi, kamligi ham xarakterlidir. O‘quvchilar, ayniqsa, kichik sinf o‘quvchilari bir vaqtning o‘zida 8 – 12 katta bo‘limgan buyumlarni, meyor normada, eng kamida 4 – 6 ko‘ra oladi.

Aqli zaif o‘quvchilarning ko‘rvu idroki qisqaligi atrof borliqni o‘rganish imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu bilan ba’zi o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatishdagi qiyinchiliklarni tushuntirish mumkin.

Aqli zaif bolalarning ko‘rvu idrokining yana bir xususiyati yetarlicha differensiallanmaganligi : ular har doim ham ranglarni ajrata olmaydi, atrofdagi ob’ektlarni, ularga xarakterli bo‘lgan qismlarsiz ajratadi. Masalan birinchi sinf o‘quvchilari oq, qora, to‘q qizil, to‘q ko‘k ranglarini ajratishadi. Ammo och rangli,

ularga o‘xshashlarini ajrata olmaydilar. Chunonchi, ko‘p xollarda ko‘k va siyoxrang, olovrang va qizil ranglarni ajrata olmaydilar. III sinfga kelib oligofren bolalarning rang ajratish xususiyatlarini aniqlanadi. Uning aniq ko‘rinishlari ba’zi o‘quvchilarda saqlanib qoladi .

Aqli zaif o‘quvchilarda rang ajrata olmaslikning asosiy sabablari, anglash faoliyatida ranglarni sezish xususiyatining pasayganligi nuqsoni asosiy rolni o‘ynaydi.

O‘tkazilgan qator tajriba natijalariga ko‘ra aqli zaif o‘rta maktab o‘quvchilari orasida rang ajrata olmaslikning sababi uni idrok etishda emas, balki hamma ranglarning nomlarini bilmasligida. O‘quvchilar u yoki bu rangni ancha to‘q bo‘lgan xollarda aytishadi. O‘quvchilar och tusli rangning nomini aytmoqchi bo‘lganlarida, ular o‘zgacha nom bilan ataydilar. Masalan, och ko‘kni ular «ko‘kish – yashil» yoki, «yashil sariq» deyishadi. Boshqa xollarda ular «bunaqamas», «ular boshqacha» iboralarini qo‘llashadi. Kichik sinflardagi o‘quvchilar ranglarni adashtirishadi, masalan, siyoxrangni olovrang, olovrangni binafsharang va boshqalar. O‘quvchilarda tegishli ob’ektlarga xos ranglarni ajrata olmasligi, borliqni anglash ko‘nikmasini kamaytiradi.

Aqli zaif o‘quvchilarning ko‘rish o‘tkirligi pasaygan bo‘ladi. Ular sog‘lom tengdoshlariga nisbatan, och fondagi narsalarni qiyinchilik bilan ajratishadi. Ko‘rish o‘tkirligining sustligi ularga bir – biriga yaqin turgan narsalarning ajratishda o‘quvchilarda ularni ko‘pincha 1 ta katta ob’ekt sifatida qabul qiladi. Ko‘rish o‘tkirligining pastligi bolalarda atrof - olam haqida tasavvurlarning yaxlitligiga, birligiga, aniq formalarga ega emasligiga, ba’zi narsalar ularning ko‘z ostidan tushib qolishiga olib keladi.

Ko‘rishning bu xususiyati kichik maktab o‘quvchilarida ko‘rib turgan narsalarning unga tegishli bo‘lgan qismlarining ko‘rinmasligiga olib keladi. Bu asosan, qo‘l mehnati darslarini mustaqil bajarganda bilinadi, o‘quvchilar ishlarini bo‘sh bajaradilar. Yasagan ishlari umuman olganda namunaga o‘xshamaydi. Shunga qaramay ular o‘z ishlaridan qanoat hosil qilib o‘zlarini maqtaydilar va yaxshi va a’lo baholar olishni xohlashadi. Bunday baholash oligofren bolalarga tegishli bo‘lib, o‘z

mehnatlari va namuna o‘rtasidagi farqni anglay olmaydilar. Aqli zaif kichik maktab o‘quvchilarining narsa va hodisalarni o‘zlaricha tanib idrok etishni ularning ilgari egallagan ko‘nikmalarida aks etgan. Oligofren o‘quvchilar uchun, ko‘rganlarini umumlashtirish xosdir. Shunga qaramay, birinchi sinf o‘quvchilari olmaxon bilan mushuk, soat bilan kompass o‘rtasidagi farqni ajrata olmaydi. Ular nuqtai nazarida sog‘lom tengdoshlariga nisbatan, masalan, geometrik figuralardan kvadrat va to‘g‘ri burchaklarni, ular orasidagi farqni bilmagan xolda bir guruhga mansubligini bildiradilar.

Aqli zaif bolalarda ko‘rvu idrokini differensiallanmaganligi tanish ob’ektlarini sharhlash paytida aniq kuzatiladi. Masalan, 1-sinf o‘quvchilariga qalamni ko‘rsatib, ulardan nimani ko‘rayotganlarini so‘rashadi. Bolalar predmetni nomini aytishadi va o‘z javoblarini noto‘g‘ri xisoblashadi. O‘quvchilarni davomini kuzatishga yo‘naltirilganda, ular uning rangini va qalamning ishlatilishi haqida gapirishadi, ammo uning qalinligi, uzunligi, qirralarining mavjudligi, bir tomonning ochilganligi, qirralarining bir tomonida yozuvning borligiga ahamiyat berishmaydi. Normal rivojlanayotgan bolalar bularni o‘zları bilib aytishadi. Bu ma’lumotlar aqli zaif bolalarning lug‘at boyligining kambag‘alligidan dalolat beradi. Biroq o‘quvchilar bu sifatlarni, noaniq yoki noto‘g‘ri shunga ishora qilib ham aytmaydilar. Bu bolalar lug‘atda tegishli so‘zlar mavjud emasligidan dalolat beradi.

Aqli zaif o‘quvchilar uchun ko‘rvu idrokini boshqa sharoitlarga moslashtirish qiyin. Agar kichik sinf o‘quvchilariga tepasi va tagiga ega predmetlarni 180 gradusda ag‘darsa bularni umuman boshqa narsalar deb idrok etishadi. Rasmida ko‘rsatilgan tarelka ustidagi piyolani ag‘darganda o‘quvchilar uni shlyapa, qo‘ziqorin deb aytishadi. Aqli zaif bolalar biron narsa – buyumning nomini aytib darrov boshqasiga o‘tib ketishadi, ularda shu buyumga qiziqish, uni yaxshilab ko‘rishga bo‘lgan intilishlari yo‘q. Aqli zaif bolalarga nisbatan sog‘lom bolalarda to‘nkarilgan ob’ektni tanish jarayoni kuzatiladi. Ba’zi bolalar, avval ko‘z yogurtirib chiqib noto‘g‘ri javob aytishadi. So‘ng uni yaxshilab ko‘rib chiqib alohida qismlarini topib, uni qo‘ziqorin emas, balki ag‘darilgan piyola deb aytishadi.

Fazoda mo'ljal olish – inson aktivligining muhim turlaridan biridir. U faoliyatning ko'pgina yo'nalishlari uchun kerak. O'tgan asrda aqli zaif bolalar bilan shug'ullangan shifokorlar va pedagoglar, ularning fazoda sust moslashishini kuzatganlar. Fazoviy buzilishlar aqli zaif bolalarda uchraydigan, eng ko'p tarqalgan va ko'p uchraydigan nuqsonlardan hisoblanadi.

Fazoni idrok etish har xil nuqsonli a'zolarning turli xil intermodal aloqalariga asoslanadi. Fazoda komponentning to'liqligi ko'zga ta'sir etayotgan turli funksiyalarga bog'liq: uning o'tkirligiga, perceptiv maydonga, ko'z o'lchagichga, negaki aqli zaif bolalar bu darajaga yetmaydi (T.N.Belovina).

Psixologlar sog'lom bolalarda fazoni o'rganishning 3 asosiy bosqichini ajratishadi. Shundan birinchisi bolada harakatlanishning paydo bo'lishi, fazoda faol o'rnini egallah shu bilan boshqalarni ko'rishga qulay bo'lgan holatni egallah. Ikkinchisi, predmet - xarakatlarini egallah bilan bog'liq bo'lib, ular ob'ekt xususiyatlarini va fazodagi o'zaro aloqasini kengaytirib o'rganishga turtki bo'ladi. Uchinchi boskich nutq rivojlanishidan boshlanadi, so'zda fazoviy kategoriyalarni aks ettirish va umumlashtirishning paydo bo'lishi.

Aqli zaif bolalarda xam fazoni bilishning uch asosiy bosqichi o'zgacha tartibda ammo, juda kech muddatlarda o'tadi. Ular o'z tengdoshlariga nisbatan ancha yuqori yoshlarda harakatlanishni o'rganishadi, bu ularni atrof – fazoni idrok etishini kechiktiradi.

Aqli zaif bolalarga xos bo'lgan uyatchanglik va harakatlar koordinatsiyasining kamligi, bolaga nisbatan yaqinda turgan narsalar bilan ko'rib tanishish shakllanishiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Aqli zaif bolalarga maqsadsiz harakatlanishning predmet harakatlarida shakllanish kamchiliklari va ortda qolishlari xos. Ularda sinkeneziy, tonik harakatlanish kuzatiladi. Yuqori shakllardagi motor harakatlanishning rivojlanmasligi predmet harakatlanishni egallahni tormozlaydi, bu o'z o'rnida aqli zaif bolaning atrof – muhitda mo'ljal olishiga xalaqit beradi. Shuning uchun, ikkinchi bosqich fazoni o'rganish cho'zilib ketadi va orqaga suriladi.

Aqli zaif o'quvchilar uchun orqada qolish va nutq rivojlanishining o'zgachaligi ularning fikrlashi bilan bevosita bog'liq, ayniqsa so'z – mantiqiy fikrlashi. Aqli zaif

o‘quvchilar o‘zlarining nutqlarida kelishik qo‘sishmchalarini va bog‘lovchilarni noto‘g‘ri va tushunmay ishlatalardilar, bu tushunchalarni to‘g‘ri belgilash va umumlashtirishni bilmasliklaridan darak beradi. Boladagi nuqsonli rivojlanish so‘z – mantiqning to‘liq bazasini ta’minlamaydi.

Maktabgacha bo‘lgan davrda psixikaning xususiyatlari fazoviy idrok qilish shakllanishining barcha bosqichlarida muhim bo‘lib, u aqli zaif bolalarda kam ifodalangan. Maktab ta’limi davrida rasm, geografiya, qo‘l mehnati va kasbiy ta’lim darslarida ularning fazoda mo‘ljal olish nuqsonlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday qilib o‘quvchilar daftarning varog‘ida, sinf xonasida, jismoniy tarbiya zalida, xovlida qiynalib mo‘ljal oladilar. Ko‘pincha ta’limning boshlarida harflarni qatorlarga yozishmaydi, duch kelgan joyga yozib qo‘yishadi, daftarda materialni kerakli tartibda joylashtira olmaydi. Ob’ektlarni tasvirlashganda, ularning kattaligini sezilarli kattalashtirib yuborishadi, ularni chapga yoki o‘ngga surib yuborishadi (T.N.Golovina, I.A.Groshenkov). O‘qituvchining rasmni qaerga joylashtirish haqida (pastki burchak, o‘rtada, o‘ng tomonda) so‘z bilan ta’riflashi ayniqsa murakkab vazifa berilganda (tepadagi o‘ng burchak), o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘diradi. Jismoniy tarbiya darslarida ham bunday dalillarni keltirsa bo‘ladi, o‘quvchilarga tartib bilan turish va zalda berilgan yo‘nalish bo‘yicha harakatlanish murakkablik qiladi. Aqli zaif yuqori sinf o‘quvchilari mehnat darslarida andozalarni to‘g‘ri joylashtirishga qiyinalishadi. Ko‘pincha ular buni yaxshi uddalay olishmaydi.

Boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarning idrok qilishlarining boshqachaligi, ularni syujetli rasmlarni tomosha qilganlarida bilinadi. O‘quvchi syujetli rasmni tomosha qila turib, undagi buyumlarni to‘g‘ri ayta olishi va joylashishini aniqlashi, personajlarni aniqlab olishi, ularni qanday aloqalar bog‘lab turishi, sharoitni tushunishi kerak.

Syujetli rasmni tushunishi idrok qilinayotgan tasvirning analiz va sintez qilish sifatiga bog‘liq. Agar bunday fikrlash jarayonlari to‘liq bajarilmasa, qator xollarda – noto‘g‘ri ro‘yobga chiqariladi. Ta’limning boshlang‘ich bosqichida aqli zaif bolalar rasmni ko‘ra turib, ko‘zga ko‘ringan ob’ektlarni betartib sanashga tushishadi. Ular birlamchi va ikkilamchi ob’ektlarni ajratishga qiyinalishadi. (I.I.Budnitskaya, I.M.

Solovev, M.M. Stadnenko). Bunda bolalar ajratgan ob'ektlarini ma'noviy guruhlarga umumlashtirmay, ularning umumiyligi mazmunini idrok etishga urinishadi. Buni xattoki, syujetli rasm sodda va o'quvchilarga tushunarlidek bo'lgandan ham ko'rish mumkin. Masalan; «Birinchi marta birinchi sinfga» rasmini ko'ra turib, o'quvchilar tasvirdagi qiz kiyimlarining ko'pgina qismlarini sanashadi, ammo uning qo'lida portfeli borligini, kalendaridagi «1-sentyabr» yozuviga, o'quvchi qizning mакtabga ketayotganligiga ishora ham qilishmaydi. (N.M. Stadnenko).

Normal rivojlanayotgan boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar qisqa muddat davrida syujetli rasmni ko'ra turib, tanish predmetlarni nomlashadi va ajratishadi. Aqli zaif boshlangich sinf o'quvchilari esa ko'pincha rasmlarni topib olishda va ob'ektni tasvirlashda xatoga yo'l qo'yishadi. Bu ularning bilim olish saviyasining pastligidan dalolat beradi. Noto'g'ri analiz qabul qilinayotgan tasvirni tanib olishga ham ko'maklashadi. Rasmda ko'rsatilgan alohida ob'ektlarni to'g'ri tanlab olishga to'g'ri shakl ajratish katta ahamiyat ko'rsatadi. Faqat shaklgina predmetlarni analiz va taqqoslashda yetakchi belgi hisoblanadi. Aqli zaif o'quvchilar umumiylikni differensiyalashda, alohida va birlikda, tekshiruvni davom ettirishda, shakllarni ajratishda qiynalishadi. Ularga fragmentarlik, idrok etishning kambag'alligi, analiz jarayonlarining sust yo'nalganligi va taqqoslamaslik xos. (T.N.Golovina).

Aqli zaif o'quvchilar uchun fazodagi ob'ektlarning o'zaro aloqasini aniqlash ham qiyin masaladir. Ko'pgina qiyinchiliklar tasvirdagi tegishli belgilarni idrok qila olmaslik, tushunmaslikdan kelib chiqadi. Xayratlanarlisi shuki, uzoqdagi narsalar rasmda kichraytib tasvirlanadi. Ba'zi ob'ektlar oldingi qatorda turganlarining qismlari bilan to'sib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Masofa chizilayotgan rasmlarning aniq chegaraga, intensiv ranglarga ega emasligiga soyalarning ishlatalganiga, tasvirlarning kichrayganiga ham ta'sir ko'rsatadi. Qator xollarda rasmdagi predmetning kichraytirilgan tasviri aqli zaif o'quvchilarni uni uzoqlashganini tushunishga olib kelmaydi. Agar yugurib ketayotgan kuchukning panjasini qarshisida turgan egasining oldida ko'rinmay qolganida aqli zaif o'quvchilar rassom kuchukni xato tasvirlaganini unda 3 ta panja emas, 4 ekanligini aytishadi.

O‘quvchilar rasmni unda tasvirlangan predmetning farqiga, birinchi, ikkinchi, orqa plandagiga ahamiyat berishmaydi. Bu ularga bir qatordagidek tasavvur beradi. O‘quvchilar uchun syujetli rasmdagi xolatni to‘laligicha anglash, personajlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni aniqlash qiyin. Bunda alohida tasvirlangan personajlarni tanib olish katta ahamiyatga ega. Masalan; o‘quvchilarga dasturxonda o‘tirgan ona va bola rasmi ko‘rsatilgan. Bu yerda ona choy ichib o‘tiribdi , o‘g‘li esa xis – hayajon bilan unga muhim bir narsani imo – ishoralar bilan tushuntiryapti. Devorda rasm osilib turibdi. Polkada soat turibdi.

Qayd qilinishicha o‘quvchilar rasmdagi personajlarni ajratib tanimay global tushunganda (qiz va bola sifatida) unda rasmning syujeti bunday kechadi : «Qiz va bola choy ichib o‘tirishibdi» yoki «Qiz dasturxonda o‘tirib choy ichyapti, bola soatga qarayapti». Bu ifodada bolaning ko‘tarilgan qo‘li xato ifodalanib, imo – ishora sifatida emas, balki chiroqni yoqishga bo‘lgan harakatdek ko‘riladi. Agar onani bir ayol, bolani esa begona sifatida ko‘rishsa o‘quvchilarning tasviri bunday bo‘ladi : «Ayol va bola dasturxonda o‘tirishibdi». Ammo agar ayolda onani, bolada o‘g‘lini ko‘rishsa rasmning to‘g‘ri interpretatsiyasi yuzaga keladi. «Ona o‘g‘li bilan choy ichyapti . O‘g‘li o‘qishdan qaytib keldi. Onasiga qiziq narsa haqida gapirib beryapti».

Aqli zaif o‘quvchilarning syujetli rasmni anglab yetishi ko‘pincha uning mazmuni va kompozitsiyasiga bog‘liq. Ob’ektlar soni ko‘p bo‘lganda, markaziy ob’ekt bo‘lmagan ob’ektlar uchraganda, personajlar va ularning tashvishlari shu holatni ham butunligicha qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bunda o‘quvchilar egallagan bilimlari, ulardan foydalana olishi, diqqatni jamlab rasmni uzoq tomosha qilishi asosiy rolni egallaydi.

Olingan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, aqli zaif o‘quvchilar bilan maxsus ta’lim olib borilganda ularning nutqi va fikrlashi, boshqa psixik jarayonlari, ko‘rib idrok etishi yaxshilanadi, vaxolanki qilingan ishlar sezgi nuqsonlarini korreksiyalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Aqli zaif o‘quvchilarning teri – tuyishni o‘rganish muammosi tadqiqotchilar diqqatini tortmagan va bu sohada yetarlicha ma’lumotlar berilmagan. Ushbu kategoriyadagi o‘quvchilarning teri tuyish orqali idrok qilishini ko‘rib chiqib, V.I.

Lubovskiy shunday xulosaga kelgan, tempning tushunishi va axborotni qayta ishslashda obraz va tushunchalarning to‘liq shakllanmaganligi barcha anomal bolalarga xos. Ushbu holatni aqli zaif bolalarga nisbatan olganda R.B.Kaffemanas idrok etishning qiyinlashishi, bilish faoliyatining yetarli emasligi barcha oligofren bolalarda uchrab, ularning ko‘rgazmali – obraz fikrlashi qiyinlashadi deb ta’kidlaydi. Obrazlar bilan ish olib borganda ko‘pgina o‘quvchilar katta qiyinchiliklar sezishadi. Shuning uchun obrazlarni shakllantirish davomida turli xildagi axborotlarni ko‘proq jalgan etish kerak. Ob’ektni ko‘rish va eshitish orqali idrok etishda qisman teri – tuyishni ham ishlatish foydali.

Bu holat insonning hamma sezgi organlari o‘zaro aloqadorligi, neyrofiziologik va psixologik tadqiqotlarining yangi ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi. Birortasi ishdan chiqsa, boshqalarida ham buzilishlarni kuzatish mumkin.

Aqli zaif bolalarning teri – tuyish bilan idrok etishini eksperimental o‘rganish bo‘yicha 2 ta tadqiqot ishi mavjud. Ulardan biri, A.P. Gozova tomonidan bajarilgan bo‘lib, o‘quvchilarga yaxshi tanish bo‘lgan ob’ektlar, katta buyumlar va to‘g‘ri shakllar orqali teri – tuyish xususiyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Katta buyumlarga mumdan qilingan nok, fayansdan qilingan idish, yog‘och piramida yoki, yelim (plassmasa) eshshakcha kirgan. Xuddi shu predmetlar yelimdan yassi shaklda yasalgan .

Aniqlanishicha katta yassi buyumlarni to‘g‘ri tanib olish soni o‘qitish jarayonida oshib boradi. Oligofren bolalar yassi buyumlarga nisbatan, keng sig‘imli predmetlarni osonroq o‘zlashtiradilar. Bu yassi tasvirlarning qator teri – tuyish belgilaridan xoli ekanligiga asoslanadi. Bundan tashqari o‘quvchilar mustaqil yassi buyumlarni konturi orqali o‘rganib, olingan ma’lumotlarni analiz va sintez qilishlari kerak.

A.P. Gozova ma’lumotiga ko‘ra 1 – sinf aqli zaif o‘quvchilari teri – tuyish orqali katta sig‘imli materialni o‘zlashtiradilar. Bunda nok va idishni – shisha, piramidani – yogoch deyishadi. Ba’zi bolalar yassi nokka aniqlik kiritaman deb, uni “rezinka” yoki “kvadratcha” deb atashadi. Beshinchi sinf o‘quvchilarning 20% javoblarida ma’lum bir buyumning borligiga ishora qilinadi: «Qandaydir plastmassa» Ba’zi ob’ektning shakliga qarab qo‘sishchalar kiritishadi «oyna», «aylana», «kurakcha». Ushbu

tadqiqotlarda ishtirok etgan sog‘lom bolalarda, aqli zaiflarga nisbatan shakllarni aniq nomlashadi .

Ikkala guruh o‘quvchilari o‘rtasidagi katta farq yaqqol bilinadi. Sog‘lom bolalarga nisbatan, intektida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘proq va qo‘polroq xatolar uchraydi. Masalan, beshinchi va yettinchi sinf o‘quvchilari eshakni tuya yoki olmaxon, deb tanishadi. Bunday xatolar umumiy o‘rta ta’lim mакtabida 5 – sinfdan boshlab kuzatilmaydi. Shuni aytish kerakki, o‘rta va yuqori sinflarda o‘qiydigan oligofren o‘quvchilarda teri – tuyish faoliyatining notekis natijasini ko‘rish mumkin bo‘lib, ular to‘g‘ri javoblar bilan bir qatorda qo‘pol xatolarni ham yo‘l qo‘yadilar.

Aqli zaif bolalar o‘rganayotgan ob’ektlarning 1 ta yoki 2 ta asosiy bo‘lmagan belgisiga asoslanishadi. Ma’lumki bunday o‘rganish natijalari ko‘pincha xato hisoblanadi.

R.B. Kaffemanasning keyingi yillarda olib borgan izlanishlari A.P. Gozova tomonidan olingan ma’lumotlarni aniqlashtiradi va tasdiqlaydi. Muallif aqli zaif o‘quvchilarga teri – tuyish orqali (ko‘rmasdan), tekis chiziqlardan tashkil topgan, oddiy relefli shakllar bilan tanishishni taklif etgan. So‘ng, ko‘zлari yordamida xuddi shunday shakllarni cho‘plar yordami bilan yasashlari kerak bo‘lgan .

Aniqlanishicha, bu turdagи mashqlar xattoki katta sinf o‘quvchilarining qo‘llaridan kelmaydi. Xatto kichik sinf o‘quvchilarining hammasi ham, teri – tuyish orqali shakllar bilan tanisha olmaydi. Ko‘pgina bolalar predmetni qo‘llarida ushlab turib, hech qanday teri – tuyish harakatlarini bajarishmaydi. Kattalar tomonidan yordam berilmasa, shakllarni o‘rgana olmaydi. Katta sinf o‘quvchilarida xaotik, impulsiv, ortiqcha shoshqaloqlik harakatlari kuzatildi va bu o‘rganilayotgan predmetga nisbatan aniqlik kiritmaydi.

Shuni aytish kerakki, berilgan shaklning to‘liq obrazini yaratishda ko‘pincha qo‘l harakatlarining bir – biriga bo‘ysunmasligi xalaqit beradi. Ular alohida ma’lum bo‘lmagan, ajratilmagan belgilariga asoslanishadi, bunda ko‘pincha informativ belgilari o‘zlashtirilmay qoladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar qizlarga nisbatan mashqlarni muvaffaqiyatli bajarishadi.

A.B.Kaffemanasning fikricha, aqli zaif bolalarda teri – tuyish orqali idrok etishning rivojlanishi uchun, dars va darsdan tashqari vaqtarda ko‘proq e’tibor berilsa muvaffaqiyatga erishilardi. Albatta, bu korreksion ishlarda foydali bo‘lib, maxsus maktab bitiruvchilari joylashadigan turli ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnat teri – tuyish orqali idrok etishning rivojlanganligini talab etadi. Sensor rivojlanish – bu bolada atrof-olamdagи predmet va hodisalar haqidagi idrok va tasavvur jarayonlarining rivojlanishidir.

Savol va topshiriqlar

- 1. Idrok – psixologik jarayonini izohlab bering.**
- 2. Aqli zaif o‘quvchilarning ko‘rvu idrokining xususiyatlari**
- 3. Aqli zaif o‘quvchilarning taktil idrok xususiyatlari.**
- 4. Aqli zaif bolalarning fazali bilishning asosiy bosqichlari**
- 5. Aqli zaif bolalar ko‘rvu va ko‘rvu-fazoviy idrok kamchiliklarini bartaraf etish usullari**
- 6. Aqli zaif o‘quvchilarning idrok xususiyatlarini tekshirish uslubiyatlarini ochib bering.**

2.2. Aqli zaif o‘quvchilarning diqqat xususiyatlari

Diqqat – ongning ma’lum manbani to‘laroq aks ettirishi uchun o‘sha manbaga qaratilishidir. O‘sha manbalarga diqqatni qarata bilish esa, shaxsning faolligini bildiradi. Diqqat xayotda ruhiy faoliyatning bir tomoni bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga muvaffaqiyatli bilim, ko‘nikma, malaka egallashning asosi hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqat ruhiy hayotning xususiyati sifatida, mehnat faoliyatida yuzaga kelgan. Diqqatning fiziologik mexanizmlari juda ham murakkabdir. Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, diqqatning mexanizmi reflektor faoliyat bilan bog‘liq. Diqqatning namoyon bo‘lishini, yuz berishini kishining xolatidan, yuz mimikasidan ham bilsa bo‘ladi. K.D. Ushinskiy diqqatni inson qalbining eshigi deb beziz ta’riflamagan bo‘lsa kerak. Diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, hayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsulдорligini oshirishga ta’sir etadi.

Diqqat shunday bir psixik jarayonki, u insonning jamiki faoliyatlarida bevosita ishtirok etadi va ularning muvaffaqiyatlari yakunlanishini ta'minlaydi. Diqqat har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Insonning faollik darajasiga ko'ra diqqatning 3 turini ajratish mumkin:

1. Ixtiyorsiz diqqat.
2. Ixtiyoriy diqqat.
3. Ixtiyoriydan so'ngi diqqat¹².

Ko'pincha tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha mo'ljal olish faoliyati hamda yangi tasavvurlarga extiyoj hammadan ko'ra bosh miya po'stlog'i to'laqonli bo'lmanan go'daklarda zaiflashgan bo'ladi. (S.S.Korsanov, G.E.Suxareva) G.E.Suxareva ta'kidlashicha "Oligofren bo'lgan bolalarda sog'lom bola uchun xarakterli bo'lgan atrof-muhitni o'rghanishga shiddat bilan intilish mavjud bo'lmaydi".

Aqli zaif bolalar diqqatining o'ziga xosligi anchagina faktorlarga bog'liqdir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari aqli zaiflikning o'zak belgilari (nerv jarayonlarining kam harakatliligi, dominantaning zaifligi, mo'ljal olishning buzilishi) uning butun shaxsiy rivojlanishining borishida chuqur iz qoldiradi, diqqatning tahliliga olib keladi. Bu esa o'z navbatida psixik faoliyatning mazmuniga kirarkan, uning jarayoniga hamda natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan bu bolaning analiz va sintez jarayonlarining nisbatan yuqoriyoq darajasini talab etuvchi vazifalarni bajarayotganida ayon bo'ladi.

Diqqatning kamchiliklari nutqda o'z asoratini qoldiradi. Bunday bolalar o'zlarining va o'rtoqlarining nutqiga e'tibor berishmaydi. Bu esa xarakatlarning parokandaligiga sabab bo'ladi. Diqqat kamchiliklari xususan notanish materialni o'tishda, qiyinchiliklarga duch kelganda namoyon bo'ladi. Aqli zaif bolalar qiyinchiliklarni yengib emas, uni chetlab o'tishga urinadi. Aqli zaif bolalarning intilishlari mushohada va muhokamalari bilan asoslanmagan bo'ladi.

¹² G'oziyev E.G'. Umumiyl psixologiya: darslik. 1, 2- kitob. T.,2002.

Aqli zaif bolalarda iroda jarayonlarining yetarli rivojlanmaganligi hamda xislarini intelektual boshqarishning zaifligi tufayli yorqin va kuchli qo‘zg‘atuvchilardan foydalanib ixtiyoriy diqqatni tez va osongina keltirib chiqarish mumkin. Lekin ular diqqatini tutib turishi juda mushkul bo‘ladi.

Uyg‘onish jarayonlarining buzilishi hamda ichki tormozlanish aqli zaif bolaning ish qobiliyati buzilishiga olib keladi. Asab tizimining kam xarakatliligi, ulardan birining qotib qolishi aqli zaif bolalarga o‘z diqqatini bir ob’ektdan boshqasiga ko‘chirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, bu faoliyatning boshqa turiga qiyinchilik bilan ko‘chishga olib keladi. Tanaffusdan so‘ng aqli zaif bolalar o‘quv materialining mazmuniga o‘zlarini qayta jalg etolmaydilar, o‘quv jarayoniga kirishib ketolmaydilar. Bu xususan lanj, tormozlangan bolalar uchun xarakterlidir. To‘satdan berilgan savolga bola, garchi materialni bilsa ham darxol javob bera olmaydi. Unga diqqatini yangi mazmunga ko‘chirish uchun muayyan vaqt kerak.

Sog‘lom rivojlanayotgan quyi sinf o‘quvchilari bilan aqli zaif bolalar orachidagi keskin farq diqqatni taqsimlashda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim olish jarayoni diqqat e’tiborni bir joyga to‘plashni talab qiladi. Lekin aqli zaif bolalarda asosiy g‘oya zaifdir. U qiyinchilik bilan shakllanadi va yengil so‘ladi. Tez yo‘qoluvchi bir g‘oyaning o‘rniga ikkinchisi yuzaga keladi. Bu diqqatning patologiyasiga, faol diqqatning buzilishiga, diqqatning noixtiyoriy tebranishida o‘z ifodasini topgan ortiqcha chalg‘uvchanlikka olib keladi. Bunday parokandalikda bola o‘z faoliyatini ko‘ziga nima ko‘rinsa shunga sarflab hech bir ishini oxiriga yetkaza olmaydi, o‘z diqqatini o‘rganish ob’ektiga jamlay olmaydi.

Diqqatning chalg‘uvchanligi uning parishonxotirligida o‘z ifodasini topadi. Bu esa diqqatning barqarorligiga batamom ziddir. Toliqish, asablarning bo‘shligi, asab tizimining xoldan toyishi natijasida tashqi quzg‘atuvchilarni kuchaytiruvchi chalg‘uvchanlik sodir bo‘ladi.

Chalg‘uvchanlikning oldini olish uchun ma’lum bir vaqtida faoliyat turini o‘zgartirib turgan ma’qul. Agar bunday qilinmasa bolalar tormozlanish xolatiga tushib qolishib, mehnatdan chiqib ketishadi.

Aqli zaif bolalarning irodaga bog‘liq ishlarni har doim deyarli qoniqarsiz bajaradilar. Bu o‘rinda mashhur fransuz pedagogi E.Segenning ushbu misralari e’tiborga loyiq: “Chuqur aqli zaif bola hech narsa qila olmaydi, hech narsa bilmaydi, eng kerakligi esa - u hech narsani xohlamaydi”. Demak, aqli zaif bolalardagi asosiy nuqson xohish, istakning yetishmasligidir.

Shu narsa ma’lumki aqli zaif bolalar dars jarayonlarida tez charchaydilar. Bu bolalarning diqqatlari uzoq muddat biror nuqtaga, ta’limga qaratilmaydi. Shuning oqibatida bu bolalar tez-tez darsdan chalg‘ib turadilar. Aqli zaif bolalarning dars vaqtlarida chalg‘ib turishlari, ularning o‘z xohish-istaklari bilan emas, balki bosh miyalarida yuz bergen kasallikning natijasidir. Shu sababli yordamchi maktablarning xodimlari bunday xolatlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlari kerak.

Ta’lim jarayonlarida ixtiyoriy diqqatning vaqt-vaqt bilan ixtiyorsiz diqqatga o‘tib turishi yaxshi samara beradi, ya’ni bolaning ixtiyoriy diqqatlari muddati cho‘zilib boradi.

Diqqat xususiyatlari. Diqqat xususiyatlariga uning xajmi, taqsimlanishi, yig‘ilishi, turg‘unligi, o‘tishi kiradi.

Diqqatning kuchli va barqaror bo‘lishi bir qancha sabablarga bog‘liq. Odam o‘zining diqqatini uzoq muddat qiziq yoki mazmunli bo‘lmagan narsaga qarata olmaydi. Agar diqqatimiz qaratilgan narsa qiziqarli va yangi mazmundor bo‘lsa, shu narsaga diqqatni ancha vaqt qaratib turish mumkin. Shu sababli yordamchi maktablarda ta’limni qiziqarli tashkil etish borasida ko‘p gapiriladi. Ayrim bolalarning diqqat hajmi keng bo‘lsa, ayrim bolalarning diqqat hajmi tor bo‘ladi. Bolalarning diqqati ayni bir vaqtida faqat bitta narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin. Demak, diqqatning bo‘linishi deganda biz ayni bir vaqtida diqqatimizning ikki yoki uch narsaga qaratilishini tushunamiz. Diqqatning ana shunday xususiyatini diqqatning ko‘chuvchanligi deb yuritamiz. Diqqatning yuqorida aytib o‘tilgan xususiyatlari tufayli odam atrofdagi muhitga, undagi turli-tuman o‘zgarishlarga tez moslasha oladi. Diqqatning bu asosiy xususiyatlari bolaga tug‘ma ravishda, irsiy yo‘l bilan berilmaydi. Bu kabi xususiyatlar yoshlikdan boshlab turli faoliyatlar – o‘yin, o‘qish, mehnat jarayonlarida

tarkib topib boradi. Ana shuni nazarda tutib maxsus mактаблarning barcha o‘qituvchilari turli-tuman dars va o‘yin jarayonlarida bolalar diqqatini har tomonlama hamda izchil ravishda shakllantirib borishlari kerak.

L.S.Vigotskiyning ko‘rsatishicha aqli zaif bolalarda diqqatning oliv shakllarining buzilishi biologik va madaniy rivojlanishi orasidagi bog‘liqlikning buzilishidir. Aqli zaif bolalar bilan korreksion ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bola diqqatining fiziologik mexanizmlarini bilish talab etiladi.

Aqli zaif bolalardagi ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan pastdir. Buning sababi, ichki tormozlanishning zaifligi va tashqi tormozlanishning yaqqol ko‘zga tashlanishidir. Qiyin boshqariladigan tashqi tormozlanish aqli zaif bolalarda diqqatning turg‘unsizligiga olib keladi. Aqli zaif bolalardagi diqqatning taqsimlanishi, o‘tishining qiyinligi tormozlanish va qo‘zg‘alish jarayonlarining mo‘rtligi asosida yuz beradi. aqli zaif bolalar diqqatini tarbiyalab borishda ularning oliv asab faoliyatining tiplarini e’tiborga olish darkor. Aqli zaif bolalar diqqatini shakllantirib borish shaxsni shakllantirib borish bilan uzviy bog‘liq.

Bolalar diqqatidagi kamchiliklar butun ish jarayoni davomida kuzatiladi. Ularda diqqatning ko‘chishi, ya’ni bir predmetdan ikkinchi boshqa predmetga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga ko‘chishi qiyinchiliklar bilan kechadi. Buning sabablaridan biri ketma-ket qilinadigan ish mazmunlari o’rtasida bog‘liqlikning borligi va yo‘qligida. Agar bunday bog‘liqlik bo’lsa, diqqat tez va oson ko‘chadi. Diqqat ko‘chishining yengillik yoki qiyinlik sabablaridan yana biri diqqat qaratilgan narsalarga va bajarilayotgan ishlarga nisbatan bolalarning munosabatlaridadir. Aqli zaif bolalarda diqqat ko‘chishining qiyinligi ularning o‘z nuqsonlariga nisbatan munosabatlari bilan ham belgilanadi. Ba’zi bolalar o‘z nuqsonlarini anglab, undan uyaladilar, ba’zilar nuqsonlariga parvo ham qilmaydilar va to’g’irlashga intilmaydilar. Mana shu omillar diqqatni to’plashga va nutq kamchiliklarini yengishga to’sqinlik qiladi.

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez bo’linib turishida namoyon bo’lishi mumkin.

Parishonxotirlikning bu ko’rinishi ko’pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq- atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Aqli zaif bolalar diqqatini qator psixologik metodikalar bilan o’rganish mumkin. Ayniqsa, “Shulte jadvali” metodikasi, “Korrektur sinov” metodikasi va “Belgilarni qo‘yib chiq” metodikalar yaxshi natija beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Diqqat va uning turlari, xususiyatlariga tavsif bering.
2. Aqli zaif o‘quvchilarning diqqat xususiyatlari haqida nima bilasiz.
3. Aqli zaif bolalar diqqatini ilmiy jihatdan o‘rgangan olimlar ish tajribalaridan misollar keltiring.
4. Aqli zaif o‘quvchilarning diqqat xususiyatlarini tekshirish uslubiyatlarini ochib bering

2.3. Aqli zaif o‘quvchilarning xotira xususiyatlari

Xotira – bu individ tajribasining eslab qolinishini saqlanishi va kelgusida qayta tiklanishi. Xotiraga, shuningdek, unutish ham kiradi. Bu jarayonlar faoliyatda shakllanadi.

Materialni eslab qolish, hayot faoliyati jarayonida individual tajribaning to‘planishi bilan bog‘liq. Eslab qolingga kelgusida qo‘llash uchun qayta tiklashi zarurdir. Faoliyatdan ma’lum bir materialni tushib qolishi uni unutishga olib keladi.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz xar kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g‘oyaviy yo‘nalishi katta o‘rin egallaydi.

Bu yo‘nalishi uning faoliyatini xayot sharoiti ta’sirida shakllantiradi. Kishi o‘zining shu faoliyati uchun muxim bo‘lgan voqealarni yaxshi eslab qoladi.

Avval bolada taniy olish namoyon bo‘ladi, xotirlash esa nisbatan kechroq kuzatiladi. Xotirlashning birinchi belgilari nutq rivojlanishining boshlanishi bilan, hayotning ikkinchi yilidagina kuzatiladi.

Intellektida nuqsoni bo’lgan shaxslar bilan ishlaydigan xodimlar eksperimental psixologlar orasida xotira jarayonlariga qiziqishning o’zgargani haqida ta’kidladilar. Ellis (1963) Xullning (1952) aqli zaif shaxslarning xotira kamchiliklariga ta’sir etuvchilar haqidagi qarashlarini uzoq vaqt muhokama qildi. Qisqacha aytganda, Ellis faraziga muvofiq, aqli zaiflikda markaziy nerv sistemasi bir butunligining zaiflashuvi natijasida ta’sir etuvchilari izi amplitudasi hamda davomiyligi kamayadi¹³.

Ayova Universiteti tadqiqotchisi Heys (1969) Ellisning tashqi muhit qo’zg’atuvchilari va aqli zaiflarning qisqa muddatli xotirasini namoyon bo’lishini yengillashtirishdagi reaksiyalardan oldingi to’siqlar darajasida o’zgaruvchi gipotezasini tekshirib ko’rishga harakat qiladi. Tadqiqotlar obyekti sifatida IQ darajasi o’rtacha 63 bo’lgan imtellektida nuqsoni bo’lgan va IQ darajasi o’rtacha 102 bo’lgan me’yorda rivojlanayotgan bolalar tanlab olingan. Shuningdek, Ellis nazariyasiga muvofiq, ularning yoshi taxminan 9 yosh atrofida bo’lgan. Tajribada sonlarni eslash vazifasi berilib, eshitish chastotasi (55 dan 90 dBgacha) hamda eslash intervali (0 dan 8 sekundgacha)ning turli variantlarini tanlash imkonini beruvchi diktofon yordamida amalga oshirildi. Me’yorda rivojlanayotgan bolalar ko’rsatkichlar aqli zaif bolalarnikidan yaxshiroq bo’lsa-da, ikkala guruhda ham parallel holda sustlashuv funksiyalari kuzatilgan hamda tezlikning o’zgaruvchanligi ikkala guruhning ishlashiga sezilarli ta’sir ko’rsatmadı. Hallning molyar qo’zg’atuvchilari izi va qo’g’atuvchilari jadalligini dinamikasi faqatgina jismoniy, ramziy bo’lmagan qo’zg’atuvchilarga nisbatan qo’llanilganligi sababli Ellisning farazi natijalarini tahlil qilgan holda Heys topshiriqni bajarish jarayonida ifodaviy qo’zg’atuvchilar emas, jismoniy qo’zg’atuvchilardan foydalanilganda turli xil natjalarga erishish mumkinmi degan savolni o’rtaga qo’yadi.

Yodda saqlash va qayta yodga tushirishning ixtiyoriy shakllari kichik mактабгача yoshda paydo bo’la boshlaydi. Asta-sekin bevosita, ehtiyyorsiz yodda saqlash yodda saqlanib qolinayotgan materialni tahlil etishning maxsus usullariga tayanadigan murakkab, ongli boshqariladigan faoliyatga aylanadi. Bola yodda saqlab

¹³ Donald K. Routh, Editor The experimental psychology of mental retardation 2006 Mazmun mohiyati olingan

qolish maqsadini belgilaydi, uni anglay boshlaydi va mustaqil ajratib oladi. Mazkur maqsadni anglash o‘yin faoliyati davomida onsonroq kechadi. A.A.Smirnova, P.I.Zinchenko, Z.M.Istimina tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, masalan, do‘konda ma’lum predmetlarni sotib olish topshirig‘ini bajarayotgan xaridor rolini bajarayotgan bola tomonidan yodda saqlab qolning so‘zlar miqdori kattalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabi asosida yodda saqlab qolning so‘zlar miqdoridan ortiqroq bo‘ladi (Z.M.Istomina, 1978).

Xotiraning ixtiyoriy shakllarini egallash bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ilk bosqichda bola hali tegishli usullarni egallamay turib, yodda saqlash va qayta yodga tushirish vazifasining o‘zinigina belgilay boshlaydi. Bunda qayta yodga tushirish topshirig‘i ertaroq belgilanadi, chunki birinchi navbatda bola shunday vaziyat bilan to‘qnash keladiki, undan aynan avval idrok etgan yoki bajarganlarini yodga tushirish so‘raladi.

Tasavvurlari ravshanlik yoki boshqacha qilib aytganda, yaqqollik darajasi jihatidan idrok obrazlaridan farq qiladi, tasavvurlar idrok obrazlaridan ancha noravshan, xiraroq bo‘ladi.¹⁴

Aqli zaif bolalar xotirasi sog‘lom bolalar xotirasidan bir muncha farq qilinadi. Savol tug‘iladi aqli zaif bolalar xotirasi rivojlanadimi? Xa, aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi, qachonki korreksion ishlari erta boshlansa va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa. Ma’lumki xotiraning rivojlanishiga bir qancha analizatorlar o‘z ta’sirini o‘tkazadi (ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, sezish). Ushbu analizatorlarga tayangan xolda ish tashkil etilishi aqli zaif bolalarning xotirasini rivojlantiradi.

Matematika, ona tili, o‘qish, mehnat, rasm kabi darslarda barcha analizatorlarga tayangan holda ish olib borilishi bolaning rivojlanishiga ijobiyligi ta’sir etadi. Yani aqli zaif bolaga tushuntirilayotgan mavzu o‘qtirilsa, yozdirilsa, ko‘rsatib berilsa, iloji bo‘lsa shu predmet bolaga his qildirsa (ushlasa), predmet ma’zasi aniqlansa bolada predmet haqida ma’lumot kengayadi, bu esa uzoq muddatli xotirani rivojlantiradi.

¹⁴ David G. Myers.Psychology. 2010 by Worth Publishers, 290 page

Aqli zaif bolalar mактабида та’лим jarayoni asosan takrorlash usuliga tayangan holda ish olib boriladi. Yilning boshida o‘quvchi mактабга kelganda ko‘p narsa yoddan chiqadi, o‘qituvchining vazifasi o‘tilgan materialni esga tushurish, ma’lum bir vaqt ichida (taxminan bir hafta) materiallar takrorlanadi. Takrorlash ishlаридан so‘ng yangi mavzuga o‘tiladi. Takrorlash ishlари olib borish vaqtida shunga e’tibor berish lozimki, o‘qituvchi bitta metoddan foydalanishi mumkin emas, bitta metoddan foydalanish aqli zaif o‘quvchini charchatib qo‘yadi. Shunday metodlarni tanlash kerakki, ushbu metodlar bolani ortiqcha toliqishlariga imkon bermaydi. Faqat shundagina o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi.

Aqli zaif bolalar xotira xususiyatларини bir qancha olimlar G.Y.Troshin, L.V.Zankov, B.I.Pinskiy, G.M.Dulnev va boshqalar ilmiy-tadqiqot sifatida o‘rganganlar. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, aqli zaif bolalarning darajalariga qarab, xotira xususiyatларини rivojlantirish mumkin.

Psixologiyadan ma’lumki, inson xotirasini rivojlantirish uchun avvalmbor uning barcha bilish jarayonлари ustida ish olib borish lozim. Yuqori sinf o‘quvchilar bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilar xotirasining orasida xam katta farq bor. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xotirasining rivojlanishi ilk bosqichlarida ish olib borilsa, yuqori sinf o‘quvchilar xotirasi ustida ishlар olib borilgan bo‘lib, o‘qituvchi asosan ularning uzoq muddatli xotira sifatiga e’tibor bera boshlaydilar.

Aqli zaif bolalar bilan ishlash natijasi shuni ko‘rsatdiki, ularning xotirasi hajm jihatdan rivojlanishi orqada qolgan bo‘ladi. Xotiraning asosiy xususiyatларидан бирини бу нинг хамидид. Aqli zaif bolalar xotira hajmi qisqa bo‘ladi. Bolalarga bilim berish vaqtida ular ma’lumotni juda oz miqdorda esda olib qoladilar. Shuning uchun ular egallashi lozim bo‘lgan materialni kam o‘zlashtiradilar. Bu esa o‘qituvchi dars o‘tish vaqtida beriladigan materailning hajmiga ham alohida e’tibor ajratishini talab qiladi. Xotira hajmi qancha rivojlansa, bu ularning bilim olish malakalarini rivojlantiradi.

Xotira hajmini rivojlantirish uchun bolaning individual xususiyatlari inobatga olinadi. Agar aqli zaif bolada bilish jarayonlarining pasayishi bilan birgalikda unda nutqiy nuqsonning bir qancha qo‘pol buzilishlari, shu bilan birgalikda tutqanoqlik yoki bo‘lmasa eshitish idrokining pasayishi birgalikda kelsa, bu bola bilan ishslash

jarayonida barcha nuqsonlari inobatga olinadi. Yani bunday bolaning xotirasini rivojlantirish uchun uning bilish jarayoniga va eshitish xususiyatiga tayangan holda ishlar tashkil etiladi. O‘qituvchi aqli zaif bolalar haqidagi bilimi bilan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar haqida ham ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki bunday bolalar mujassam nuqsonli bolalar sanaladi.

Bugungi kunda inklyuziv ta’limning joriy etilishi ma’lum bir nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ta’lim olishiga katta yordam beradi. Asosan ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar sog‘lom bolalar bilan ta’lim olish huquqiga ega bo‘ladilar. Aqli zaif bolalar ham bundan mustasno emas.

Aqli zaif bolalar mактабида yuqori sinflarda bolalarning biror bir hunarga ega bo‘lishi uchun mehnat darslari tashkil etilgan. Bu darslar o‘quvchilarni nafaqat biror bir hunarga, shu bilan birga ularning bilish jarayonlariga ijobjiy ta’sir o‘tkazadi, sababi bola ishslash davomida bir qancha ruhiy jarayonlardan foydalanadi, jumladan xotiradan ham. Dars vaqtida o‘quvchilar ham bilim oladilar, ham ishslash vaqtida ularning bilish jarayonlari rivojlanadi. Aqli zaif bolalar bilan qancha erta ish tashkil etilsa, bu ularning bilish jarayonlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uzoq vaqt davomida aqli zaif bolalar xotirasi mexanik ravishda rivojlangan deb yuritildi. Hozirgi kunda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, aqli zaif bolalar xotirasi mexanik ravishda rivojlanmagan, chunki mexanik xotira rivojlanishi uchun ham analiz – sintez malakalari yaxshi shakllangan bo‘lishi kerak. Aqli zaif bolalarda esa analiz – sintez malakalari rivojlanishi bir qancha orqada qolgan bo‘ladi.

Tadqiqotlarga qaraganda aqli zaif bolalar xotirasi o‘n bir va o‘n ikki yoshda bir oz rivojlanar ekan. O‘n uch va o‘n to‘rt yoshlarda esa aqli zaif bolalar mustaqil ravishda mantiqiy tushunchalardan foydalanishlari mumkin, o‘n besh yoshlarda esa aqli zaif bolalarning materailni eslab qolish qobiliyati sog‘lom bolalarga yaqinlashadi. Bu shundan dalolat beradiki, demak aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan ishlar o‘z vatqida to‘g‘ri va aniq yo‘lga qo‘yilsa, bu ularning rivojlanishiga yordam beradi. Defektologning asosiy maqsadi esa aqli zaif bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, korreksion ishlarni tashkil etishdan iborat.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi faqatgina aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Aqli zaif bolalar xotirasini tekshirish uchun "10 ta so'zni yod olish" metodikasi, "L.V.Zankov" metodikasi, "Voqealar ketma-ketligini aniqlash" metodikalari tavsiya etiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Xotira – psixologik jarayonini izohlab bering.
2. Aqli zaif o'quvchilarning qisqa muddatli xotirasi
3. Aqli zaif o'quvchilarning uzoq muddatli xotirasi
4. Aqli zaif o'quvchilarning xotira xususiyatlarini tekshirish uslubiyatlari mazmunini yoriting.

2.4. Aqli zaif bolalarning tafakkur xususiyatlari

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, insonga atrof borliqni bilish quroli sifatida xizmat qiladi. Tafakkur inson amaliy faoliyatining vujudga kelishining asosiy shartidir. Tafakkur nutq bilan chambarchas bog'liq. Nutq bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa, inson fikr qilolmaydi. Tafakkur bo'lmasa, nutq, tilning ham bo'lishi mumkin emas. Bular o'zaro bog'liq kategoriyalardir. Tafakkur bu bilish jarayonidir. Bosh miyaning bilish jarayonlarini ta'minlaydigan markazlarining shikastlanishi tafakkur jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aqli zaif o'quvchilarning bilish jarayonlari sog'lom o'quvchilarnikidan keskin farq qiladi. Ularda maqsadga muvofiqlik, tez hal qila olishlik, tirishqoqlik, intiluvchanlik, chidamlilik, mustaqillik, qiyinchiliklardan o'ta olish kabi iroda sifatlari buzilganligini kuzatiladi.

J.Piaje olib borgan me'yorda ko'radigan bolalarning itnellektual rivojlanishini o'rganishga oid tadqiqotlar unga rivojlanish bosqichlarini ajratish va hal qilinishi maktabgacha yoshdagি bolalarning tafakkuri xarakterli

xususiyatlarini o‘tishini belgilash imkonini beradigan qator vazifalarni ishlab chiqish imkonini berdi.¹⁵

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan bilish jarayonlarida qiyinchiliklarga uchrashi ular uchun “yorliq” sifatida izohlanadi. Hatto, aqli zaiflikning motivatsion nazariyasi asoschisi Zigler ham ushbu fikrga qo‘shiladi. Tadqiqotchilar eksperimental ishlarida har bir fan (predmet)ni MA va IQ testlari asosida olib borishgan. Lekin hech bir tadqiqotchi bilish va yoki tafakkurni yanada aniqroq tavsiflashga tayyor emasligini xis etgan. Test natijalarini tahlil etishda Zigler MA ni bolaning bilish jarayonlari rivojlanganligini asosiy ko‘rsatkichi deb biladi. Zemandan esa undan farqli ravigda MA ni universal materialni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini baholovchi mezon sifatida talqin etgan.

Zigler fikricha, mактабда та’лим jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga uchragan ba’zi aqli zaiq o‘quvchilar keyinchalik ma’lum faoliyat bilan shug‘ullanuvchi aholi soniga qo‘shilganda, ba’zi kattalarning hayotdagi faoliyati sodda bilish talablaridan iborat ekanligini anglashlari mumkin.¹⁶

Aqli zaif bolada aks ettiruvchi faoliyatning faqrli xususiyati unda bilish faoliyatlarining buzilmaganligi hisoblanadi. Bu eng avvalo umumiylar va vositali bilimning buzilishidir. Maqsadga qaratilgan faoliyat sifatida tafakkur har doim ma’lum muammoning yechimi sifatida yuzaga chiqadi.

Aqliy masalalarini yechish jarayoni bir nechta bosqichlarga ega: masala shartini tushunish, savol qo‘yish, yechim ehtimoli farazini yaratish, yechimni topish va uning to‘g‘riligini tekshirish. Barcha fikrlash jarayonlari o‘zida shaxsning qobiliyatlarini, bilim va malakalarini oolib beruvchi ixtiyoriy, maqsadga qaratilgan faoliyatlarini amalga oshiradi. Aqliy masalalarni yechish aqli zaif bolalarda boshlang‘ich davrdayoq muhim qiyinchiliklarga olib keladi. Ular ko‘pincha masalani noto‘g‘ri anglaydi, uni qisqartiradi yoki buzadi. Shu tariqa, avval boshdanoq, maqsadga qaratilgan tafakkur buzilgan va u boshqaruvchi vazifani boshqara olmay qoladi. Yechishning keyingi bosqichlarida kamchiliklar

¹⁵ David G. Myers.Psychology. 2010 by Worth Publishers, 368-370 page

¹⁶ Donald K. Routh, Editor The experimental psychology of mental retardation 2006 Mazmun mohiyati olingan

kuzatiladi. Qo'llanilayotgan yechish usullari noto'g'ri va samarasiz bo'ladi. Masalani yechish jarayonida qo'yilgan maqsaddan chetga chiqish, muammoning qaysidir xususiy tomonida to'xtab qolish kuzatiladi. Yechish jarayonida ko'pincha xatolar va tekshirishlar majmuiga olib keladi. Tekshirish zarur bosqich sifatida qabul qilinmaydi. Olingan natijalar boshlang'ich ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lmaydi. Tafakkurning past mahsulligi aqliy masalalarni yechishning barcha bosqichida ko'rindi.

Yuqorida keltirilganlar asosida aqli zaif bolalarga o'z faoliyatini tashkil etishga, aqliy jarayonning bosqichi to'laqonli o'tishiga yordam berish kerak. Bu vazifani aqli zaif bolaga imkoniyati darajasidagi masala berish, ularni yechish usullari, nazariy usullari va shu kabilar to'liq ishlab chiqilgandagina amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur uchun obrazlar bilan aqliy faoliyat natijalari, tasavvuri orqali aqliy masalalarni yechish xarakteri hisoblanadi.

Xaqiqiy hayotdagi predmetlar obrazini tahlil qilish, ichki nutq yordamida amalga oshiriladi. Meyorda rivojlanayotgan bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur asosan mакtabgacha yoshda rivojlanadi. Aqli zaif o'quvchilarda tasavvur etilayotgan va idrok etilayotgan predmetlarni analiz va sintez qilishni rivojlanganligi kuzatiladi. Ularning diqqatini predmetlarni mavjud bo'limgan xususiyatlari, yorqin ko'zga tashlanadigan belgilari tortadi.

Maxsus mакtab o'quvchilarida alohida predmetlar va predmetli xolatlarni so'z bilan tavsiflashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu toifa o'quvchilar o'zlariga tanish predmetlarni qarama-qarshi qo'yib, ularni taqqoslashda ularning umumiyligini xususiyatlaridan asosiysini aniqlash imkoniyatiga ega emas. Ularda tasavvurga ko'ra taqqoslash vazifasini tushunmaslik kuzatiladi. O'quvchilar so'zni erkin ravishda qo'llay olmaydi. T.A.Pratsko aqli zaif bolalarda topishmoq materiali asosida so'zli-obrazli masalarni yechish xususiyatlarini o'rgangan. Uning aniqlashicha topishmoqni tushunishning boshlang'ich bosqichida o'quvchilar uning javoban ifodasini topgan so'zlarni ajratadi. Nutqning tasviriy vositasi ular uchun tushunarsizligicha qoladi. Ammo aqli zaif o'quvchilarning aqliy

faoliyatini ko‘rgazmali vositalar yordamida faollashtirish mumkin. Maktab sharoitida o‘qitish jarayonida ko‘rgazmali-obrazli tafakkur rivojlanadi. Ob’ektlarni aqliy analiz qilish maydoni kengayadi, tasavvur roli kengayadi, mavhumlashtirish qobiliyatini rivojlanishida ahamiyatli siljishlar kuzatiladi, 1-sinfdan 5-sinfgacha ko‘rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlanishida ijobiy dinamika kuzatiladi. Shu bilan birga aqli zaif o‘quvchilarni ko‘rgazmali-obrazli tafakkuri sog‘lom tengdoshlarinikidan baribir pastligi aniqlangan. Ko‘pgina aqli zaif o‘quvchilarda murakkab xayotiy malakalar bilan bog‘liq bilim va tasavvurlari orqali amalga oshiriladigan aqliy faoliyatlarida yetarli darajada umumlashtirishga erishmaydilar. Buning oqibatida ular aqliy masalalarni yechishda so‘z ma’nolaridan erkin foydalana olmaydi.

Ko‘rgazma – harakatli tafakkur insonning yangi sharoit va amaliy muammoli topshiriqni yechishning yangi usuli bilan to‘qnashganda paydo bo‘ladi. Bunday turdagи topshiriqlarga bola butun bolalik davrida – maishiy va o‘yin faoliyatlarida duch keladi. Ko‘rgazma – harakatli tafakkurning muhim xususiyati shuki, holatni o‘zgartirish usuli bo‘lib amaliy harakat xizmat qiladi va u sinab ko‘rish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Aqli zaif bolalarda ko‘rgazma – harakatli tafakkurning rivojlanishi orqada qoladi. Aqli zaif bolalar predmetlar bilan harakat qilishlarining har kungi tajribalarini mustaqil umumlashtira olmaydilar. Shuning uchun aqli zaif bolalarda umumqabul qilingan qurollardan foydalanishni talab etadigan anglash bosqichi rivojlanmagan bo‘ladi. Amaliy harakatlar va ularni so‘z belgilari o‘rtasidagi aloqa yetarlicha bo‘lmaydi. Nutq tashkil etuvchi va boshqaruvchilik vazifasini bajaradi. Aqli zaif bolalarda ko‘rgazma – harakatli tafakkurini shakllantirish asosiga muammoli amaliy vazifa va vaziyatlarda mustaqil mo‘ljal olishni rivojlantirish kiritilishi lozim.

Aqli zaif bolalarda amaliy vazifalarni bajarishda qiyinchilik yuzaga keladi. Masalan, aqli zaif bolalarga kesma rasmlarni birlashtirish va Segen doskasini to‘ldirish qiyinchilik tug‘diradi. Ularning predmetlar bilan harakatlari impulsiv xarakterga ega, bu harakatlar fikrlash vazifasiga bog‘liq bo‘ladi.

Fikrlash qobiliyati aqli zaif bolalarda o‘ziga xos tarzda amalga oshadi. Aqliy faoliyat jarayoni o‘zaro bog‘liq aqliy operatsiyalar bilan amalga oshiriladi. Predmet va hodisalarni tahlil qilish jarayonida aqli zaif bolalar sog‘lom tengdoshlariga qaraganda kam, ma’lum qismlarni aniqlaydi. Sintez qilish jarayonida umumlashtirish jarayonining pastligi kuzatiladi. Ob’ektlarni o‘xhash va farqli belgilarini aniqlashda yordam beradigan taqqoslash operatsiyalari ham maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘ziga xos tarzda kechadi. Ko‘pincha yo‘q belgilari taqqoslanadi.

Mavhumlashtirish – aqli zaif bolalar uchun ancha qiyin operatsiya xisoblanadi. Mavhum tafakkurning buzilishi aqli zaiflikning asosiy belgisini tashkil etadi. Aqli zaif bolalar tomonidan umumlashtirish situativ xarakterda bo‘ladi. Tafakkur bilishning bosh quroli hisoblanadi. U analiz, sintez, umumlashtirish, mavhumlashtirish, aniqlashtirish kabi operatsiyalar shaklida kechadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bu barcha operatsiyalar aqli zaiflarda yetarlicha shakllangan va o‘ziga xos tomonlarga ega. V.G.Petrova, B.I.Tinskiy, I.M.Soloveva, N.M.Stadnenko, J.I.Shif ma’lumotlariga ko‘ra aqli zaif bolalar predmetlarni tushunadi, tahlil qiladi, qator zarur xususiyatlarni qoldirib, faqatgina yaqqol aniq qismlarinigina hisobga oladi. Bunday tahlil natijasida ular predmetlarning qismlari bilan aloqasini o‘rgatishda qiynalishadi. Odatda ular faqat predmetlarning ko‘rvu xususiyatlariga tayangan xolda rangini aniqlashadi. Predmetlarni tahlil qilishda ularni individual belgilarini emas, umumiyl belgilarini aniqlaydi. Analizning takomillashganligi uchun predmetlarni sintez qilish qiyinlashadi. Predmetlarning alohida qismlarini ajrata turib, ular orasidagi aloqani o‘rnata olmaydi, shuning uchun predmetlar haqida butun tasavvurga ega bo‘lishda qiynaladi. Aqli zaif bolalarda taqqoslash operatsiyasida tafakkurning sifatlari yorqin namoyon bo‘ladi, unda maxsus qo‘yilgan analiz va sintez o‘tkaziladi. Ular predmetlar va hodisalardagi asosiy narsani ajrata olmay, mavjud bo‘limgan belgilar taqqoslanadi, ko‘pincha mos kelmaydigan belgilar taqqoslanadi. Aqli zaif bolalar o‘xhash va farqli predmetlarning farqini aniqlashda qiynaladilar. Ayniqsa ular uchun o‘xhashlikni aniqlash qiyin.

Ruchka va qalamni taqqoslab, ular: “ular uzunligiga ko‘ra o‘xhash, yana ularning terisi bir xil” deb javob berishadi. Aqli zaif bolalar tafakkurining farqli tomoni tanqidiy qarashning yo‘qligi, o‘z ishlarini mustaqil baholay olmaslididir. Ular ko‘pincha o‘z xatolarini belgilashmaydi, bu ayniqsa ruxiy kasallangan bolalarda bosh miyaning peshona qismi jaroxatlangan bolalarda va og‘ir darajadagi aqli zaif bolalarda yorqin namoyon bo‘ladi. Ko‘ruv idroki asosida idrok etilgan fikrlash natijasidagi tasvir kambag‘alligi, bog‘liq emasligi, oddiyligi bilan ajralib turadi. O‘quvchi ob’ektga qarab, uning nomini bilsa ham, qismlarini to‘liq aytolmaydi. Odatda, shakllarning umumiy konturlari qismlarini tartibsiz bayon etadi.

Kichik maktab yoshidagi aqli zaif bolalar uchun 2 va undan ortiq predmet solishtirish qiyinchilik tug‘diradi. Solishtirishda I-II sinf o‘quvchilari bir ob’ektni ikkinchisidagi ajratuvchi xususiyatlarga e’tibor beradilar. Bu ob’ektlarning o‘xhash xususiyatlarini hisobga olmaydilar. Bolalar ob’ektlar o‘rtasidagi farqni solishtirib bo‘lmaydigan xususiyatlar bilan qiyoslaydilar. Masalan, bu piyola katta, bunisida esa ko‘k gul rasmi bor. Ular har xil. Birinchi predmetning kattaligini, ikkinchi predmetning gulini taqqoslangan. Ayrim hollarda o‘quvchilar vazifani oson yengil vazifalar bilan almashtiradi yoki ob’ektni solishtirish o‘rniga ulardan birini analiz qila boshlaydilar. Yoki solishtirishni boshlab, o‘z harakatlarini nazorat etolmaydi. Bola o‘zi uchun qiyin bo‘lgan vazifada to‘xtolmaydi va o‘z aqliy faoliyatini yengillashtirib boshqa vazifaga o‘tadi. Aqli zaif bolalar tafakkurini tahlil qilib, bu jarayonning stereotipligi, qiyin harakatligi va umuman to‘liq egiluvchan emasligini ta’kidlash joiz. Shuning uchun mavjud bilim va malakalarni yangi sharoitda qo‘llash aqli zaif bolalarida qiyinchilik tug‘diradi va vaziyatini xato bajarishga olib keladi. O‘quvchi anglash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishida tafakkur muhim rol o‘ynaydi. Aqli zaif o‘quvchilarida tafakkur operatsiyalarini to‘liqsizligi kuzatiladi. Ular oddiy, ko‘rgazmali – harakat vazifalari bajarishda qiyinchilikka uchraydilar. O‘quvchilar bir qancha harakatlardan so‘ng ham ko‘p xatolar bilan bajaradilar. Bir xil xatolar takrorlanadi. Aqli zaif o‘quvchilar muvaffaqiyatiga

erishmasa ham, harakat usulini o'zgartirmaydilar. Ko'rgazma – obrazli tafakkurni talab etuvchi vazifalar, o'quvchilarida qiyinchiliklar tug'diradi. Ba'zi vazifalarni fikrlash qobiliyati sifatida emas, balki eslash sifatida amalga oshadi. Masalan, aqli zaif o'quvchida qanday mevalar bilishi so'ralganda, konfetni yaxshi ko'rishini aytgan meva nomlari nutq ustirish darslarida ko'p takrorlangan. O'quvchida ularni esga tushirgan, lekin konfetni yaxshi ko'rishi uchun bu qatorga uni qo'shgan. Aqli zaif o'quvchining tafakkurlarini ustidagi ish korreksion ishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu ish o'quvchilarni ta'lim jarayoniga tayyorgarligi va ijtimoiy adotatsiya uchun muhimdir.

Tafakkurning ko'rgazmali – harakat turi aqli zaif o'quvchilar uchun nisbatan qulaydir. Lekin vazifalarni bajarishda qiyichilik yuzaga keladi. Masalan, aqli zaif o'quvchilarga kesma rasm va segen doskasini to'ldirish qiyinchilik tug'diradi. Ularni predmetlar bilan xarakatlari impulsiv xarakterga ega, bu xarakatlar fikrlash vazifasiga bog'liq bo'ladi. I-II – sinfda o'quvchilarda ko'rgazmali tafakkur qo'llash qator qiyinchiliklarni to'g'diradi.

Fikrlash qobiliyati aqli zaif o'quvchilarda o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Ko'rvu idroki asosida idrok etilgan fikrlash natijasidagitasvir kambag'alligi, bog'liq emasligi, oddiyligi bilan ajralib turadi. Obyektga qarab o'quvchi, uni nomini bilsa ham, uni qismlarini to'liqcha aytolmaydi. Odatda, figuraning umumiyligi konturlari qismlarini tartibsiz bayon etadi. Masalan, qarg'a tomoniga kelayotib, o'quvchilar uni tanisa mavjudligini anglasa ham, uni tumshug'i, ko'zi haqida gapiradi. Obyekt analizi katta odam yordamida amalga oshirilsa, to'liq bo'ladi.

O'quvchilar kattalar rahbarligida predmet harakatlarini bajaradilar, lekin aqli zaif o'quvchilarni predmet, harakat analiz, hususiyatlari diqqatini qaratish past darajada bo'ladi. O'quvchilar diqqati ayrim harakatlarga qaratiladi, asosiy harakatlar diqqatdan chetda qoladi. Bunda tartibsizlik, tizimsizlik, ko'z tushgan predmetni, asosiysini ajratmasdan nomlash kuzatiladi. Asta sekin o'quvchilar ma'lum ketma-ketligida idrok etilgan predmetni tasvirlashga o'tadilar, lekin shunda ham 2 donali detallaridan tasvirlanishni boshlaydilar. Kichik mifik

yoshidagi aqli zaif o‘quvchilar uchun 2 va undan ortiq predmet solishtirish qiyinchilik tug‘diradi. Solishtirishda I-II sinf o‘quvchilari bir obyektni ikkinchisidagi ajratuvchi xususiyatlarga e’tibor beradilar. Bu obyektlarni o‘xhash xususiyatlarini hisobga olmaydilar. Solishtirma obyektlarni bir tipli qismlari va predmet xususiyatlarini qiyoslashni ko‘zda tutadiganlar. O‘quvchilar obyektlar o‘rtasidagi farqni solishtirib bo‘lmaydigan xususiyatlar bilan qiyoslaydilar. Masalan, bu piyola-katta, bunisida esa ko‘k gul rasmi bor. Ular har xil. Birinchi predmetning kattaligi, ikkinchi predmetning guli taqqoslangan. Ayrim hollarda o‘quvchilar vazifani oson yengil vazifalar bilan almashtiradi yoki obyektni solishtirish o‘rniga ulardan birini analiz qila boshlaydilar. Yoki solishtirishni boshlab, o‘z xarakatlarini nazorat etolmaydi. O‘quvchi o‘zi uchun qiyin bo‘lgan vazifada to‘xtolmaydi va o‘z aqliy faoliyatini yengillashtirib boshqa vazifaga o‘tadi. Aqli zaif o‘quvchilarni solishtirish malaksini egallash IV sinfda, 11-12 yoshlarda shakllanadi. U vazifani bajarishdagi voz kechish, obyektlarni ko‘p xossalarni solishtirishi, obyektlarni faqat etiishda, o‘xhash tomonlarini ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Olingen natijalarni amaliyotda qo‘llash faqat ta’limni oxirgi yo‘lida kuzatiladi. Kunda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar bilan o‘quvchi faoliyatini boshqarib turadi. Aqli zaif o‘quvchilari uchun kuzatishlar, predmetlar, xodisalarni umumlashtirish qiyinchilik to‘g‘diradi. Kunday vazifani bajarib, alegoren o‘quvchi ikkilamchi xususiyatlarga ko‘p diqqatini qaratadi. Ular chashka, tarelkani ko‘k rangda bo‘lgani uchun bir guruhda nomladi, choynaki qizil bo‘lgani uchun bu guruhga qo‘shtaydilar. Shunday qilib, oligofren o‘quvchilar umumlashmalarga juda tor, yetarli differensiallashmagan. Asosan, obyektlar – yangi asosiga ko‘ra umumlashtirishga qiynadilar. Masalan bir geometrlik guruhga kvadrat, to‘g‘ri to‘rburchak, doirani ularni hajmiga qarab kiritadilar lekin ularni rangni shakliga ko‘ra umumlashtira olmaydilar. Bunda nerv jarayonlarini patologikinetligi kuzatiladi. Hatto yuqori sinf o‘quvchilari ham o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashmaydilar. Ularda o‘zini tekshirish, o‘z faoliyatini o‘ylab ko‘rishi xolatlari kuzatilmaydi. Ular o‘zlari erishgan yutuqlaridan qanoatlanadilar va

ularni mustaqil yaxshilash fikrini bildiradilar. Bunda o‘quvchilar bilim va qiziqishlarining cheklanganligi intellektual passivligi faoliyati motivatsiyasini kamayishi muhim rol o‘ynadi.


Aqli zaif o‘quvchilar tafakkurini o‘rganish va to‘g‘ri tashxis qo‘yish uchun “Kesma rasmlar” metodikasi, “To‘rtinchisi ortiqcha” metodikasi, “Klasifikatsiyalar” va “Etishmaydigan qismlarni aniqlash” metodikalarini tavsiya etish mumkin.

Savol va topshiriqlar

- 1.Tafakkur operatsiyalarini aytib bering.
- 2.Aqli zaif bolalarning ko‘rgazma-obrazli tafakkur xususiyatlari.
- 3.Aqli zaif bolalarning ko‘rgazma-harakatli tafakkur xususiyatlari
- 4.Aqli zaif bolalarning so‘z – mantiq tafakkuri xususiyatlarini ochib bering.
5. Aqli zaif o‘quvchilar tafakkur xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rgangan olimlar ish tajribasidan misollar keltiring.

2.5. Aqli zaif o‘quvchilarining nutq xususiyatlari.

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lib, nutq vositasida o‘zaro aloqa bog‘lay olish, fikrlasha bilishidir. Turli tovushlarning ma’lum tartibda birgalashib, payvasta bo‘lib qo‘shilishidan yuzaga kelgan ma’noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo‘ladi.



Tafakkur va nutq bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liqdir. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o‘z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqida o‘ylab oladilar. O‘ylagan paytida ovoz chiqarmasdan

ichki nutqdan foydalanadilar. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, o‘ylangan va fikrlangan nutqdir. Bu nutq fikrlovchi kishining o‘ziga qaratiladi. Ichki intonatsiya, mimikadan foydalanish imkonni bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan yozma nutq ancha qiyinchilik tug‘diradi. Yozma nutq ancha murakkab va mavhumdir. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa vositasi, quroli sifatida xizmat qiladi. Og‘zaki nutq monologik va diologik nutq bo‘lishi mumkin.

Aqli zaif bolaning xususiyati shundaki, uning psixikasi qoidaga bo‘ysunmaydigan sharoitlarda, anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola sog‘lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning ilgarigi tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar hamda psixik jarayonlar shakllanmagan bo‘ladi. Shunday qilib, aqli zaif bolaning umumy psixik taraqqiyot darajasi odatdagi sharoitlarda uning mifik bilimlari, ko‘nikma va malakalarni ongli suratda egallashini ta’minlay olmaydi. Bolaning psixik kamol topishiga uni umumta’lim maktabda o‘qitib ko‘rish zarar yetkazadi. U maktab yoshiga yetarkan, o‘qish uchun yetarli tayyorlanmagan holda bo‘ladi, o‘quv topshiriqlarining maqsadiga diqqatini to‘play olmaydi, qiyinchiliklarni yengib o‘ta olmaydi. Maktabdagi tartib qoidalarga bo‘ysunolmaydi. Bularning hammasi o‘zlashtirmaslikka olib keladi. Shuning uchun yordamchi maktabning muhim vazifalaridan biri o‘quvchini umumiylara taraqqiy topishida ilgari siljитish uchun pedagogik jarayonga korreksion momentlarni singdirishdan iborat. Yetakchi faoliyat uning psixik jarayonlari va shaxsiy hususiyatlarida eng bosh o‘zgarishlarni taqozo etibgina qolmay, balki uning o‘sib borishida yaxshi ko‘rsatkich hamdir. B.N.Pinskiy ta’kidlashicha, aqli zaif bolalar o‘zlarining sog‘lom tengdoshlari mustaqil holda yoki o‘qituvchining ozgina ko‘magi bilan bajara oladigan vazifalarni uddalashlari uchun propedevtik va korreksion tarbiyaviy tadbirlarga muxtojdir¹⁷. Nutqini o‘z vaqtida to‘g‘ri egallash bolaga atorofini o‘rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o‘z nutqini boshqarishiga ko‘maklashadi va nihoyat maktabda ta’lim-tarbiya berish

¹⁷ “Специальная психология” под ред. Лубовского В.И.: М. 2005.

jarayonini ancha yengillashtiradi. Aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq ancha kech tilga kiradilar. Birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan besh yoshgacha kechikadi. Eng avvalo, bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. G.A.Kainning tadqiqotlariga ko'ra, yordamchi maktab o'quvchilarining 66 foizi tutilib gapirishning u yoki bu shakliga duchor bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutqiy nuqsonlarning shunchalik katta miqdorda uchrashi tasodifiy xol emas. ZOTAN, bosh miya po'stlog'ining shikastlanishi, fonematik eshituvning buzilishiga, artikulyatsion apparat harakatining izdan chiqishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar tilning lug'aviy boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Aqli zaif o'quvchilar qo'llaydigan so'zlar zahirasi odatdagি meyorga tenglashtirib bo'lmaydigan darajada tordir. Ular ko'pincha so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. 1) Mavhum tushunchani ifodalovchi mashaqqat, qimmatroq, arzonroq; 2) ko'chma ma'noda qo'llangan so'z¹⁸.

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning mohiyatini tushunmaydilar, «Oltin bosh» degan ibora bolada kulgi uyg'otadi, hamda ularning e'tiroziga duch keladi. «Bunaqasi bo'lmaydi» deyishadi ular. Nari borganda o'quvchilar bu ibora vositasida quyoshda yiltillagan sochlarni tushunishadi. Hatto yordamchi maktabning yuqori sinf o'quvchilari ko'chma ma'nodagi so'z birikmalarini to'g'ri sharxlashda qiynalishadi. Aqli zaif bolalarning nutqini farqlaydigan yana bir xususiyat - bu ularning so'zлами noto'g'ri talaffuz etishlaridir. Gap shundaki miya po'stlog'ining analizatorlik faoliyati buzilishi tufayli, atrofdagilar haqida noaniq tasavvurlar o'quvchilarni kuzatgan narsa va xodisalarni noaniq atashga olib keladi. Natijada predmetlarning o'xhashligini ilg'ab ularning farqini ilg'amasadn bunday predmetlarni bir xil so'z bilan atashadi. Aqli zaif bolaning faol lug'ati uning nofaol lug'atidan kambag'alroq bo'ladi. M.P.Feofanovning tadqiqotlariga ko'ra aqli zaif bolalarning nutqiga oid qo'shimchalar sog'lom intelektdagi bolalarnikiga nisbatan ikki barobar kam bo'lishi aniqlangan. Yordamchi maktab o'quvchilari, xususan, yuqori sinf o'quvchilari og'ir,

¹⁸ Aytmetova S. "Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish hususiyatlari." T.1984 yil.

baland, past, chuqur va shu singari so‘zlarni osongina tushuntirishadi. Ulardan maxsus xarakterdagи mashqlarda to‘g‘ri foydalanishadi. Biroq o‘z vaqtida ular chegaralangan doiradagi sifatlarni xush ko‘rishadi. Jumaladan yaxshi, yomon, katta va kichik singari. Shu boisdan ham o‘quvchilarning so‘zlab berishlari noaniq va bir xil bo‘lib qoladi. Jumaladan, ular shunday hikoya qilishadi: «Zumradning turmushi yomon edi», «Murodjon hayvonlarga yaxshi munosabatda bo‘lar edi». Mazkur holda tormoz jarayonining, xususan, defferensiallangan tormozlanishning zaifligi aqli zaif o‘quvchilar yoqtiradigan so‘zlar, bosh miya po‘stlog‘ida tormozlanmaydi, ular topshiriqning mohiyatini hisobga olmasdan tez aytib yuborishadi. Aqli zaif bola hikoyalarining yoyiqligi, ko‘p jihatdan ular nutqida motvlarning bo‘lmasligi bilan izohlanadi. Bunday o‘quvchilar gap qurishga ham qiynaladilar. Bu holatso‘zlar moslashuvida ko‘p uchraydi va ular nutqiga xosdir. Aqli zaif o‘quvchilar nutqi sintaktik jihatdan ham, o‘ziga xos ravishda ajralib turadi. Eng avvalo gaplarning tuzilishiga ko‘ra jo‘nligini qayd etish kerak. Yordamchi maktab o‘quvchilarining nutqida qo‘shma gaplar odatda iptidoiy ko‘rinishda, oddiy bog‘lanishda uchraydi. Chunki o‘quvchilar bir narsani ikkinchisiga qiyoslashda, hodisalarning sababiy bog‘lanishlarini ochib berishda qiynalishadi. Gaplarning tuzilishidagi bu xil jo‘nlik aqli zaif bolaning bosh miya po‘stlog‘ida shakllanuvchi oddiygina aloqalarga mos keladi. Buning ustiga, aloqalarni yetarli aniq anglamasligi, aqli zaif o‘quvchilar fikrining noaniq tugallangan bo‘lib qolishiga olib keladi. Bolalar o‘qiyotgan, eshitayotgan, ko‘rayotgan narsalar haqida bir qator xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Aqli zaif bolalar, hatto 1-sinf o‘quvchilari hamma vaqt ham o‘zgalarning og‘zaki ko‘rsatmasi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatisha olmaydi. A.R.Luriya, N.P.Paramanova, O.K.Tixomirov (1973) va boshqalar o‘tkazgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, aqli zaif bola o‘zining harakatlariga qo‘llanma bo‘la oluvchi umumiy qoidalarni mustaqil ifodalab berishga qodir emas. Aqli zaif bolaning ichki nutqi tashqi nutqiga nisbatan ko‘proq shikastlangan bo‘ladi. Ichki nutq aqlda shakllangan har qanday fikrning moddiy qobig‘idir. Aqli zaif bola nutqidagi bunday nuqsonlar, ularning o‘qishini qiyinlashtiradi. O‘quvchilar hamma vaqt ham o‘qituvchining tushuntirishlarini fahmlashavermaydi, matn mazmunini mustaqil tushunib yetmaydi, o‘z harakatlarini

o‘rganilgan qoida bilan zaif nazorat etishadi. So‘z ular uchun narsaning o‘zi bilan chatishib ketgan bo‘ladi, uning aniq mazmunidan ajratish uchun, ya’ni uni grammatik, fonetik jihatdan o‘rgana boshlash uchun katta shijoat talab etiladi.

Ilg‘or pedagog – defektologlarning tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ta’limning maxsus tashkil etilgan sistemasi yordamida aqli zaiflarning nutqiy faoliyatidagi nuqsonlarni korreksiyalab borish, tafakkurning kechikishidagi nuqsonlarni oshirish mumkin. Aqli zaif bolalar juda ko‘p tovushlarni, ya’ni sirg‘aluvchi, til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish ko‘proq foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham logopedlarning, o‘qituvchilarning assosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o‘stirishdir. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uyg‘unlashib, moslashib ishlashiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham logopedlarning, o‘qituvchilarning assosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o‘stirishdir. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uyg‘unlashib, moslashib ishlashiga bog‘liqdir. Shuning uchun hamma vaqt tovushlar ustida ish olib borilar ekan, albatta artikulyatsion gimnastikalar o‘tkaziladi. Ayrim unli va undosh tovushlar asta – sekin egallab boriladi. Bolalarning ko‘pchiligi ayrim tovushlarni, ya’ni R, S, K, G, M, Sh, Ch tovushlarini talaffuz etishda qiynaladilar, so‘zlarni buzib talaffuz etadilar. Ba’zi bolalar so‘dagi bo‘g‘inlar o‘mini o‘zgartirib, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladilar.

Rus psixologi A.R.Luriya «Nutq tovushlarini idrok etishda nutqiy oqimdan signalli, fonematik belgilar ajraladi va nutq tovushlarini differensiatsiya qilish ushbu maxsus belgilarni kuchaytirishni hamda muhim bo‘lmagan, tasodifiy, fonematik ahamiyatga ega bo‘lmaganlardan ajratish asosida amalga oshadi». Shuni aytib o‘tish zarurki, aqli zaif bolalarda faqatgina faol nutqning rivojlanishi kechikib qolmaydi. Bolalar ularga qaratib so‘zlagan nutqni yaxshi tushunmaydilar. Kattalarning savollari, talablari, tushuntirishlari va ko‘rsatmalari ularning hayotida birmuncha boshqa, ahamiyatsiz ro‘l o‘ynaydi.

Aqli zaif bolalarning mактабгача tarbiya davridagi nutqiy aloqa qilish faoliyati bilan bog‘liq tajriba kamroq vaqtни 3-4 yilni o‘z ichiga oladi. Shunda ham uning rivojlanish sur’ati keskin orqada qolgan, nutq faolligining zaifligi kuzatiladi. Bolaning maishiy so‘zlashuv nutqi yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bu esa oligofren bolaga kattalar bilan nutqiy aloqa qilishni qiyinlashtiradi. Bola suhbatlar ishtirok etaolmaydi, savollarga bir xil tarzda va doimo ham to‘g‘ri javob bermaydi. Topshiriq va vazifalarni bajarish unga qiyinchilik tug‘diradi. Aqli zaif bolalar uchun xos bo‘lgan umumiy motor rivojlanmay qolishi ham nutqning rivojlanishining sekinlashishida ma’lum bir ro‘l o‘ynaydi. Motorikaning (harakatlarning) rivojlanmay qolishi bolaning atrof-dunyo bilan tanishish jarayonini buzadi va natijada ular haqida tasavvur va ma’lumotlarni to‘plashni tormozlaydi. Aqli zaif bolalarda kuzatiladigan motorikaning nuqsonlari ular nutqining talaffuz tomoniga ham ta’sir etadi. Chunki nutq tovushlarining, so‘zlarning ixtiyoriy talaffuzi nutq a’zolarining yuqori darajadagi koordinatsiyalashga harakatlarini talab etadi. Aqli zaif bolalar uchun esa nutq a’zolarining koordinatsiyalashgan harakatlari qiyinchilik tug‘diradi.

Aqli zaif bolalar uchun xarakterli bo‘lgan fonetimatic eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi va nutq harakatidagi kamchiliklar bir-biriga ta’sir etadi va nutqning rivojlanishini tormozlaydi. Ammo shuni nazarda tutish lozimki, nutq a’zolari xarakatidagi kamchiliklarni xaddan tashqari ko‘pirtirib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi, chunki bu buzilishlar keyinchalik oson bartaraf etilishi mumkin. Asosiy, yetakchi rol fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligiga tegishli bo‘lib, u aqli zaif bolalarning umumiy rivojlanishi nuqsonlarning oqibatidir.

Nutq nuqsonlarining aqli zaif bola umumiy ruhiy taraqqiyotiga salbiy ta’siri J.I. Shif. qo‘llanmasida atroficha, chuqur tahlil qilib berilgan. Muallifning e’tirof etishicha, aqli zaif bolalar bilan sog‘lombola orasidagi farq ularning faol nutqlarida ko‘zga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar o‘z nutqlarida sifat, fe’l, bog‘lovchilardan juda kam foydalanar ekanlar. I.M.Savchenovning ta’biricha, so‘z bola uchun ma’lum vaqtgacha narsalarning «tahallusi» sifatida tushunilib kelinadi. Bolalar ulg‘aygan sari narsa nomlarining ahamiyati ham o‘sib aniqlanib boriladi. Aqli zaif bolalarda «tahallus»lardan tushunchalarga o‘tish jarayoni juda uzoq va qiyin shakllanadi.

Yordamchi maktab birinchi sinf o‘quvchilarining nutqidagi grammatik tuzilishlar takomillashmagan bo‘ladi. Ularning jumllalari bir so‘zdan, sodda so‘zlarda iborat bo‘ladi. O‘z fikrlarini bayon qilishda juda qiynaladilar. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar nutqi sog‘lom 3-4 yoshli bolalar nutqini eslatadi bu bolalar o‘z fikrlarini o‘ylab tugatmasdan yoza boshlaydilar. Shuning natijasida, gapning boshlanishi bilan tugashi orasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Yordamchi maktab o‘qituvchilari aqli zaif bolalarga yozish, o‘qish malakalarini o‘rgatishda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladilar.

Yengil darajadagi aqli zaif o‘quvchilar nutqidagi grammatik qurilishning buzilishlari masalasi qator olimlar tomonidan (rus tadqiqotchilari M.S.Gnedilov, M.N.Efimenkova, I.N.Sadovnikova, O.L.Jilsova, M.P.Fiofanovalar ishlarida) o‘rganilgan. Ularning ko‘rsatishicha, aqli zaif bolalar nutqda gaplardan ancha kechikib foydalana boshlaydilar. Dastlabki jumllalar aqli zaif bolalar 5 yoshdan so‘ng paydo bo‘la boshlaydi va u bir qator kamchiliklarga ega bo‘ladi. Aqli zaif bolalarning nutqi asosan sodda gaplardan iborat bo‘ladi. Ular maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshida ham sodda gaplarni tuzilishini egallab olmagan bo‘ladilar. Tuzgan gaplarida grammatik xolatlar juda ko‘p kuzatiladi, gaplardan boshqaruva va moslashuv bog‘lanishlar buzilishlari yuz beradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar quyidagicha gap tuzilishlarini eshitish mumkin: «U bosh yo‘q», «Bola maktab ketdi» va hokazo. Ular aqli zaif bolalar ko‘pincha bir so‘zdan iborat gaplar qo‘llaydilar. Bu «gap-so‘zlarda» bayon etilayotgan fikr ajratilmagan ko‘rinishda bo‘ladi. Ko‘pincha aqli zaif bolalar grammatik jihatdan to‘liq bo‘limgan gaplar tuzadilar. Ularda gapning tuzilishi qoidasi asosiy bo‘laklarni tashlab ketish hisobiga qo‘pol buziladi. Masalan, «Olmaxon daraxtda o‘tiribdi» o‘rniga «Olmoxon daraxt», «Bola televizor ko‘rdi» o‘rniga «Bola ko‘r» tarzda gapiradilar.

Aqli zaif bolalarni yozma nutqlari – murakkab ruhiy faoliyatdir. Og‘zaki nutqdan yozma nutqga o‘tish – bolalar nutqining rivojlanishida yangi davrdir. Aqli zaif bolalarning so‘zlarini tovush tomonidan tahlil qila olishlari grammatik qonun qoidalarni muvaffaqiyatli egallahshlarida asosiy vositadir. N.S.Rojdestvenskiyning ta’kidlashicha, «So‘zdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni

o‘qish va yozishga, keyinchalik to‘g‘ri yozishga o‘rgatish mumkin emas». Aqli zaif bolalarda o‘z kuchiga ishonch hosil qilmasdan turib, yordamchi maktablar o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erisha olmaydi. Buning uchun aqli zaif bola bilan uning kuchi yetadigan elementar ko‘nikma va malakalardan boshlash kerak. Bolalarning nutq faoliyatlari ham bundan mustasno emas. Yordamchi maktab o‘quvchilarida ayrimlarida uchrab turadigan «Oynali» yozuv ham qator qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladi. Qator aqli zaif bolalar yozuv malakalarini to‘g‘ri egallay olmaydilar.

G.A.Kashening ma’lumotiga ko‘ra, yordamchi mакtab 1-sinf o‘quvchilarining 65%, 2-sinf o‘quvchilarining 60% da u yoki bu darajadagi talaffuz nuqsonlari kuzatiladi. I.P.Kornevning kuzatishlaricha yordamchi mакtabga o‘qishga qabul qilinayotgan vaqtida aqli zaif bolalarning 60% turli talaffuz qiyinchiliklariga ega bo‘ladilar. Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar bartaraf etilganidan so‘ng ham aqli zaif bolalar tovushlarni alohida talaffuz eta olsalar ham bu tovushlarni mustaqil so‘zlashishda qo‘llay olmaydilar. Chunki, alohida tovushlarni talaffuziga qaraganda tovushlardan o‘zining faol nutqida foydalanish haqiqatdan murakkab faoliyatdir.

Aqli zaif bolalar bilan aloqa qilishda ular nutqining yetarlicha ifodali emasligi ko‘zga tashlanadi. Og‘zaki nutqning fonetik ifodaliligining asosiy vositasi bo‘lib jumlanı aksentli ajratish va jumlaning intonatsiyasi xizmat qiladi. Aqli zaif bolalarning og‘zaki nutqida ifodali vositalar juda zaif bo‘ladi. Ularning nutqi monotonligi, intonatsiyasiz keraksiz pauzalar bilan xarakterlanadi. Alovida hollarda potologik sekinlashgan, past yoki tezlashgan, qo‘zg‘algan bo‘ladi.

Aqli zaif bolalarda so‘zlar boyligi odatda juda sekinlashgan bo‘lishi kuzatiladi. Ular ko‘pincha doimo uchraydigan, yaxshi tanish bo‘lgan predmetlarning nomlarini ham bilmaydilar. G.L.Vigtoskiyning ma’lumotlaricha, aqli zaif 1-2 sinf o‘quvchilari lug‘atida asosan ot va fe’llar ustunlik qiladi. G.M. Dulnevning aqli zaif bolalar o‘z nutqida sifatlardan kam foydalanadilar, deb ko‘rsatadi.

Lug‘at zaxirasining kamligi aqli zaif bolalarga o‘z fikrini, his tuyg‘u va istaklarini aniq ifodalashga to‘sinqlik qilibgina qolmasdan, balki bir qator hollarda ularga qaratib so‘zlangan nutqni tushunishlariga halaqit beradi. Ko‘p hollarda ular bir so‘z bilan bir necha tushunchalarni «Umumlashtiradilar». Masalan, qushning

tumshug‘ini burni, ro‘molni-shapka va xokazo deydilar. Bir qator xollarda aqli zaif bolalar bir so‘z bilan bir-biriga yaqin predmetlarnigina emas, balki, ancha yiroq bir-biriga umuman yaqin bo‘lmaganlarni ham bir so‘z bilan ifodalaydilar. Masalan, qushning patini «soch» deb ko‘rsatadilar bunda aqli zaif o‘quvchilar muhim bo‘lmagan, faqatgina tashqi ko‘rinish, ba’zan esa u yoki bu sababga ko‘ra ko‘zga tashlangan o‘xhashlik asosida predmetlarni nomlaydilar. Bir tomondan predmetlar ikkinchi tomondan so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosligi aqli zaif bolalarda kuzatiladigan predmetlar aro differensiatsiyasi haqida ma’lumot beradi. Aqli zaif bolalarning ko‘pchiligi turli - tuman predmetlarni nisbatan oson tanib nomlaydilar. Ammo ob’ektlarning xususiyatlari o‘rtasida o‘xhashlik mavjud xollarda ularni nomlashda aqli zaif bolalar keskin qiyinchilikka uchraydilar. Aqli zaif bolalar tomonidan predmetlarning sifatlarini nomlashda ham so‘zlarni o‘rinsiz, keng ma’noda tushinish va qo‘llash holatlari kuzatiladi. Masalan, «katta» so‘zi orqali ob’ektning faqatgina katta – kichikligini emas, balki og‘irligi, uzunligi, qalinligi, balandligi va xokazolarni ifodalaydilar. Bunday xususiyatlar asosida aqli zaif bolalar tafakkur jarayonlari, xususan analiz va sintezning o‘ziga xosligi yotadi. Atrofdagilarning yetarlicha aniq idrok eta olmay, anglay olmasdan aqli zaif bolalar predmetlarni differensiatsiyalab nomlaydilar va umumlashgan, mavhum nomlar bilan chegaralanib qoladilar.

Aqli zaif bolalar nofaol lug‘atining faol lug‘atdan ustunligi kuzatiladi. (G.M.Dulnev). aqli zaif bolalarda so‘zlarning ko‘p qismi ularning nofaol lug‘atiga kiradi, nutqda esa ularning juda kam qismi qo‘llaniladi. Aqli zaif bolalar nutqini rivojlanishini tormozlaydigan asosiy omillardan biri bu kategoriyadagi bolalarga xos bo‘lgan ona tilining semantik tomonini o‘zlashtirib olishda yetishmovchilik hisoblanadi. Ma’lumki, bolalar tanish so‘zlarni ancha oson talaffuz qiladilar va ajratadilar. Demak, so‘zning ahamiyati bolaning fonematik eshitishni yo‘naltirish va tashkil etishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Umumiy rivojlanishdagi nuqsonlar aqli zaif bolalar tomonidan atrofdagilar pretmetlarni nomlab yoki harakatlarni bajarayotib talaffuz etayotgan so‘zlarni tushunishga to‘sinqlik qiladi.

So‘zlarning ma’nosini tushunishdagi nuqsonlar o‘z navbatida fonematik eshitishning rivojlanishini qiyinlashtiradi, shu bilan bola nutqini shakllanishini tormozlaydi.

Aqli zaiflikni keltirib chiqargan gidrotsefaliyada ba’zan nutq yaxshi rivojlangandek tuyulsada, aslida unday bo‘lmaydi. Bunday bolalarning nutqida juda murakkab jumlalar, so‘zlar bo‘ladi, ular nutqning grammatik tuzilishi ham juda murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu bolalarning fikr yuritishlari nasihatgo‘ydek tuyuladi. Nutqning mohiyatiga o‘zları yaxshi tushunib yetmaydilar. Bu bolalar nutqi yaxshi rivojlangan bo‘lsa ham aqli zaif bolalarning fikr yuritish quroli bo‘la olmaydi. Aqli zaiflikdagi bunday o‘ziga xos nutq juda kam uchraydi. Shizofreniya kasaliga uchragan aqli zaif bolalarning nutqi ham yuqoridagi holatga o‘xshab ketadi. Bu bolalarda nutq malakalari, tushunish holatlari, sog‘lom bolalardan ham tez shakllanishi mumkin. Ularning so‘z boyliklari normal bolalarnikidan kam farq qiladi. Ammo, ular nuqida buzilgan so‘zlar uchrashi mumkin. Bosh miya jarohatlarida, revmatizmda aqli zaif bolalarning og‘zaki nutqlarida sezilarli muhim o‘zgarishlar bo‘lmaydi, shu bilan birga, ularning yozma nutqlarida yetarli kamchiliklar uchraydi. Bunday bolalarning yozish malakalari juda sekin shakllanadi. Tutqanoq kasaliga mubtalo bo‘lgan bolalarning nutqi dastlabki ko‘rinishda aqli zaif bolalar nutqiga o‘xshaydi bu bolalar bir xil jumla, so‘zlarni qaytarishga moyil bo‘ladilar. Ular nutqida ortiqcha tutilishlar mavjud.

Yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek yordamchi maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 40-60% da turli nutq kamchiliklari uchraydi. Bu nuqsonlar orasida asosiy qismni tili chuchuklik, manqalanish, duduqlanish tashkil etar ekan. Aqli zaif bolalar nutqining aloqa vositasi sifatidagi ro‘li barcha tomonlardan zararlangan bo‘ladi. Bunda nutqning axborot, hissiy-iroda, boshqaruvchanlik vazifalari buzilgan bo‘ladi. Bunday bolalarda nutq bilan faoliyat orasida muvofiqlik ko‘zga tashlanmaydi. Nomuvofiqlik aqli zaif bola nutqi bilan uning xulqi orasida ko‘zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o‘zlarini nazorat qilish uchun ham o‘z nutqlaridan foydalana olmaydilar. A.R.Luriyaning ta’kidlashicha, sog‘lom bolalar bog‘cha yoshidayoq nutqdan nazorat quroli sifatida foydalana olar ekanlar.

Savol va topshiriqlar

1. Aqli zaif bolalarda nutq buzilishi turlarini aytib bering.
2. Nutq komponentlarini ochib bering
3. Aqli zaif bolalarda nutq kamchiliklarining kelib chiqish sabablari
4. Aqli zaif bolalar nutqining fonetik tomondan buzilishini misollar bilan asoslang.
5. Aqli zaif bolalar nutqining grammatik tomondan buzilishini misollar bilan asoslang.
6. Aqli zaif bolalarda lug‘at va bog‘langan nutqning buzilishi
7. Aqli zaif bolalarda yozma nutq buzilishlari.
8. Aqli zaiq bolalar nutq xususiyatlarini o‘rgangan olimlar ish tajribasidan misollar keltiring.

III.BOB. Aqli zaif o‘quvchilar shaxsi

3.1.Aqli zaif o‘quvchilar shaxsi va rivojlanish xususiyatlari.

Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta’sir o‘tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzdagи ijtimoiy fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Avstriyalik ruxshunos K.Byuller hatto bolaning axloqiy jixatdan o‘sishini ham irsiyatga bog‘laydi. Boshqa chet el ruxshunoslari bolaning ruxiy taraqqiyotida tana tuzilmalaridaga endokrin apparati (ichki sekratsiya bezlari) dagi o‘zgarishlar va hakozolar katta axamiyatga ega, deb biladilar. Ayrim ruhshunoslар orasida bolaga boshqacha qarash ham mavjud. Ularnig fikricha, insonning kamoloti ikki omilga – irsiyat va ijtimoiy muxitga bog‘liqdir. Irsiyat o‘zgarmaydi, ijtimoiy muxit ham xamma davrlar uchun o‘zgarmasdir. Irsiyat bor va biz biologik olimlarni inkor etolmaymiz. Lekin irsiyatni mutlaqo o‘zgarmas deb xam tushunmaslik kerak. Antropologiya fani yutuqlariga asoslanadigan bo‘lsak, tarixiy – ijtimoiy taraqqiyot natijasida odamning anatomik - fiziologik belgilar (odamning kalla suyagi, qo‘li, oyoqlari, aqliy qobliyatları ham) o‘zgarish

mumkin. Bu o‘zgarishlar avloddan – avlodga o‘tadi va toborga mustaxkamlanib boradi.

Demak, bola shaxsinnig rivojlanishiga naslning ta’siri deganda, ota – onaga, avlod – ajdodlarga o‘xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola ota – onasidan meros sifatida biologik ko‘rinishilarga ega bo‘lib dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Shuningdek, oliy nerv faoliyatining ko‘rinishlari (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik) ham tug‘ma o‘tadi, bu fiziologik xususiyatlardir.

Shaxsning rivojlanishida muxitning ta’siri. Psixologiya fanining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror – bir qobiliyatning ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi manbai – layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat o‘z xolicha rivojlnana olmaydi, u go‘yo “mudroq” holatida bo‘lib, uning uyg‘onishi – rivojlanishi uchun qulay muxit kerak. Muxit deganda kishiga etadigan tashqi voqealarning yig‘indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muxit, oila muhiti (mikromuxit) va boshqalar kiradi va ular bolalarning rivojlanishiga aloxida ta’sir etadi.

Agar bola o‘z tug‘ma layoqatiga mos sharoitda o‘sib, zarur faoliyat bilan shug‘ullansa, layoqat erta ko‘rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muxit bo‘lmasa, yo‘q bo‘lishi yoki “mudroq” ligicha qolib ketishi ham mumkin.

Bola tug‘ilishi bilan ijtimoiy hayot sharoitlari, tayyor ijtimoiy ong shakllariga duch keladi. U mexnat sharoitining ta’sirida o‘sadi, ulg‘ayadi. Kishilarning o‘zaro muloqatlari natijasida bolada nutq shakllanadi, o‘sadi.

Shaxs haqida tarif berilganda, rus psixologi S.Y. Rubinshteyning fikrlariga to‘xtalmoq kerak. Olimning ta’kidlashicha, odam o‘zidagi takrorlanmas xususiyatlarga ko‘ra individualdir. Odam o‘z atrofidagilarga, borliqqa bo‘lgan ongli munosabati, uning biror bir faoliyat bilan shug‘ullanishi esa uning shaxs ekanligidan dalolat beradi. Shaxs odamning atrofiga bo‘lgan munosabatlarini va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Odamning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari uning dunyo qarashida, ishonchlarida va boshqalarga bo‘lgan

munosabatlarida eng muhimi, uning faoliyatida ifodalanadi. Shaxs — bu ongga ega bo‘lgan, ma’lum ijtimoiy- iqtisodiy formatsida yashaydigan, ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanadigan individir. Shaxs tarkib topish uzoq, muddatli, murakkab va tarixiy jarayondir. Shaxs xususiyatlari ruxiy jarayonlarining kechishiga ta’sir etadi. Shaxsning yo‘nalganligi, qiziqishlari va boshqalar barcha ruxiy jarayonlariga tanlanganlik tabiatini kasb etadi. Shaxs xususiyatlari atrof-muhitni aks ettirishda ham ahamiyatga ega. Masalan, ayrim odamlar atrof-muhitni oson va tez idrok etsalar, boshqalar esa atrof-muxitni eshituv, harakat va boshqa analizatorlar yordamida idrok etadilar. Oligofrenopedagogikaning asoschilaridan biri E.Segen ta’kidlab o‘tgan aqli zaif bolalardagi “xohishning yo‘qligi” shaxs shakllanishida qator qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. L.V.Zankov ham aqli zaif bolalar shaxsidagi qator kamchiliklar haqida bat afsil ma’lumotlar beradi. aqli zaif bolalar shaxsidagi disgarmoniya, nomutanosiblik ular shaxsining rivojlanishidagi yetakchi kamchiliklardandir.

N.L.Kolominskiy tomonidan aqli zaif bolalarning shaxsiy sifatlarining shakllanishi yordamchi maktablarda qanday kechishini qator tajriba ishlari bilan tekshiradi. Bunda, aqli zaif bolalarga sinf jamoasining ta’siri masalalari ochib beriladi.

Savol va topshiriqlar

- 1. Shaxs tushunchasini izohlab bering.**
- 2. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi olimlar**
- 3. Shaxsning rivojlanishida muxitning ta’siri.**
- 4. Shaxs rivojlanishida tarbiyaning o‘rni**
- 5. Aqli zaif o‘quvchilarning shaxs xususiyatlari**
- 6. Aqli zaif o‘quvchilar shaxsi kamchiliklarini bartaraf etish usullari**
- 7. Aqli zaif o‘quvchilar shaxsi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rgangan olimlar tadqiqodlarini aytib bering.**
- 8. Aqli zaif o‘quvchilarda shaxsiy sifatlarning noto‘g‘ri shakllanish sabablarini aytib bering.**

3.2.Aqli zaif o‘quvchilarning shaxslararo munosabat xususiyatlari.

Shaxslararo munosabatlar insoniyat hayot faoliyatiniig zarur sharti bo‘lib, shaxsning yetuk inson sifatida shakllanishida, uning psixik funksiyalari, jarayonlari, psixik xususiyatlar rivojlanishidagi ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, bolaning psixik taraqqiyotida uning tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati va muloqotining ta’sirini xech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Shaxslararo munosabat masalasi insoniyatni ming yillardan buyon qiziqtirib kelayotgan muomalalardan biri hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida qadimda shaxslararo munosabatlarga ahloq va iymon nuqtai nazaridan qarash odat bo‘lgan. Ilk o‘rta asr buyuk mutafakkirlaridan biri - o‘z davrining «Muallimus - soniy» (ikkinchi muallim) deb nom olgan Abu Hacp Farobi (873-950): «Xar bir inson o‘z tabiatini bilan shunday to‘zilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muxtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirta olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga extiyoj tug‘iladi. Shu sababli, yashash uchun zarur bo‘lgan kishilarni bir-biriga o‘zaro yordamlashuvchi birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiatini bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvni mumkin», - deb ta’kidlaydi. Mutafakkir fikricha, insonlar hamkorlikda, birqalikda, jamoa bo‘lib yashash, bir-birlariga yordamlashish orqali o‘zaro mehr-muhabbat, xurmat-izzat va xaqiqiy baxtga erishishlari mumkin.

O‘zaro munosabatlardagi mehr-muhabbatning qudrati kuchli ekanligini, aksincha, ota-onas, farzandlar, qarindoshlar, odamlar o‘rtasidagi mehr-oqibatsizlik olamshumul fojia - oxir zamon belgisi ekanligi haqidagi fikrlar yirik mutasavvuf shoir va olim Xo‘ja Axmad Yassaviy hikmatlarining asosini tashkil etadi.

O‘rta asrning yana bir buyuk allomasi Abu Rayxon Beruniyning fikriga ko‘ra, agar kishi o‘zaro mutosabatlarda o‘zining muloyimligi, irodasi mustahkamligi, chidamliligi, kamtarligi, ulug‘vorligi bilan xalq orasida tanilib qolsa, u xurmat-izzat topadi¹⁹. Olimning ta’kidlashicha, ba’zan mard kishilar o‘z mulkini boshqaga berishdan to‘jonini boshqa birov uchun fido qilish darajasigacha boradilar.

¹⁹ Абдурахмон Жомий. Танланган асарлар. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991

Mohir sarkarda, odil va oqil davlat rahbari Amir Temur o‘zi bilan muloqotda bo‘lganlarga nihoyatda e’tibor berar, ularning hurmat-izzatini joyiga qo‘yishni atrofdagilardan ham qattiq turib talab qilar edi. U: «Kimniki huzurimga kiritgan bo‘lsalar va ko‘zim unga tushgan bo‘lsa xoliga yarasha xurmatlab, sovg‘a-salom bilan kuzatsinlar» - deb buyurgan. «Temyp tuzuklari» ni shox va uning amaldorlari uchun muloqot va munosabat qomusi, deb atash mumkin.

Shaxslararo munosabat va muloqot sohasidagi yana bir qomusiy asar Kaykovusning «Qobusnomasi»si bo‘lib, unda xar xil tabaqadagi, mansabdagilar, shuningdek ota-onva boshqa qarindoshlar bilan bo‘ladigan munosabatlarga ta’rif berilgan.

Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy o‘zining deyarli barcha asarlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy mezoni, mehr-oqibat, sofdillik, tenglik va do‘stlik ekanligini targ‘ib etgan. U o‘zi yashayoggan jamiyatdagi turli guruhlar, shaxslar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni, o‘zaro munosabatlardagi janjallarni va hamjixatlikka erishish uchun izlanishlarni qushlar to‘dasi timsolida ko‘rsatgan. Shoirning «Qush tili» asarida takidlashicha, jamiyatda har xil lavozim, mansab va tabaqadagi kishilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning asosiy sababi - ularni birlashtiradigan, jipslashtiradigan yetakchining yo‘qligidir.

Shuningdek Yusuf Xoc Xojibning «Qutadg‘u-bilig», Maxmud Qoshg‘ariyning «Devonul lug‘atit turk», Axmad Yugnakiyning «Xibatul xaqoyiq» asarlarida, Abulqosim Firdavsiy, Abu Abdullo Rudakiy, Nosir Hisrav Dexlaviy, Abduraxmon Jomiy, Maxtumkuli va boshqalarning dostonlarida qahramonlarning o‘zaro munosabatlarida insonparvarlik, do‘stlik va hamjixatlik hislatlari ulug‘langan.

Bolalik davrida tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning muhimligini amerikalik mashhur o‘quvchilar vrachi Benjamin Spok ham ko‘rsatib bergen. Uning fikricha, katga yoshdagi kishining oilada, ishda hamkorlik qila olishi boshqalar bilan qanchalik chiqishib ketishi, shu kishining bolalik chog‘ida tengqurlari, boshqa o‘quvchilar bilan qanchalik hamkorlik qilgani, chiqishib o‘ynaganiga bog‘liq.

Bolada atrofdagilar, kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarga kuchli ehtiyoj mavjud bo‘lib, bu munosabatlar yordamida bola muhim hayotiy tajribaga ega

bo‘ladi, atrof-olam, voqelik, jamiyat haqida bilim to‘playdi, o‘zini tengdoshlari bilan taqqoslash natijasida o‘ziga va boshqalarga baho berishga o‘rganadi. Tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarda bola o‘zining psixik qiyofasini go‘yoki «ko‘zgu» da aks ettiradi, o‘zaro munosabatlarda bola jamoada yashashga o‘rganadi.

Har bir shaxs ijtimoiy mavjudod bo‘lganligi sababli atrofdagi boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatga kirishmay turib mutlaqo yashay olmaydi. Inson shaxsining guruh va jamoadagi munosabatlarini ijtimoiy psixologiya fani o‘rganadi. Ijtimoiy psixologiya ta’limotiga ko‘ra, 2 xil guruh farqlanadi. Ulardan birinchisi shartli guruh, ikkinchisi esa haqiqiy, real guruhdir. Odamlarning ma’lum belgilariga qarab shartli guruhlar tashkil qilish mumkin. Masalan, yoshiga, jinsiga, millatiga, kasbga qarab tashkil etish mumkin. Ma’lum jamiyatda ishlab, odamlar bilan haqiqiy munosabatga kirishish yo‘li bilan hosil bo‘lgan guruhni real guruh deb ataymiz. Masalan, talabalar guruhi, ishchilar guruhi, oila va shu kabilar real guruhlarga misol bo‘la oladi. Shaxsning shartli va real guruhidan tashqari referent guruhi ham bo‘ladi. Har bir shaxs o‘z referent guruhiga ega bo‘ladi. Referent guruhdagi odamlar shaxsga har tomonlama yoqadi, shu sababli shaxs ularni xurmat qiladi va aytgan gaplariga qulq soladi. Masalan, o‘smir na ota-onasi, na sinf rahbarining gaplariga mutlaqo kirmasligi mumkin. Chunki o‘smirning ko‘chada o‘z referent guruhi bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyachi, sinf rahbari va ota-onalar bolalarning ishonchlarini qozonib, ular uchun referent guruh bo‘lishga harakat qilishlari zarur. Aqli zaif bolalar ham sog‘lom bolalar singari mehnat va o‘qish faoliyatlarida muomalaga kirishadilar. Sinfda o‘quvchilar faoliyat birligi, qarashlarning o‘xshashligi qiziqishlarining bir-birlariga mos kelishlari bilan muomalaga kirishadilar. Aqli zaif bolalar orasida shunday bolalar ham borki, ularning umuman o‘rtoqlari yo‘q, sinfdoshlari bilan xech qanday aloqasi bo‘lmagan hollar ham uchraydi. Maxsus matabning har bir o‘qituvchi va tarbiyachisi shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Shaxslararo munosabatlar mazmunini o‘rganish asosida har bir aqli zaif bolani to‘liq o‘rganish mumkin. Bu bilimlar ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yishda yordam beradi. Ushbu muammoga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishi G.Berdiev tomonidan amalga oshirilgan. Muallif o‘z tadqiqoti davomida sog‘lom va aqli zaif

bolalarning shaxsiy munosabatlari, guruqlar, yetakchilar, rasmiy va norasmiy yetakchilar bobida juda qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritgan.

O'quvchilarning dars va darsdan tashqari jarayonlarda o'zaro munosabatlarining qanday kechishi, sinf jamoasining ta'llim va tarbiyasida o'ta muhim rol, o'ynashi V.A.Suxomlinskiy, A.V.Mudrik, S.V.Kondratev, L.I.Novikovlarning izlanishlarida o'z aksini topgan. Ular o'z asarlarida o'quvchilar jamoasini shakllantirishda, bolaning shaxsi va ularning jamoaga qo'shilishlariga alovida e'tibor berish kerakligini ta'kidlaganlar. Mashhur rus pedagogi V.A. Suxomlinskiy o'z asarlarida o'quvchilar jamoasini shakllantirish, bola shaxsini rivojlantirish, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning taraqqiyotiga katta e'tibor bergen. V.A. Suxomlinskiy o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ko'p qirrali va to'la qonli bo'lishi uchun ularni boshlang'ich sinflardan boshlab jamoa bo'lib mehnat qilish, o'quv va boshqa faoliyatlar davomida bir-biriga yordam berishga o'rgatish ijobiy samara berishini ta'kidlaydi. Bunda o'quvchilarning birgalikdagi tabiat qo'yniga sayoxatlari, birgalikda qiziqarli kitob o'qishlari, birga qo'shiq kuylashlari va birga o'ynashlari ularni bir-birlariga yaqinlashtirishi, muloqotini boy qilishini unutmaslik lozim.

E.R. Saitbaeva tomonidan o'tkazilgan ko'zatishlar shuni ko'rsatdiki, rivojlanishida kamchiligi mavjud o'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini aniqlash uchun ularga har xil hissiyotdagi kishilarning rasmlarini ko'rsatganlar va bu odamlarning kayfiyatini bir ikki gap bilan ifoda etish taklif etilgan. Lekin rivojlanishida kamchiligi bor o'quvchilar bu jarayondagi kayfiyatni bir so'z bilan ifoda etganlar (jaxlli, xursand). Shu bilan birgalikda ular insonning hissiy holatini ham to'g'ri aniqlay olmasliklari aniqlangan masalan: ularga g'amgin odamning rasmini ko'rsatganda ular rasmdagi kayfiyatni batafsil bir necha so'z yoki gap bilan bayon qilib bergenlar. Bu tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, kichik yoshlardan boshlab shaxslararo tajribani kamligi bolaning hissiy rivojlanishiga, odamlar bilan muloqot malakasiga salbiy ta'sir etadi.

Bolaning nutq rivojlanishi uchun bolaga aziz, yaqin bo‘lgan kishilarning bola bilan muloqati muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-on, aka-uka va boshqalar bilan yaqin munosabat bolaning hissiy rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shu tariqa bola muloqat va shaxslararo munosabatga intiladi. Zamonaviy vositalar (radio, televideniya va boshqalar) xech qachon yaqin jonli muloqotning o‘rnini bosmaydi. Ayniqsa, bolalarning kattalar bilan muloqati va munosabati, ularning nutqini rivojlanishida keskin burilish yasaydi. Ota-onada yoki boshqa yaqin kishilardagi nutq kamchiliklariga taqlid qilish ham, oxir oqibatda shaxslararo munosabatlarga salbiy ta’sir etish mumkin. Aqli zaif o‘quvchilarda esa atrof muhitga nisbatan qiziqish kam bo‘ladi, faollik atrofdagi kishilarga qiziqish, sog‘lom o‘quvchilarga nisbatan sustroq bo‘ladi. Bola tug‘ilgandan keyin 14-18 oylik davri bola uchun eng xavfli davr bo‘lib bu davrdagi jismoniy hamda ruxiy, rivojlanishidagi salbiy ta’sir, bola nutqining rivojlanishini bo‘zilishiga olib keladi.

Aqli zaif bolalarda yuqorida keltirilgan rivojlanish belgilari sust namoyon bo‘ladi. Bola o‘zidagi nutq kamchilklarini sezgan holda iloji boricha ota-onasi, aka-ukalari, atrofidagilari bilan muloqotga kirishmaydi. Tengdoshlari bilan muloqotdan qochadi va ular bilan munosabati yetarli drajada bo‘lmaydi. Xatto o‘z ota-onasiga o‘z xoxish istaklarini qo‘li, bosh harakatlari bilan ko‘rsatadi. Begona kishilardan qochadi. Odamlardan qo‘rqadi.

Ko‘pincha yuqorida ko‘rsatilgan omillar ta’siriga, tadqiqotchi olimlar organizmning kuchsizlanishi (xar xil kasalliklar natijasida), bolaning ona qornidagi davridagi kasalliklar, bolaning ichki a’zolaridagi kasalliklar, ruxiy, moddalar almashuvining xar xil bo‘zilishlari sabab bo‘lishi mumkin, deb xulosa qilishgan.

Agar oilada bir necha bola bo‘lsa, aqli zaif o‘quvchilarda «rashk qilish» kuzatiladi, ya’ni, u onasini aka-opalari, ukalaridan rashk qiladi. Shunindek, bola nutqining to‘liq rivojlanmaganligi uning ruxiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir etib, uning rivojlanishini suslashtiradi. Natijada bolaning shaxslararo

munosabati qiyinlashadi, atrofdagilar bilan munosabatga umuman kirishmaydi. Bunday bolalar 1-3 yoshlaridan boshlab muloqotga intilmaslik va qiziqmasligi bilan ajralib turadi. Tengdoshlari bilan o‘ynamay ko‘pincha o‘z-o‘zi bilan o‘ynaydi. Bu o‘quvchilar ko‘proq o‘z ichki dunyosiga ega bo‘lib, boshqalar bilan shaxslararo munasabatiga kirishishi qiyin bo‘ladi.

Pedagoglar, psixologlar, defektolog va ota-onalar bolaning psixik rivojlanishdagi krizis davrining o‘ziga xos tomonlarini yaxshi bilishlari kerak bo‘ladi.

B.F. Lomov bilish jarayonida muloqot va munosabatning ahamiyatini ko‘rsatib, bu jarayon "sub’ekt-ob’ekt" darajasida emas, balki "sub’ekt-sub’ekt" darajasida amalga oshganda yuqori samara berishiga diqqatni qaratadi. B.F. Lomov rahbarligida o‘tkazilgan tadqiqotlarda shaxslararo munosabat va muloqotning bilish jarayonini kuchaytirishiga sabab topshiriklarni bajarish davomida tekshiruvchilarning o‘zaro ma’lumot almashishlari, faoliyatga birgalikda reja tuzishlari hamda bir-birlarini nazorat qilib borishlari ekanligi aniqlandi. Bunday o‘zaro hamkorlik natijasida so‘zlarni xotirada ixtiyoriy eslab qolish 97% ga, sonlarni eslab qolish 78% ga o‘sgan.

Shaxslararo munosabat va muloqot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ichida Y.L. Kolominskiy ishlari alohida o‘rinni egallaydi. Y.L. Kolominskiy o‘z asarlarida «Munosabat» va «Muloqot» tushunchalarini farqlash masalasiga e’tibor qaratadi. Muallifning fikricha, bu ikki tushunchani farqlash psixologiya va pedagogikada «strategik» ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsning o‘zaro munosabatlarini o‘zgartirish bilan muloqotni boshqarish mumkin²⁰. Y.L. Kolominskiy o‘quvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tizimini asosan sotsiometriya usuli bilan turli muhit sharoitida (sinfda, sinfdan tashqarida, maktabdan tashqari faoliyatlarda) tekshirgan. Shaxslararo munosabatlarda har bir shaxs bir yoki bir necha rollarni bajaradi. Yuzaki qaraganda buni aniqlash ancha murakkab, faqat jamoada o‘tkazilgan maxsus tekshirishlar yordamida guruhdagi "rad etilgan", "yakkalanib qolganlar" ni aniqlash mumkin. O‘quvchilar jamoasida "rad etilgan" va "yakkalanib qolganlar" toifasiga kirgan o‘quvchilar ham aslida tengdoshlari bilan doimo muloqotda bo‘ladilar.

²⁰ Коломинский Я.Л. Психология взаимоотношений в малых группах. – М., 2000

Tekshirishlar natijalarini chuqur tahlil qilish faqat ushbu o‘quvchilar birinchidan, o‘zлari istagan tengdoshlari bilan muloqot va munosabatlarga kirisha olmasligi; ikkinchidan, muloqot tashabbusi, faqat "izolyatsiyadagi" o‘quvchidan chiqishini ko‘rsatadi. Bunda ikkala vaziyat ham bola shaxsining barkamol shakllanishiga salbiy ta’sir etadi. T.G.Bogdanovaning fikricha, kishilar jamoa bo‘lib mehnat qilishlari, ta’lim olishlari, san’atda, ommaviy axborot vositalarida faoliyat ko‘rsatishlari uchun bir- birlariga extiyoj sezadilar va bunga intiladilar. Lekin faoliyat davomida ba’zilar hamkorlik, ba’zilar musobaqa, ba’zilar beparvolik, boshqalar esa qarshilik munosabatlarini namoyon kiladilar. Jamoa normal faoliyat ko‘rsatishi uchun esa jamoada psixologik vaziyat osoyishta, hamjixatlik, do’stlik va bir-biriga nisbatan xayriyohlik zarur. Jamoada bunday iqlimni tashkil etish uchun sinfda o‘qituvchining pedagogik maxorati, ishlab chiqarishda rahbarlarning boshqaruv san’ati, qobiliyati katta ahamiyat kasb etadi. Lekin bu omillar har doim ham xal qiluvchi rol o‘ynamasligi mumkin.

Kishini kishi tomonidan shaxs sifatida idrok etilganda, shaxs boshqa shaxsni sub’ekt sifatida o‘rganganda (boshqa shaxsga ob’ekt sifatida qaraganda) boshqa shaxsga nisbatan qiziqish, befarqlik yoki nafrat hissini sezishi mumkin. Sub’ekt sifatida u o‘z oldiga ma’lum vazifalar qo‘yadi va o‘z fikrini hamsuhbatga o‘tkazish uchun muloqot jarayoniga ta’sir etishga, uni boshqarishga harakat qiladi. Bir vaqtning o‘zida bu shaxs o‘zi bilan munosabatda bo‘layotgan kishiga nisbatan bilish-o‘rganish ob’ekti hisoblanadi, ya’ni munosabatlar vaqtida kimningdir ta’siri ostida bo‘ladi.

T.G.Bogdanova²¹ kishilarni ob’ekt va sub’ekt sifatida ta’riflar ekan, o‘zaro munosabatlarda o‘zaro moslik yoki mos kelmaslik asosiy, hal qiluvchi omil ekanligiga e’tibor qaratadi. O‘zaro munosabatlarga shaxsning intellekt darajasi, hissiy dunyosi, xarakteri, irodasi, dunyoqarashlari ta’sir etadi.

O‘smirlar va ilk o‘spirinlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar boshqa yosh bosqichlaridan ko‘ra, murakkab bo‘lib, I.Konning fikricha, bu yosh bosqichda qarama-qarshi tendensiya kuzatiladi. Bir tomondan o‘smirlarda, ilk o‘spirinlarda

²¹ Богданова Т.Г., Карнилова Т.В. Диагностика познавательной сферы ребенка. М., 1994

yolg'izlikka, yakkalikka, mustaqillikka (kattalarning nazoratidan chetga chiqishga intilish) istak katta bo'lsa, ikkinchi tomondan ularda albatta qandaydir jamoaga qo'shilish, tengdoshlar guruhidan o'ren olishga extiyoy kuchli bo'ladi. I.Kon tadqiqotlari o'g'il va qiz o'quvchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar va muloqotning kechishi bir xil emasligini ko'rsatdi. Qizlar bilan qizlar, o'g'il bolalar bilan o'g'il o'quvchilar o'rtasidagi va qarama-qarshi jinsdagi o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar bir-biridan farq qiladi. Bir qarashda turli yosh davrlardagi o'g'il o'quvchilarda muloqot va munosabatlar qizlarnikiga qaraganda faolroqdek ko'rindi. O'g'il bolalar qiziqarli o'yin uchun, xatto, o'ziga yoqmagan bola bilan ham o'ynashga tayyor, lekin o'yin o'z xarakteriga ko'pa ko'proq musobaqa, tortishuv tarzida janjalli kechishi mumkin. Qizlarda esa o'zaro munosabatlar passivroq kechadi, ammo ular o'ziga dugona, o'yinda sherikni saralab tanlaydi va shuning uchun ham ular orasidagi munosabatlar ancha do'stona bo'ladi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra o'g'il bolalar kichik yoshdan ekstensiv muloqotga, qiz bolalar esa intensiv muloqotga intiladilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jinslar o'rtasidagi va jinslararo munosabatlarning murakkabligi shundaki, ba'zan sinf jamoasida qarama-qarshi jinslardan iborat bir necha guruhlar paydo bo'ladi va bu psixologik iqlimga salbiy ta'sir etadi. Chunki bunday vaziyatda turli jinsdagi guruhlar o'rtasida nizolar kelib chiqishi mumkin. L.I. Umanskiy tomonidan bu muammo bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Uning fikricha, sinf jamoasidagi o'zaro munosabatlarning mustahkam bo'lishi uchun maqsadlar, motivlar, qadriyatlar va guruh a'zolari ahloq meyorlarning «yo'nalishi» da yaqinlik bo'lishi kerak.

Guruh yoki sinf jamoasining hamjixatligi guruhning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, ya'ni guruhda sog'lom mikroiqlim mavjudligi, guruh a'zolarining guruhdagi tashkiliy ishlardan mamnunligi (qoniqqanlik darajasi), guruhning o'z a'zolarini qanchalik faollashtira olish darajasi, guruh liderining gurux faoliyatini qanchalik maxorat bilan tashkil eta olishi bilan belgilanadi. Guruhda hamkorlikni amalga oshirish uchun L.I.Umanskiy ta'kidlaganidek, guruhning har bir a'zosida

yeterli bilim, malaka, ko'nikma va tajriba zarur, ya'ni gurux a'zolarining kommunikativ tayyorgarligi bo'lishi kerak.

L.I.Umanskiy tomonidan kommunikativ tayyorgarlikning 3 ta yo'nalishi ajartib ko'rsatilgan. Bular:

1. Intellektual kommunikativlik - bu shaxslararo bir-birini idrok etish va bir-birini tushunish jarayoni.

2. Hissiy kommunikativlik - bu shaxslararo aloqada his-tuyg'u va guruhda yuqori hissiy kayfiyatning mavjud bo'lishi.

3. Irodaviy kommunikativlik - bu guruhning qiyinchiliklarga chidamliligi, stresslarga qarshi tura olishi va ekstremal vaziyatlarda ishonchliligi.

L.I.Umanskiy tadqiqotlarining ko'rsatishicha, guruh a'zolari guruh faoliyati uchun eng zarur sifat «lider» tanlash va bu liderning jamoani boshqara olish qobiliyati ekanligini tushunadilar. Guruhning samarali faoliyati uchun u avvalambor jamoa a'zolari o'rtasida hamjixatlik va yetarli darajada ichki faollik zarur.

T.A.Repina va G.R. Strkina tadqiqotlarining ko'rsatishicha²², agar oilada bolaning tarbiyasi bilan shug'ullanadiganlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, bola shuncha bosiq, atrofdagilar bilan tezda chiqishib ketadigan, mexribon bo'ladi. Shuningdek, agar oila a'zolari bola tarbiyasiga yondashish masalasida hamfikr bo'lsalar, bunday oilada o'sgan bola mehnatsevar, intizomli bo'ladi, lekin ko'pincha kattalarning yordamiga muxtoj va mustaqil faoliyat ko'rsatishga kam intiladi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy muxit ta'sirida shakllanib boradi. Olimlardan L.I.Bojovich bu masalada qator ishlarni amalga oshirgan. Ijtimoiy xolatlar ta'sirida o'quvchilarda ma'lum tizimdagi intilishi va talablar rivojlanadi. Bu g'oyaga ko'ra, tug'ma biologik xususiyatlarning shaxsga ta'siri xam berilgan. Ammo, biologik xususiyatlar ma'lum shaxsning shakllanishiga ta'sir etadi, lekin belgilovchi rol o'ynamaydi.

Aqli zaif o'quvchilarning xulq-atvor xususiyatlari. Rivojlanish va hulqdag'i chetga chiqishlar sababining tahlili o'smirlarning aggressiv hulqini korreksiyalash

²² Репина Т.А., Стеркина Г.Р. Общение детей в детском саду и семье. -М., 1990.

maqsadidagi tarbiyaviy ishlar usullarini aniqroq belgilash imkonini beradi. Ruhiy buzilishlar rivojlanishning ma'lum bosqichlariga ega, mazkur bosqichlarni o'tish davomida ular yanada yorqinroq ifodalanadilar. Har qanday patologik alomatlar boshlang'ich belgilarga, yuqori pallaga, yakunlanish bosqichiga va qoldik alomatlarni o'z ichiga oladi. O'smirlik inqirozi davomida mazkur og'riqli davr tezligi ortadi, buning natijasida bosqichlarning biron bittasi juda qisqa bo'lishi yoki umuman kuzatilmasligi mumkin. Shuning uchun ko'pincha o'smirning agressiv hulqi uning yaqinlari, tanishlari va tengdoshlari uchun kutilmas, tushuntirib bo'lmaydigan bo'ladi.

Maxsus (korreksion) ta'lim maktablari o'quvchilarida kuzatiladigan hulq buzilishlarining shakllari umuman olganda, ommaviy maktab o'quvchilariniki kabidir. V.V.Kovalev, A.E.Lichko va boshqa mualliflar mazkur hulq buzilishlarining shakllari orasida quyidagilarni nomlaydilar, uydan, maktabdan qochish, ta'lim olishdan bosh tortish, maktab tartib-qoidalari va jamoat joylaridagi tartib buzilishlari, o'g'rilik, alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish, giyohvandlik, suitsid ko'rinishidagi hatti-harakatlar va boshqalar. Yordamchi maktab o'quvchilari ko'p hollarda jinoyat harakatlarini, jumladan guruhli jinoyatlarni sodir etadilar. Bularning barchasi ularning hulqidagi yuqori agressivlik sifatining namoyon bo'lishining isboti sifatida xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, normal intellektga ega va aqli zaif o'smirlarda agressiv hulqning namoyon bo'lishi tashqi jihatdan o'xshash va bir xil. Aqli zaif o'smirlarda mazkur belgilarning genezisi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular tashqi (oila, maktab, tengdoshlar bilan munosabat) va ichki omillar, ya'ni ruhiyatning o'ziga xosliklari (intellektning yetishmasligi, motivlarning mavjud emasligi yoki sustligi, ruhiy jarayonlarning inertligi, o'z-o'ziga singdirish, affektlar, mayllar, sezgilar va b.), bosh miya qobig'ining zararlanish xarakteri va uning neyrodinamikasi bilan belgilanadi. Hulq bilan bog'liq reaksiyalarning buzilishiga olib keluvchi o'zaro faoliyat ko'rsatuvchi tashqi omillar zanjirida hissiy-irodaviy jihat muhim ahamiyatga ega.

Agressiv hulq borasida to'xtaladigan bo'lsak, aniqlanishicha, o'smir yoshdag'i yordamchi maktab o'quvchilari orasida bunga sabab irodaviy sohaning yetuk emasligidir. Faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan motivlarning kurashi mavjud

bo‘lmaydi yoki sust ifodalangan bo‘ladi. Bir zumdagи istaklar, hudbin ehtiyojlarni darhol qondirishga bo‘lgan intilish hatti-harakatlar va faoliyatning boshqaruvchisi hisoblanadi. Agressiv hulqning namoyon bo‘lishida intellektual yetishmaslikning darjasи, ruhiy astenik belgilar, tanqidiy nazar darjasи, o‘smirning tarbiyalanganligи, temperament, oligofreniyaning shakli singari ichki omillar ham katta ahamiyatga ega. Mazkur ichki omillar aqli zaif o‘quvchini tashqi muhitning salbiy omillari ta’siriga ayniqsa beriluvchan bo‘lishi uchun vaziyat yaratadi. Agressiv hulq bolaning ijtimoiy muhitga moslashmaganligining ifodasi sifatida 11 yoshdan 14 yoshgacha ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. U nizolarni hal qilishdagi oilaviy mojarolarda, jismoniy jihatdan nimjon, o‘ziga nisbatan ishonchsiz, ota-onaning qaramog‘idan mahrum bo‘lganlarni do‘pposlashda namoyon bo‘ladi. Nisbatan kattaroq o‘smirlik yoshida agressiv hulq asosan yigitlarda namoyon bo‘ladi. Qizlarda esa u nisbatan kamroq uchraydi. Yigitlarda agressivlik quyidagi vaziyatlarda kuzatiladi: o‘zini bolalarga, kattalarga taqqoslaganda; alohida yoshlar guruhi o‘rtasidagi nizolarda; jismoniy kuch yordamida yoshlar guruhi orasida munosabatlarni aniqlashda. Kichkinalarga nisbatan agressiv hatti-harakatlar odatda ularni mazax qilish, turtkilash, musht tushirish, shaxsiy buyumlari va pulni olib qo‘yishda namoyon bo‘ladi. Agressiv hatti-harakatlar ayniqsa kuchli himoyachisi bo‘lmagan bolalarga nisbatan qaratiladi. Mazkur holatlarda agressivlik yosh va jismoniy kuch jihatidan ustunlikni namoyish etishning vositasi hisoblanadi.

Aqli zaif o‘smir bolalarning kattalarga nisbatan agressiv hatti-harakatlari odatda hulqdagi ijozat berilgan chegaralarni aniqlash maqsadiga qaratilib, demonstrativ xarakterga ega. Agressiv hatti-harakatlar tinchlikni buzish, kattalarga qarshilik ko‘rsatish, jamoat joylaridagi nizolar, jamoat mulkini buzishda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda o‘smirlar kattalarning harakatlarini diqqat bilan kuzatadilar va zudlik bilan ularga javob beradilar. Kattalar g‘azablangancha “bezorilarni tartibga chaqirish lozim”ligini talab qilganlarida yoki nizoli holatdan qo‘rqan holda ortga chekinganlarida vaziyat yanada murakkablashadi. O‘smirga kattalarning jig‘iga tegish yoqadi, hatto bunday hatti-harakatlar oqibatining jazosini nohaq deb ham

hisoblaydi, buning boisi esa o’smir mazkur “eksperiment” uni qay manzilga yetaklashini bilmaydi. Shu bois, mazkur holatlarda o’smirlar kattalarni ayblaydilar.

Ba’zi o’smirlarning agressiv harakatlari ma’lum bir insongagina qaratilgan bo‘ladi. Ko‘pincha bu yoshlar guruhi tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda aniqlanadi. Bunga o’smirlarda alkogolni iste’mol qilish natijasida mastlik holatining paydo bo‘lishi oqibatida yuzaga kelgan kuchli hissiyotlar turtki bo‘ladi. Bunday holatda o‘quvchilarda biron-bir g‘ayrioddiy, shum, jasur harakatni amalga oshirishga bo‘lgan intilish ortadi. Mazkur istak jismoniy jihatdan zaif, qariya, mast, qarama-qarshi jins vakillariga tajovuz ko‘rsatish orqali qondiriladi. O’smirlarning agressiv hatti-harakatlari alohida jamoalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Guruhdagi munosabatlarni boshqarishda ham agressivlik kuzatilishi mumkin. Bu yoshlarning aniq birlashmasida ma’lum bir tartibni belgilash yoki saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, uqtirishlarga nisbatan ikkilanuvchi va ishonchsiz “xoyinlarga” qarshi qaratiladi. Odatda bu norasmiy guruhlarning tashkil etilishi yoki barbod bo‘lishida bo‘ladi. Shavqatsizlik va agressiv hulq afsuski, hamisha o’smirlarning guruhli hatti-harakatlarining xarakterli belgilari bo‘lib qoladi.

O‘smirlik agressiyasi – ko‘pincha kechirilgan muvaffaqiyatsizliklar vaadolatsizlikning natijasidagi umumiyl darg‘azablik va quyi darajadagi o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatning natijasidir. Shafqatsizlikni yoshlik chog‘ida o‘zining hatti-harakatlariga javob berish va mustaqil tadqiqot o‘tkazish imkoniga ega bo‘lmagan, erkalatib yuborilgan, giper g‘amxo‘rlik qurbanlari bo‘lgan bolalar namoyon etib; shavqatsizlik ular uchun o‘ch olishning bir yo‘li, “Hamma meni kuchsiz deb hisoblaydi, men esa mana bularni bilaman” singari o‘zini namoyon qilish, va bir vaqtning o‘zida o‘z-o‘zini sinash yo‘lidir.

Aqli zaif o’smirlarning katta miqdori salbiy muhim omillariga ega bo‘lgan muammoli oilalarda tarbiyalanadilar. Aqli zaif o’smirlarda agressivlikning namoyon bo‘lish shakllari odatda quyidagichadir:

1. o‘quv faoliyati bilan bog‘liq qiyinchiliklarga nisbatan norozilik reaksiyasi va kompensator-himoya reaksiyasi;
2. mayllarning buzuqligi (seksual, o‘z jonini saqlash instinkti va b.)

3. psixomotor va affektiv qo‘zg‘alishda haddan ziyod faollik va o‘zini tutib tura olmaslik;

4. o‘zaro munosabatlardagi qiyinchiliklarga nisbatan qarshilik reaksiysi;

5. taqlid qilish xarakteridagi hatti-harakatlar va reaksiyalar;

6. guruhli birdamlikning namoyon bo‘lishi;

Afsuski bugungi kunda jamiyatda bolalar tarbiyasi borasida shakllangan tizim, ularga doir talablar, kattalarning ulg‘ayib kelayotgan avlodga nisbatan munosabati, ularning shaxs sifatida shakllanishining o‘ziga xosliklarini hisobga olmaslik, buning natijasida esa kattalarning mustaqillik, o‘z-o‘zini namoyon etish, g‘amxo‘rlikdan qutilish istagi bo‘lgan o‘smirlar bilan munosabatlarga kirishishdagi nizolarga olib keladi. O‘zini va atrofdagilarni tanqidiy baholab, o‘smir kattalarning ikkiyuzlamachiligiga, ular tomonidan sodir etiladigan, ba’zan yolg‘onchilikdan holi bo‘lmagan hatti-harakatlariga qarshi norozilik ko‘rsatadi. Har qanday o‘smir, intellektual rivojlanish darajasidan qat’iy nazar, jumladan aqli zaif o‘smir ham nafaqat oddiygina e’tiborga, balki kattalarning tushunishi, ishonchiga ehtiyoj sezadi. O‘smirning nafaqat tengdoshlari orasida, balki kattalar orasida ham ma’lum o‘rinni egallashga intilishi tabiiy holat. Kattalarning jamiyatida esa o‘smirning ijtimoiy faolligining rivojlanishiga to‘sinqlik qiluvchi “u bola, u o‘z o‘rnini bilishi kerak va kattalarga quloq solishi kerak” degan pozitsiya mustahkamlangan. Natijada kattalar va o‘smirlar o‘rtasida to‘sinq ortib boraveradi, mazkur to‘sinqni yengib o‘tishga intilgan ko‘pgina o‘smirlar esa avvalo, hulqning aggressiv shakliga murojat etadi. Agressiv hulqning mohiyatiga doir to‘liq tasavvurni uning motivatsiyasini tahlili beradi. Mazkur motivatsiyadagi sezilarli o‘rinni jahl, qo‘rquv, o‘ch, adovat va sh.o‘. negativ xarakterga ega hislar va hissiyotlar egallaydi.

O‘smirlilik yoshidagi bolalarning mazkur hissiyotlar bilan bog‘liq bo‘lgan aggressiv hulqi o‘zaro mushtlashish, kaltaklashish, haqorat, tan jarohatlarini yetkazish, odam o‘ldirish, nomusga tegish, mulkka zarar yetkazish yoki yo‘q qilish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Har qanday hatti-harakatni, jumladan aggressiv hulqni baholash uni biron-bir norma bilan solishtirishni nazarda tutib, muammoli hulq, uningko‘rinishi bo‘lgan aggressiya odatda deviant, chetga chiqqan deb yuritiladi. Mazkur hulq ikki

katta toifaga bo‘linadi. Birinchidan, mazkur hulq yorqin yoki berkingan psixologiyaning mavjudligini nazarda tutadi. Ikkinchidan, bu biron-bir ijtimoiy va madaniy, ayniqsa huquqiy normalarni buzuvchi antijitmoiy hulqdir. Bunday harakatlar arzimas bo‘lsa, ularni huquqbuzarlik deb nomlaydilar, jiddiy bo‘lgan holatda va jinoiy javobgarlikka tortilish darajasida bo‘lsa, jinoyat deb nomlaydilar. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, o‘s米尔arda agressivlik asosan jamiyatda egallab turgan o‘rnidan qoniqmaslik sabab, kattalarning tushunmasligiga nisbatan norozilik ko‘rsatish shakli sifatida shakllanadi.

Shu bilan birga o‘sмirda agressivlikning rivojlanishiga temperamentning tabiiy o‘ziga xosliklari, masalan, jizzakilik, jirtakilik, o‘zini tutib tura bilmaslik kabi xarakter belgilarining shakllanishiga ko‘maklashuvchi hissiyotlarning qo‘зg‘aluvchanligi yoki kuchi ta’sir etishi mumkin. Tabiiyki, frustratsiya holatida bunday ruhiy qurilmaga ega bo‘lgan o‘smir ichki zo‘riqishdan chiqish yo‘lini izlaydi, jumladan mushtlashish, haqorat va b. Bundan tashqari, agressiya o‘smir mushtlashish yoki hech bo‘lmaganda, og‘zaki tahdidlardan boshqa davo chorasini ko‘rmagan vaziyatlarda o‘zini himoya qilish yoki o‘z ehtiyojlarini qondirish zaruriyati bilan paydo bo‘lishi mumkin. Zero, ba’zi o‘s米尔lar uchun mushtlashishlarda ishtirok etish, atrofdagilar ko‘zida o‘zini mushtlar ko‘magida tasdiqlash, hulqning mustahkamlangan yo‘li hisoblanadi. Aqli zaif o‘s米尔arda bu obro‘li va nufuzli hisoblanadi, chunki ular har doim ham mavjud ijtimoiy qimmatliklarni adekvat ifodalash va anglash imkoniga ega bo‘lmaydilar. Ya’ni o‘smirlilik yoshida ulg‘ayib kelayotgan o‘s米尔arning o‘ziga xosliklarining murakkabligi va ziddiyatlari, rivojlanishning ichki va tashqi shart-sharoitlari hisobiga, shaxs shakllanish jarayonining normal kechishiga to‘sqinlik qiluvchi vaziyatlar paydo bo‘lishi mumkin. Ular esa o‘z navbatida agressiyaning paydo bo‘lishi va namoyon bo‘lishi uchun ob’ektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

Savol va topshiriqlar

1. Shaxslararo munosabat deganda nimani tushunasiz?
2. Shartli, real, referant guruhlar

3. Kommunikativ tayyorgarlikning yo‘nalishlari
4. Aqli zaif o‘quvchilarning shaxslararo munosabati xususiyatlari nimalardan iborat
5. O‘smir va o‘spirin o‘quvchilarning o‘zaro munosabat xususiyatlari
6. Aqli zaif o‘quvchilarning xulq-atvor xususiyatlari
7. Aqli zaif o‘smirlarda agressivlikning namoyon bo‘lish shakllari
8. Aqli zaif o‘quvchilarda shaxslararo munosabat kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llari

3.3.Aqli zaif o‘quvchilarning xissiy-irodaviy xususiyatlari.

Iroda — odamning o‘z faoliyati va psixik jarayonlarini o‘zi boshqarishda namoyon bo‘ladigan qobiliyati. Inson irodaviy harakatini amalga oshirar-kan, o‘ziga xukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: iroda uchun "men xohlayman" degan kechinma emas, balki "kerak", "bajarishim shart" degan kechinma xosdir.

I r o d a - bu shunchaki, istak va uning qondirilishi emas, balki bu ham istak, ham uni to`xtatish, ham istak, ham ayni vaqtda undan voz kechishdir.

Iroda o‘zaro bog`liq ikkita vazifaning - undovchi va tormozlash (to`xtatuvchi) vazifalarning bajarilishini ta`minlaydi va ularda o`zini nomoyon qiladi.

Bevosita irodaviy harakatga undaydigan sabablar, ehtiyojlar, uning motivlari va maqsadlari, ishtiyoqlari, istaklari va hokozolari kiradi.

Bo`lar aniq bo`lsa, bunday intilish istak deyiladi. Anglanmagan intilishlar havaslar deb ataladi. Havas istakka qaraganda kishining irodaviy yordamini kamroq oladi va shu sababli havasning maqsadi ko`pincha real amalga oshmaydi.

His-tuyg`ular irodaviy harakatlarga undaydigan muhim sababdir. Ular qiyinchiliklarni engishga, o`z oldiga qo`yilgan maqsadga sabot bilan erishishga undaydi.

Irodaviy sifatlarni tarkib toptirishda mehnatning ahamiyati katta.

Kishining qaror topgan qarashlari, dunyoqarashi, irodaviy xulq -atvorning muhim sababidir. Irodaviy jarayonlar oddiy va murakkab bo`ladi. Oddiy - kishi hech ikkilansdan ko`zlagan maqsad sari boradi, u nimaga va qanday yo`l bilan

erishajagini aniq biladi. Murakkab - maqsadni tanlashga ikkilanish, harakatni tanlashga qiynalish.

Maktabgacha va maktab yoshdagi bo'lgan aqli zaif bolalardagi emotsional-irodaviy o'zgarishlarning o'ziga xosligini o'rganish pedagogika va psixologiyaning dolzarb masalalaridan biridir. Psixologiya aqli zaif bolalarning psixik rivojlanishidagi o'ziga xoslikni o'rganadi. Bu sohada V.S.Merlin, A.P.Usanova, L.M.Solovyov, J.I.Shif kabi olimlar o'z kuzatuvlarini olib borganlar.

Emotsional – irodaviy o'zgarishlar psihik hayotning ilk ko'rinishi va shaxs shakllanishining “markaziy zanjiri” hisoblanadi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif o'quvchilarda emotsional- irodaviy yetishmovchilikni maxsus ta'lif va tarbiya asosida to'ldirish mumkin.

Shaxsning shakllanish jarayonida muhim o'rinni egallaydi va ancha murakkab tarkibga ega bo'ladi. Inson o'z oldiga qoygan maqsadi, bu yo'ldagi uchraydigan qiyinchiliklar va maqsadga erishish usullarida irodaning o'rni beqiyos. L.S.Vigotskiyning bildirishicha, emotsiya individning tashqi muhit bilan munosabatini baholashning mahsulidir.

Olimlar va amaliyotchi mutaxasislarning tadqiqotlariga ko`ra, aqli zaif bolalarning emotsional-irodaviy sohadagi kamchiliklarni maxsus o'qitish bilan korreksiyalash mumkin.

Aqli zaif bolalarning emotsional rivojlanishi ko`p jihatdan tashqi sharoit ya`ni maxsus ta'lif berish va hayotni to`g`ri tashkil qilishdagi kabilar bo'ladi. Aqlan zaif bolalarning emotsional sohasi ularning rivojlanmaganligi va zaifligi bilan harakterlanadi. Bunday bolalarning emotsiyalari qiyin, yetarlicha differensiyalashmagan, emotsiyalarning nozik tuslaridan mahrumlanib, yuzaki va mustahkam emas hamda tez o'zgaruvchan ya`ni hissiy holatlari faqatgina yuzaki yoki shodlik yoki g`amlik ko'rinishida bo'ladi. Hissiy holatlar: qiziqish, hayratlanish, iztirob chekish, nafratlanish, jirkanish, uyalish holatlari to`laqonli rivojlanmagan bo'ladi.

Ziglerning ta'kidlashicha aqli zaif bolalar hayot tajribalari davomida haddan ortiq muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy yo'qotish, stigmatizatsiyalar (asosan ta'lif

jarayonidagi zaifliklar) va institutsionalizatsiyalarga duch kelishadi. Biroq bunday hayotiy tajribalar aslida aqli zaiflining bir qismi emas, balki jamiyatning unga bo’lgan munosabati natijasidir.²³

Aqli zaif bolada kattalar bilan salbiy kechinmalar shu qadar ko’pligidan, u begonalar bilan yetarli darajada ehtiyotkor munosabatda bo’ladi, shu jumladan, ko’plab tadqiqotchilar bila ham ijtimoiy yetishmovchiligi (muhtojligi) sababli bola kattalarning e’tiboriga tashna bo’ladi. Shu sababdan shunchaki ijtimoiy mustahkamlikka erishish uchun bola me’yorda rivojlanayotgan bola uchun zerikarli bo’lgan vazifalarni ham uzoqroq vaqt bajaradi. Aqli zaif bola o’z aqliy darjasini uchun haddan tashqari qiyin muammolarga duch kelaverganidan o’z imkoniyatlariga ishonmay qo’yadi va o’zining zaif nuqtalarini qidira boshlaydi. Shaxs sifatlarining eng muhim iroda bo`lib, u ongli va maqsadli hatti-harakatlarda namoyon bo`ladi. Aqli zaif bolalarda irodaviy harakatni har kuni bajarishga to`g`ri keladi, chunki ularga turli talablar qo`yiladi.

Bola kun tartibiga rioya qilishi, darslarda intizomli bo`lishi talab etiladi. Bunday bolalardan bu kabi talablarni bajarishda normal bolalardan ko`ra ko`proq harakat talab qilinadi. Aqli zaif bolalarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish ko`makchi muassasalar tarbiyachilarining uzoq va malakali mehnati natijasida amalga oshiriladi.

Aqli zaif o‘quvchilarning asosiy kontingenti ota-onasiz, to‘liq oilaga ega bo‘limgan bolalar tashkil etadi. Bunday bola o’z oilasi bilan to‘liq muloqatdan mahrum bo’ladi, bu uning shaxsini shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kech tashxis qo‘yish, maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarining noto‘liq tizimi, ichki oilaviy murakkabliklar qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu aqli zaif bolaning atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan muloqatiga ham o’z ta’sirini ko‘rsatadi.

²³ Donald K. Routh, Editor The experimental psychology of mental retardation 2006 Mazmun mohiyati olingan

Inson shaxsi ijtimoiy tarixiy rivojlanish mevasidir. U atrof - muhit bilan aloqadorlikdagi bir qancha munosabatlar jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola shaxsi aqliy to‘liqsizlik hisobiga o‘ziga xos shart-sharoitni talab etadi.

Aqli zaif bolalarning o‘z-o‘zlariga baho berish xususiyatlari

Shaxs shakllanishining asosiy omillaridan biri – aqli zaif bolalarning o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri baho berish xislatlarining shakllangan bo‘lishidir. Baholashga kishilar, narsalar, holatlar jalb etilishi mumkin. O‘z-o‘zini baholashda kishining o‘z aloqalarini, harakatlarini, sifatlarini, qilgan ishlarini, yutuqlarini baholash tushuniladi. O‘z-o‘zini baholashning shakllanishi atrofdagilarning baholashlari, o‘z faoliyat natijalarini ko‘rishlari natijasida amalga oshib boradi. O‘quvchilarda o‘z-o‘zlarini baholashlari turli topshiriqlarni bajarish jarayonilarida to‘planib boradi. Bu jarayon bolalar ish faoliyatining natijalarini baholab boruvchi o‘qituvchining ro‘li juda katta. Aqli zaif bolalarda o‘zlarini anglashlari birmuncha pasayganligi sababli, ish natijalarini ham birmuncha noto‘g‘ri baholaydilar. Shuning oqibatida o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri tahlil qila olmaydilar. Bularning barchasi aqli zaif bolalarda o‘z-o‘zlariga baho berishning o‘ziga xos shakllanishiga olib keladi. Maxsus tekshirishlar natijasida yordamchi mакtablarning turli sinflarida bolalarning o‘z-o‘zlarini baholashlari haqidagi ma’lumotlar olingan. Kichik sinflarda o‘z-o‘zlariga baho qo‘yish ba’zan past, ba’zan esa yuqori bo‘lar ekan. O‘rta sinflardagi o‘z-o‘zlariga baho berishlari birmuncha o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri kelar ekan. Yuqori sinflarda esa, o‘z-o‘zlariga baho berish nisbatan yuqori bo‘lar ekan. Kichik sinflardagi o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarga to‘g‘ri baho bermaslikning sababi, birinchidan shaxsning shakllanmaganligi, faoliyat maqsadlarini tushunmaslik, mehnat natijalarini to‘g‘ri tahlil qila olmasliklaridir. Yuqori sinflardagi o‘quvchilar o‘z imkoniyatlariga yuqori baho berishning asosiy sabab, o‘zlaridagi nuqsonni kamaytirish va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olmaslikdir. Nuqsonli bolalarda nuqson mazmuniga ko‘ra o‘z imkoniyatlariga yuqori va past baho berish xosdir. Bosh miyada qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari birmuncha turg‘un bo‘lgan oligofrenlarda ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘z

imkoniyatlariga to‘g‘ri baho berish hollarini ko‘rish mumkin. Hissiy jihatdan birmuncha “kambag‘al” bo‘lgan aqli zaif bolalarda har qanday murakkablikdagi topshiriqlar bilan ulardagи noto‘g‘ri tasavvurlarini to‘g‘rilash qiyin. Shuning oqibatida aqli zaif bolalar o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri rejalashtira olmaydilar, faoliyat natijalarini ko‘ra bilmaydilar. Umuman baho va o‘z-o‘zini baholash aqli zaif bola shaxsining tuzilishida eng asosiy qismni tashkil etadi.

L.I.Bojovich ma’lumotlariga ko‘ra, to‘g‘ri shakllangan o‘z-o‘ziga baho berish shaxs shakllanishining yetakchi omillaridan biridir. Shu sababli, yordamchi maktab o‘qituvchilari bu muammoga oid bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishlari talab etiladi. O‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri baho berish kattalar tomonidan amalga oshirilib boriladi. Agarda aqli zaif bolalar o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri tahlil qila olmasalar, atrofdan uning faoliyat natijalariga qo‘yilgan baholar salbiy yo‘nalish kasb etadi. Agarda bola oilada ko‘proq ijobjiy baholar olib yurgan bo‘lsa, bu bolalar mакtabga kelgach, biror salbiy baho olishlari ularda qator noto‘g‘ri xulq xislatlarining shakllanishiga olib keladi. Bu bolalar tez xafa bo‘ladigan, yig‘loqi, qaysar bo‘lib qoladilar. Agarda bunday salbiy xulq shakllari uzoqroq saqlansa, bular shaxsning turg‘un sifatlariga aylanib qoladi. Sog‘lom bolalarga oid bo‘lgan bunday ma’lumotlar aqli zaif bolalarning qator xususiyatlarini tushunishiga yordam beradi. Aqli zaif bola hali mакtabga bormasdan, oilada o‘z imkoniyatlariga nisbatan yuqori baho olganlar. Ota-onalar bolalarining ozgina yutuqlarini ham yuqori baholashib, maqtashgan. Bolalarning bog‘cha, mакtabga kelishlari bilan qator ko‘ngilsiz voqealar boshlangan. Chunki bolaning oilada olgan “yuqori” baholari endi kuzatilmaydi. Bolalar o‘z imkoniyatlariga yarasha baho oladilar. Sodda, lekin qimmatli metodika bo‘lgan De-Greefe bilan yengil darajadagi oligofren bolalarning o‘z-o‘zlariga baho berishlari tekshirilgan. Bunda bolalarga uchta aylana ko‘rsatilib, doskada shu aylanalardan qarab chiziqcha chizish so‘ralgan. Bolalarga birinchi aylana shartli tarzda o‘qituvchi, ikkinchi aylana bolaning o‘rtog‘i, uchinchi aylana bolaning o‘zi deb tushuncha berilgan. Tekshirilayotgan bolalar yuqoridagi “aylanalar” ning qaysi birini aqlli deb sanasalar o‘sha aylanadan pastga qarab

uzunroq chiziqcha chizishni, o‘rtaroq aqli “aylanaga” o‘rtacha uzunlikdagi chiziqcha chizishi va nihoyat aqlsiz “aylanaga” qisqa chiziq chizishni so‘ragan. Tabiiyki, aqli zaif bola eng uzun chiziqchani o‘zining aylanasidan pastga qarab chizgan. Bunday aqli zaif bolalarning o‘zlariga yuqori baho qo‘yishlarini L.S.Vigotskiy muallif nomi bilan atashni taklif etgan. Muallif De-Greefening quyidagi xulosasi bilan kelishadi. Aqli zaif bolalardagi o‘z imkoniyatlariga yuqori baho berishining sababi, ulardagi umumiyligi aqliy taraqqiyotning buzilganligidir. L.S.Vigotskiy muallif fikrlarini to‘ldirib, aqli zaif bolalardagi o‘zlariga yuqori baho berishlari faqatgina aqliy yetishmovchilik bo‘lib qolmasdan, balki yana bu bolalar uchun baho ularning hissiy kamchiliklarining yorqin ko‘rsatkichidir. Balki boshqa yana biror mexanizm bordir deb ta’qidlaydi muallif. Balki, o‘zlariga yuqori baho berish hollari ularga atrofdagilarning qo‘yayotgan past baholariga javoban ko‘rsayotgan soxta kompensatsiya qilish xarakterologik mahsulidir. De-Greefening o‘ziga xos kamchiligi shundaki, uning fikricha, aqli zaif bolalar o‘zlarini kamchiliksiz deb hisoblaydilar va shuning orqasida o‘z kamchiliklarini yo‘qotishga intilmaydilar. L.S.Vigotskiy bevosita shu kamchilikni aqli zaif bolalarning sezishlari orqasida, bu bolalar shu kamchiliklarning o‘rnini to‘ldirish maqsadida, o‘zlariga yuqori baho beradilar, deb uqtiradi. Tekshirishlarning ko‘rsatishicha, yordamchi mакtab 2-sinf o‘quvchilarining o‘z imkoniyatlariga baho berishlari, shu sinf ommaviy maktab o‘quvchilarining baholaridan birmuncha ustun ekan, bu farq 4-6 sinflarda birmuncha pasayib borar ekan. 8-sinfga kelib esa, yana aqli zaif bolalarning o‘z imkoniyatlariga baho berishlari ortib borar ekan. Bu natijalar L.S.Vigotskiy nazariyasi bo‘yicha tushuntirib berilishi mumkin. Boshlang‘ich sinf bolalari affekt natijasida o‘zlariga yuqori baho bersalar, bu baholar sekin-asta bolalar ulg‘aygan sari kamayib boradi. Yuqori sinflardagi o‘zlariga yuqori baho berish esa, soxta kompensatsiya qilish natijasi bo‘lsa ajab emas. Ayrim aqli zaif bolalarning baholarga nisbatan turli xil munosabatlari, bu bolalarga baholash jarayonining o‘zi, nazorat qilish hollari salbiy ta’sir etadi. Shu masalaga oid B.I.Pinskiyning maxsus tajriba ishlari bor. Muallifning ta’qidlashicha, “baholash

holati” dagi bajarilgan ishlarning natijalari birmuncha sifatsiz bo‘lar ekan. Xatto, bu kabi kamchiliklar sog‘lom bolalarda ham uchraydi. Ma’lum bo‘lishicha, aqli zaif bolalar nazorat ostida ishlaganlarida xatoliklar soni ortar ekan. Ammo ish tezligi o‘zgarmas ekan. Lekin sog‘lom bolalarga nisbatan aqli zaif bolalarda baholash jarayonidan manfaatdorlik hislari birmuncha kam bo‘ladi. Shu sababli, aqli zaif bolalar ish natijalarini baholash vaqtlarida differensirlashgan holda yondashish talab etiladi. Aqliy nuqson chuqurlashgan sari, o‘zlariga baho berish ortib borish xususiyatiga ega bo‘lib borar ekan.

Shaxs yo‘nalganligining bir tomoni o‘zlariga baho berishdir. Agarda aqliy nuqsonli bolalarga mos bo‘lmagan holda yuqori baho qo‘yilsa, uning o‘ziga xos salbiy oqibatlari bo‘lishi mumkin. Meyordan ortiqcha o‘zlariga ishonish, tanqidsizlik, yalqovlik, xudbinlik shular jumlasidandir. Aqli zaif bolalarga bahoning pasaytirib qo‘yilishi natijasida ham ba’zi salbiy xislatlar kelib chiqar ekan. Buning oqibatida o‘z kuchlariga ishonchsizlik, tashabbussizlik, o‘zi bilan o‘zi o‘ralashib qolish hollari ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, noto‘g‘ri baho aqli zaif bolalar shaxsiga salbiy ta’sir etadi. Buning oqibatida kuyinish, atrofdagilar muomalasidan qoniqmaslik holatlari yuz beradi.

A.Shtroymayyor ta’qidlashicha, aqli zaif bolalar o‘zlariga yuqori baho berishib, ba’zan sog‘lom bolalar bajarishga ikkinlangan narsalarni bajarishga urinib ko‘radilar. L.V.Zankovning 1963 va B.V.Zeygarnikning 1971 yillarda o‘tkazgan tajriba ishlarining isbot etishicha, aqli zaif bolalarda o‘zlariga baho berish sekin shakllanar ekan. Oligofren bolalarga xos bo‘lgan o‘zlariga yuqori baho berish S.Y.Rubinshteynning ishlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zlariga baho berishning shaxsiy sifatlar bilan bog‘liqligini psixologlardan Ye.A.Serebryakova (1956), B.V.Zeygarnik (1969), N.G.Kalita (1971), J.M.Glozman (1983) J.I.Namazbaeva o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rsatib o‘tishgan.

Aqli zaif bolalar shaxsi va shaxslararo munosabatlarini “Sotsiometriya”, “Dembo-Rubinshteyn S.Ya.”, “De-Greefe”, “Rene Jile” metodikalari yordamida tekshirish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Iroda tushunchasini izohlab bering
2. Faollik bilan bog‘liq bo‘lgan iroda sifatlari
3. Nomaqbul psixik jarayonlar va harakatlarning tormozlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan iroda sifatlari
4. Aqli zaif o‘quvchilarning emotsional rivojlanish xususiyatlarini ochib bering.
5. Aqli zaif o‘quvchilardagi o‘zlariga baho berish xususiyatlarini aytib bering.
6. Aqli zaif bolalarning xissiy-irodaviy xususiyatlarini o‘rgangan olimlarni ko‘rsating.
7. L.I.Bojovich, B.I.Pinskiyning tadqiqot ishlarini ochib bering.
8. Aqli zaif o‘quvchilar xissiy-irodaviy xususiyatlari kamchiliklarini bartaraf etish usullari

3.4.Aqli zaif o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga munosabati

Faoliyat deganda tirik organizmni o’z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faolligi tushuniladi. Faoliyat bu insongagina xos bo’lgan ong bilan boshqariladigan, olamni bilishga qaratilgan ehtiyojlarni qondirish va olamni xamda o’z-o’zini o’zgartirishga yo’naltirilgan faolligidir.

Faoliyat muammosi bevosita organik jihatdan shaxs va ong muammosi bilan bog‘likdir.

Inson faoliyati rang-barangdir. Faoliyat natijalariga ko’ra an’anaga asosan uni amaliy yoki nazariy turlarga bo’lish mumkin.

Har qanday faoliyat ma’lum bir g‘oyani hayotga tadbiq yetib u nazorat va boshqaruvni talab yetadi.

Kishi faoliyati ongli ravishdagi faollik sifatida uning ongi shakllanadi va rivojana borishi tufayli tarkib topadi. Faoliyat hamisha kishining boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlari sistemasida yuz beradi. U boshqa odamlarning yordami va ishtirokini taqazo yetadi, ya’ni birgalikdagi faoliyati xususiyatiga yega bo’ladi. Faoliyatda kishining faqat narsalarga munosabati

emas, balki uning boshqa odamlarga bo'lgan munosabati ham doimo o'z ifodasini topadi. Faoliyatda kishining shaxsi ifodalanadi va ayni chog'da faoliyat uning shaxsini shakllantiradi.

A.S.Makarenko faoliyatning shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchani tarbiyaviy ishini o'zi yaratgan nazariyasi va amaliyotiga asos qilib olgan edi. U shunday deb yozgan edi: "Men bolalarning hayoti ma'lum bir odatlar turkumini tarbiyalayotgan tajriba tarzida yo'lga qo'yilishini talab qilaman" ushbu talabga binoan tarbiyalanuvchilar kollektivning butun hayoti shunday tashkil yetiladiki, u bolalarni faoliyatini shaxsda muayyan fazilatlarning namoyon bo'lishini taqozo etadigan har xil turlarga jalg qilgan edi.

Kishida xilma-xil faoliyat turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayondir.

Rus fiziologlari P.N.Akonin, N.A.Berushteyn, Ye.A.Asratiyanlarning tadqiqotlari mushaklarning ishi bevosita saiylarakat vazifalari bilangina yemas, balki hamisha ushbu saiylarakat ro'y berayotgan shart-sharoitlar bilan ham boshqarilishini ko'rsatadi.

Faoliyat tizimi – aniq faoliyat turlarining rang-barangligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning har birini o'ziga xos qismlarining tizimi mavjud. Bular maqsad, motiv, hatti-harakat operatsiyalaridir.

Faoliyat turlari:

O'yin faoliyati – faoliyatning oddiy shakli bu o'yin hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan, keyinchalik syujetli ro'lli o'yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi.

O'quv faoliyati – ta'lim ham jarayon ham faoliyat sifatida insonning hayotida muhim o'rinni tutadi va muayyan davr uchun yetakchi faoliyat sifatida gavdalanishi mumkin.

Ta'lim boshqacha qilib aytganda o'qituvchi va o'quvchining munosabatidagi hamkorlik faoliyati hisoblanadi. Ta'lim o'quv faoliyati, aqliy faoliyat, bilish faoliyati turkisi vazifasini o'taydi, chunki har qaysi faoliyatning shakli aqliy mehnat tufayli amalga oshadi. Ta'limning boshqa faoliyat turlaridan

farqi uning maxsulligi, o'ziga xosligi, barcha bosqichlariga ongli yondashuv va munosabatlarda bo'lishidir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni o'quv faoliyatining asosiy komponentlari o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat yetish va baholash bilan V.V.Davilov bo'yicha tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarini bilmasligi, yoki ularning yaxshi yegallamaganligidan bo'lishi mumkun.

Ta'lim ko'pincha tarbiya bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Subyektga obyektiv ta'sir o'tkazish tufayli bilimlar yegallanadi, muayyan shaxsiy fazilatlar tarkib topadi.

Ta'limning yana bir muhim funksiyasi shuki, u turli yoshdagi odamlarning kasb tanlashga yo'naltiradi.

Mehnat faoliyati – tarkibida mehnat va ish harakat yotadi. Ularning har qaysisining muayyan ulushi o'laroq faoliyat maxsuli vujudga keladi, u yoki moddiy yoki ma'naviy ko'rinishda bo'lishi mumkun.

Ajdodlarimiz yaratgan kasbkor ko'nikmlarini avlodlarga o'rgatish mehnat faoliyati yordamida amalga oshiradi.

Kasbiy malakalarni rivojlantirish, takomillashtirish, maxsulot yaratish va undan maqsadga muvofiq foydalanish mehnat faoliyati orqali ro'yobga chiqadi.

Mehnat faoliyatida ko'nikmalar barqarorlashadi, nazariy fikr, g'oya, mulohaza vujudga keladi.

Mehnat faoliyati yaratilgan yehtiyojlarni qondirish, kelajak uchun mo'l-ko'lchilikni vujudga keltirish, yaratilgan me'morchilik, sa'nat, madaniyat asarlarni saqlash, asrash, meros qilib qoldirish funksiyalarini bajaradi.

O'qish hamisha iroda kuchini zo'r berib ishlashni va kuch sarflashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan o'qish mehnat shuning uchun ham og'ir faoliyat bo'lib hisoblanadi.

Matyuxina M.V, Ushakova I.P kabi olimlar o'qish o'zining yeng yaqin kelajakdagi vazifalarining o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiladigan mehnatdir deb hisoblashgan. Aqli zaif o'quvchilarni o'qitishda o'quv faoliyati va o'qishga qiziqish yetarlicha ko'p ye'tiborni talab qiladi. Chunki boshlang'ich sinfda aqli zaif o'quvchilar juda kam va chegaralangan doiralarda qabul qiladilar.

Masalan, ko'pincha o'quvchilar ota-onalarini hafa qilmaslik, o'qituvchining rag'batiga yerishish, yaxshi baho olish uchun va vazifalarni bajarmagani uchun gap yeshitmaslik uchun yoki yomon baho olmaslik uchun o'qishadi. Ularni faoliyat motivlari tizimi qiyaydi. O'qish orqali aqli zaif o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlaydi. Maktab yoshidagi aqli zaif o'quvchilar boshqa turdag'i turli mashg'ulotlar bilan bandlar. Ular navbatchilik qiladilar, bog'da, ustaxonada ishlaydilar, to'garak ishlarida qatnashadilar.

Aqli zaif bolalarni o'qitishda o'quv faoliyati va o'qishga qiziqishga yetarlicha ko'p ye'tibor qaratiladi. Faqatgina aqli zaif o'quvchilarni davomli ilm olishlari mazmunli va maqsadga yo'nalgan ilmga yega bo'ladi.

Bu ularga kerak bo'ladi, ya'ni yuqori darajaga yerishishda keng va ijtimoiy motivlarda va harakatlanishda.

Aqli zaif o'quvchilarni o'qitishning qiyinchiliklaridan biri shundaki, ular har doim ham masalani to'g'ri tushunmaydilar, ko'proq o'qituvchilar talabini qondirishga harakat qiladi. Ammo bu kabi qoida buzarliklar o'qituvchi tomonidan maqsadga yo'naltirmaslikda, masalani shartiga yetarlicha ye'tibor bermasliklarida, avvaldan tuzilgan reja bilan ishlamaslikda maktab o'quvchilar tomonidan bajariladi. O'qish maktab o'quvchilarini mustaqil faoliyatga tayyorlaydi.

Aqli zaif o'quvchilar oldiga qo'yilgan maqsadlarini amalga oshirishda juda qiynaladilar, chunki ular vazifalarning va holatlarni aniqlay olmaydilar va maqsadsiz oldindan rivojlantirilmagan harakatni amalga oshiradilar.

Aqli zaif o'quvchilar odatda alohida harakat operatsiyalarini bajarishga qiynaladilar. Ular harakatni amalga oshirayotganda o'qituvchining yo'nalish

berish yoki taqlid asosida vazifalarni bajaradilar. Chunki ularga harkatlarni mustaqil bajarishda qiyinchiliklar tug‘diradilar. Aqli zaif o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarida ko‘pgina tushunib qoldirishlar, o‘qin almashtirishlar, harf, tovush, bo‘g‘in so‘zlarni buzish kabi holatlarning ko‘plab guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bunga sabab o‘quvchilarning barchasida markaziy nerv sistemasining turg‘un buzulishidir.

Ularning yozuv ko‘nikmasini ko‘rganimizda ko‘pincha so‘z va sonlarni hamda harflarni yozuv chizig‘idan tepaga yoki pastga tushirib yozishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Ularda so‘zlarni yozishda xatolar, qo‘srimchalarni tushirib qoldirishlar, “aks” harflarga yo‘l qo‘yishi, bo‘g‘in ko‘chirganda turli xil xatolarga yo‘l qo‘yishlari kuzatiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda faqat sodda hikoyalar diktant qilib yoziladi.

Aqli zaif o‘quvchilarni sanoq ko‘nikmalarini juda qiyinchilik bilan yegallaydi. Ularning son va miqdor haqidagi tushunchalari passiv yekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularga son va miqdor haqidagi ilk tushunchalari hayotiy tajribalardan yoki o‘yin misolida tushuntirish tavsiya yetiladi.

Ularda mantiqiy tafakkurning passivligi sababli narsalarning mohiyatiga tushunishga qiynaladilar.

Aqli zaif o‘quvchilarning butun ta’lim jarayoni o‘ziga xos bo‘lganligi sababli, ta’lim uslublari ham o‘ziga xos mazmunga yega bo‘ladi. U umumiy universal ta’lim uslubi bo‘lmaydi. Dars samaradorligini oshrish uchun o‘qituvchi turli ta’lim usullaridan foydalanadi.

O‘quvchilarni darslarda joylashtirishning ahamiyati. Keyingi paytlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha dars jarayonida o‘quvchilarning noananaviy joylashtirishning ahamiyati haqida gapirmoqda. Buning bir necha uslublari mavjud:

A) o‘quvchilarni “dumaloq” atrofida o‘tkazish: bunday usulda o‘quvchilarni o‘tkazib munozra, muhokama va savol javoblar o‘tkazish tarzida

darslarni tashkil yetish. O'quvchilar bunday darslarda o'qituvchi bilan o'zlarini teng holatta sezdilar.

B) "Yarim oy" yoki "P" shaklida o'quvchilarni joylashtirishning avzallik tomoni shundaki, o'rtadagi maydondagi rolli o'yinlar, psixotrening o'yinlari va boshqa mashqlar bajarishlari mumkin.

V) Uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida o'quvchilarni joylashtirishning ham qulay tomonlari mavjud. Bunday hollarda o'qituvchi o'quvchilardan ajralib qolmasdan, balki ular bilan teng holatta o'tiradilar va yuzma-yuz o'tirish o'zaro muloqot va munosabatni yengillashtiradi.

O'qituvchi o'quvchilarni darsga qiziqitirish bilan birga ota-onalar majlislari o'tkazib turishi, o'quvchilarning uy sharoitlarini o'rganib chiqishi va bulardan habardor bo'lib turishi, sinfdan tashqari ishlar olib borib turishi, ya'ni o'quvchilarning qiziqishalari ularning hayotda qaysi kasb yegasi bo'lismeni xohlashi va shunga o'xshash fikrlari bilan tanishib chiqishlari kerak.

Aqli zaif bolalarni o'qitishda o'quv faoliyati va o'qishga qiziqishi yetarlicha ko'p ye'tibor qilinadi. Aqli zaif o'quvchilarning o'qish malakasini yegallab olmaslik hollari turlicha bo'lib bazan ularni ajratish ancha murakkabroqdir. Qiyinchiliklar o'qish malakasida ham, shuningdek o'qishning mazmun tomonida ham kuzatiladi. O'qish malakasi o'z rivojlanishida bir qator bosqichdan iborat murakkab yo'lni bosib o'tadi. Savodga o'rganishda bola ko'pincha tovush tahlilida qiynaladi. Bola ayrim xollarda bo'g'inlab va so'zlarni sidirg'asiga o'qishni yegallashga qiynaladilar.

Qiyinchiliklar harflarni yeslab qolishda ham kuzatiladi. Aqli zaif bola oliv nerv faoliyatlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'qish malakalarini juda qiyinchilik bilan yegallaydilar va uning alohida bosqichlari ancha ko'p vaqt ni talab qiladi. Aqli zaif bolalarda ko'p kuzatiladigan og'zaki nutqning nuqsonlari ham qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O'qish malakasidan tashqari bolalarning o'qigan so'zlari gaplarning ma'nosini tushunganligi, intonatsiyaga ahamiyat berishi, o'qigani bo'yicha savollarga javob bera olishi va so'zlab bera olishiga ye'tibor qaratilishi lozim.

O'qish malakasini rivojlantirishda didaktik o'yinlar, tez aytishlar va maqollar hamda topishmoqlar kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'qish darslarida bolalarga turli xil she'rlarni yodlatish orqali bolalarning xotirasini rivojlantirish mumkin. Tez aytishlar va maqollar ayttirish orqali bolalrning nutqini ravon va ifodali qilish mumkin.

Bolalarga ona tili darslarida savol javoblar o'tkazish yoki mashqlar bajartirish orqali o'z fikrini bayon qilishda tilning grammatik, fikrlarni imloviy qurilishidan to'g'ri foydalana olgan holda yetish ko'nikmasini hosil qiladi va rivojlantiradi.

Aqli zaif bolalarning chizish malakalarini oladigan bo'lsak barcha normal rivojlanib borgan bolalar bog'cha yoshidan boshlab chizishni yoqtiradilar avval ular qog'ozda turli shakllarni tushuradilar. Keyinchalik ularda tanish predmet bilan o'xshashlik kuzatiladi va bolalar alohida obyektlarni chizishga harakat qiladilar.

Aqli zaif bolalarning tasviriy faoliyat sekin va o'ziga xos ravishda shakllanadi. Ular nomukammal qo'pol hatolar bilan chizadilar. Bu rasmlarda ko'z orqali qabul qilinishi nodifferensiyasi harakat doirasini aks yetadi. Masalan, odamlar va qushlarni to'rt oyoqli qilib chizadi, rasmlar noaniq chiziqlar bilan chiziladi.

Yordamchi maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda bir qancha o'yin va metodlardan foydalanish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Faoliyat tushunchasiga izoh bering.
2. Faoliyat turlarini ko'rsating.
3. Aqli zaif o'quvchilarning yozuv kamchiliklari xususiyatlari
4. Aqli zaif o'quvchilarning o'qish xususiyatlari
5. Aqli zaif o'quvchilarning sanoq ko'nikmalari
6. Aqli zaif o'quvchilarning o'z faoliyati natijalariga munosabati
7. Aqli zaif o'quvchilarining o'quv faoliyatiga munosabat
8. Aqli zaif bolalarning o'quv faoliyatini rivojlantirish usullarini

3.5.Aqli zaif o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvi

Ijtimoiylashish - bu inson ijtimoiy sharoitni tushunib idrok qilishi, bu jamoada haq-huquqli inson kabi shakllanishi muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiylashish jarayonida ijtimoiy-feromenologik jarayonida individ bo‘lish yangi bilimlar olish meyorlar, qadriyatlarni o‘rganib shaxs bo‘lib shakllanadi.

Ijtimoiylashish bu insonni atrof muhit bilan aloqaga kirishi, uni nafaqat passiv qabul qiladi, uni moslashtirishga ham qodirdir. Bolaning ilk rivojlanishidanoq u ijtimoiy hayotga qadam bosadi va u bu hayotni o‘zgartiruvchi bo‘lib emas ijtimoiylashish esa moslashish bo‘lib u tug‘ma bo‘ladi va bu jarayonni faqat o‘zgaruvchan funksiya rivojlanishiga sharoit yaratish kerakdir. A.V.Petrovskiy ijtimoiylashish jarayonida subyekt va obyekt shaxs munosabatlarini rivojlanishini uch darajasini ajratib ko‘rsatgan: adaptatsiya, individuallashtishni va integratsiyalardir.

Ijtimoiy –psixologik moslashuv jarayonida nafaqat individual yangi ijtimoiy sharoitga moslashish, balki uni extiyoji, qiziqishlari, intilishlarini qo‘llashi, bolani jamiyat a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishi, o‘z individualligini namoyon etishi amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonida jamiyatda qabul qilingan hulq-atvor va predmet faoliyati, muloqotning ijtimoiy sifatlari shakllanadi, bunga asosan shaxs o‘z ehtiyoji, intilishi, qiziqishlarini qondiradi.

Individuallashtirish darajasida insonni ehtiyojlaridan kelib chiqib individ o‘zgarishlari kuzatiladi. Bu yerda shaxs-ommaviy munasabatlar subyekti hisoblanadi. Bu yerda subyekt birinchi darajasida o‘zlashtirish ro‘y bergen bo‘lsa, ikkinchi darajada bo‘lsa qayta ishlab chiqarishdir. Gap “men” ni yuzaga keltirish haqida, o‘z-o‘zini ko‘rsatishi individual sifatida. Individuallashtirish jarayonida individual xususiyatlarini namoyon qilish ro‘y beradi va bu esa insonlar o‘rtasidagi farqlarni vujudga keltiradi.

Integratsiya-uchinchini daraja bo‘lib ijtimoiylashish jarayonida inson rivojlanadi. Jamoa va inson o‘rtasidagi ma’lum bir yetishilgan balansni taxminlaydi. Bu bosqichda insonlar ijtimoiy qadriyatlari paydo bo‘ladi va bu esa insonni ma’lum bir ijtimoiy guruuhga tegishliligini aniqlaydi.

Bunday yo‘l orqali, ijtimoiylashish dunyosi bolaga bir necha aniq meyor-qadriyatlar modelini va ijtimoiy xulq namunalarini tanlashga yordam beradi. Ota-onalar esa to‘g‘ri yo‘l tanlashga yordam beradi ular tomonidan bola birinchi marta “mumkin” va “mumkin emas” degan gaplar va shu bilan birga ehtiyojlarni qondirishga, bular esa bolani ijtimoiy xarakterida aktiv aloqadordagi ehtiyojlarni qondirishga ularni surib, himoyalashadi.

Murakkab holatlarda ko‘pqirrali ijtimoiylashish rivojlanishida bolalar uchun eng kamida ikki chegara mavjuddir.

Birinchidan: ijtimoiylashish jarayonida bola rivojlanishi hozirgi vaqtdagi mavjud ijtimoiy guruhdagi o‘rinlarga moslashadi. Bu moslashish ijtimoiylashish aloqalari orqali mukammalashadi, shu bilan birga shaxsga aylanish uchun ham shaxsiy ma’nosи sistemasini anglashi, bular orqasidan esa jamoa tomonidan predmetli-faoliyatga moslashishda ko‘rsatiladi.

Ikkinchidan: aniqlangan individual o‘z-o‘zini o‘rganishi shakllanadi, ijtimoiylashishda o‘zini o‘rnini aniqlash jarayoni bilan bog‘liq va ijtimoiylashgani insonga aylanishi, bunda bola turli xil ijtimoiy jamoaga qo‘shilishidir, shu orqali ijtimoiy inson shakllanadi.

Bolaning ilk rivojlanishida endi ijtimoiy munosabatlar dunyosiga kirib boradi. Yaqin odamlar bilan muloqotda bo‘lishi orqali asta-sekin xulq-atvor meyorlarini o‘rganadi. Lekin bu davrda uning harakatlari motiv qoida bo‘yicha anglanmagan bo‘ladi.

Faqat asta-sekin bolaning ichki dunyosi shakllanadi, bu kattalar ta’siri ostida shakllansa ham bola nir zumda odamlarga va narsalarga bo‘lgan munosabatni o‘rganib oladi.

Ijtimoiy moslashuv insonlarni ijtimoiy munosabatlari sharoitida amalga oshib, subyektni moslashganlik darajasi bir tomonidan ijtimoiy muhit xususiyatlari, ikkinchi tomonidan insonning shaxsiy sifatlar bilan ifodalanadi. Ijtimoiy omillar moslashuv jarayoni samaradorligini belgilab, guruhning bir turdaligi, uning a’zolarining ijtimoiy holati, qo‘yilgan talablarni bir xilligi, qa’tiyligi, guruh a’zolarni xarakter faoliyati bilan ifodalanadi. Shaxsiy yoki subyektiv omillar – insonni o‘z-o‘zini baholash,

guruh yoki ijtimoiy jamoada o‘zini tutish, yoshi, jinsi, tipologik xususiyatlari bilan ifodalanadi .Subyektiv shaxsiy omillar insonni ijtimoiy moslashuv jarayonida o‘zgarishini belgilaydi. Inson va tashqi muhitning o‘zaro aloqasida yo subyekt yo ijtimoiy muhit o‘zgaradi. Moslashuvning ijtimoiy va shaxsiy omillarining o‘zaro munosabati va jamoaning o‘zaro aloqasi uchun sarf etilgan kuch - qudrat bahosi bilan ifodalanadi. Bu jarayonda jamoa o‘z a’zolarini tarbiyalash, o‘qitish, nazorat qilish, jazolash, yo‘naltirish uchun kuchini sarf etsa, shaxs o‘z faolligini ijtimoiy anglash, ijtimoiy jihatdan qayta o‘zgarishiga yo‘naltiradi. Shaxs faolligining predmeti ijtimoiy ahloq normalarini, qadr-qimmatini shakllantirish, ilmiy-texnik, ma’naviy yutuqlarga erishish, yangi ijtimoiy guruhlarga kirishi, yangi ijtimoiy statusga ega bo‘lish bilan birga ifodalanadi. Moslashuv va ijtimoiylashuv jarayonlari hamda shaxsni moslashganlik va ijtimoiylashuv darajasi shaxs ongida ijtimoiy ta’sir asosida shakllanadi. Shakllantiruvchi muhit subyektni ijtimoiylashuv ko‘rsatkichlarini o‘zida ifodalab, shaxsning ijtimoiy faolligi darajasini oshirib, yoki pasaytirib, uni moslashganligi – avtonomlashganligi doirasini belgilaydi.

Ma’lumki, ijtimoiylashuv jarayonining asosi insonning moslashuvidan iborat bo‘lib, uning ta’sirida shaxs jamiyatning teng a’zosiga aylanadi. Insonning ijtimoiy moslashuvi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida uning jamiyat bilan munosabatlari jonli o‘zgaradi, jamiyat talablariga javob berish darajasi ortib boradi, G.M.Mastyukova va O.M.Usanova o‘z ilmiy tadqiqotlarida “Ijtimoiylashuv shaxsni ijtimoiy tipiklashtirishni amalga oshiradi, inson egallagan ijtimoiy tajribasi, ahloq normalari, qadr-qimmati asosida jamiyatda moslashadi va integratsiya asosida jamiyat a’zolariga qo‘shiladi. Shaxs o‘z tabiatiga ko‘ra, mustaqillikka erishishga, shaxsiy fikrini shakllantirishga intiladi. Bu ikki yo‘nalish – ijtimoiy tipiklashtirish va shaxsning avtonomlashtirish o‘z beqarorligiga egadir” deb etirof etadi. YE.V.Julina ilmiy ishida ijtimoiy moslashuvni ikkita shaklini insonning muhitga faol moslashuvi yoki insonning jamiyatga passiv moslashuvi, uning talablarga passiv moslashuvini tasniflaydi. Ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va jamoaning o‘zaro munosabati birligini o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiylashuv odatda umumiyl rivojlanish bilan, moslashuv yangi sharoit, muloqot va faoliyat

jarayonida shaxsning moslashuvi belgilanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, amalga oshadi, shaxsning ijtimoiylashuvi nogiron shaxsni jamiyatda moslashuvchi sharti bilan belgilanadi. Ijtimoiy moslashuv ijtimoiylashuv mexanizimlarining asosi bo‘ladi, nogiron shaxsni yangi ijtimoiy muxitga moslashuvidir .

Ijtimoiy moslashuvning ijtimoiy-psixologik mazmuni jamoa yo‘nalishining maqsadini, tajribasi, shaxsni guruh madaniyati, urf-odatlari, ahloq normalarini egallashi mos kelishi bilan ifodalanishini ko‘zda tutadi. E.Eriksonning yondashuvi moslashuvning ikki turini ko‘rsatadi: allaplastik va autoplastik adaptatsiY. Allaplastik adaptatsiya rivojlanish, shaxsiy o‘sishga intilish yangi faollikka intilish, inson va shaxsni rivojlantirish uchun asos yaratadi. Autoplastik adaptatsiya shaxsga muxitga moslashish imkonini beruvchi o‘zgarishlani ta’minlaydi.

Z.Freydning zamonaviy izdoshlari moslashuv jarayonining ikki darajasini farqlaydi; adaptatsiya va dezodaptatsiY. Moslashuv shaxs va muhit o‘zaro munosabati amalga oshganda yuzaga keladi. Shaxs va muhit o‘rtasidagi munosabat yuzaga kelmasa dezodaptatsiya amalga oshadi. Shaxs muhit bilan ma’lumot asosidagi munosabatlar o‘zida mavjud bo‘lgan kognitiv dissonozga duch keladi va bu jarayon shaxsda dissononsni kamaytirishi yoki olib tashlash imkoniyatini qidirishga yo‘nalish yuzaga keladi. Qabul qilingan ma’lumotni rad etish – muhit tasvirini o‘zgartirish, shaxs tasavvurlari va olingan ma’lumot mutanosibligi o‘rnatish orqali amalga oshadi.Chet el psixologiyasida moslashuvning neobxeviristik yo‘nalishi keng tarqalgan. Bu yo‘nalish mualliflari ijtimoiy moslashuvni quyidagicha e’tirof etadilar, ijtimoiy moslashuv – individ va muhit extiyojlarini to‘liq qondirilishi bo‘lib, individ va tabiat yoki ijtimoiy muhit o‘rtasidagi garmoniya orqali o‘zaro munosabat shakllanadi. Shunday qilib, bixeviristlar ijtimoiy moslashuvni munosabat, ijtimoiy xulq – atvor va madaniyatidagi o‘zgarish deb fikrlaydilar. Bu o‘zgarishlarning maqsadi – guruh yoki individlarni hayot faoliyatini yaxshilish holati xisoblanadi. YE.V.Shipitsina fikricha, moslashuv tashqi ta’surotlarga ikki xil javob bilan ifodalanadi. Ijtimoiy ta’surotlarga samarali javob berish xar bir shaxs o‘z jinsi, yoshiga muvofiq amalga oshadi. Masalan, o‘quv faoliyati, do‘stona munosabat

o‘rnatish, oila qurish. Bunday moslashuvning YE.V.Shipitsina, jamiyatning inson hulqiga qo‘yiluvchi talablarga javob berilishi deb e’tirof etadi. YA’ni, havfli sharoitdagi moslashuvda inson o‘z maqsadi, ijtimoiy qadr-qimmatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatadi. Moslashuv hulqi jamiyat kelajagini aniqlash asosidagi fikrlar, mulohazalar bilan xarakterlanadi. YE.V.Shipitsina fikricha, xar bir shaxsni qiyinchiliklarni yengish usullari bo‘ladi va mazkur usullarni moslashuv sifatida tushunish mumkin. Shunday qilib, moslashuv tipik muammolarni hal etuvchi usullar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

V.A.Kalyagin va T.S.Ovchinnikova ijtimoiy moslashuvda shaxs faolligini alohida ta’kidlaydi. Ijtimoiy-psixologik moslashuvni shaxs va ijtimoiy muhit o‘zaro munosabati, moslashuvi ijtimoiy shaxs extiyojini va intilishlariga mos kelsa, uni rivojlanishiga xizmat qilsagina amalga oshadi, deb ko‘rsatib o‘tadi. Moslashuv jarayonini ta’riflaganda “maqsadga muofiq”, ”individuallikni rivojlantirish”, “o‘z-o‘zini ishontirish”, “yengish” tushunchalari ishtirok etadi. Shaxsning ehtiyoji va motivlariga bog‘liq xolda moslashuv jarayonining quyidagi tiplari tasniflanadi: ijtimoiy muhitga faol ta’sir bilan ifodalanuvchi tip; ijtimoiy muhitga passiv ta’sir bilan ifodalanuvchi tip.

A.A.Rean fikricha, moslashuv – nuqtai nazaridan samarali va keng tarqalgan tip mavjuddir. Bu ehtimol aralashtirilgan tip bo‘lib, yuqorida ta’kidlangan tiplarni qo‘llash asosida amalga oshadi yoki bu variantni tanlashda shaxs moslashuv strategiyasining uchchala tipini samaradorligiga ahamiyat beradi. Bunda ijtimoiy muhit talablari, shaxs maqsadi, o‘zgarishi doirasidagi, shaxs potensiali xisobga olinadi.

Rus psixologlari moslashuvning ikki darajasini: to‘liq moslashuv va dezodaptatsiyani farqlaydilar. A.N.Jmurikov moslashuv faolligini quyidagi ko‘rsatkichlarni xisobga olishni e’tirof etadi; shaxsni mikro va makro muhit bilan integratsiyasi darajasi, ichki shaxsiy kuchni sarflash darajasi, emotsional xis tuyg‘ular.

A.A.Rean ijtimoiy moslashuv modelini ichki va tashqi ko‘rsatkichlari bilan bog‘laydi. Bunda ichki ko‘rsatkichlariga psixoemotsional stabillik, qoniqish, qulaylik

xolati, stress, havf-xatar mavjud emasligi, emotsiyal – psixologik taranglikning yo‘qligi, kabi xolatlarini jamlaydi. Tashqi ko‘rsatkichlar tashqi muhit qonun-qoidalari, talablari, jamiyat normalariga shaxsni faoliyatini mos kelishi holatini qamrab oladi. Shunday qilib, dezodaptatsiya tashqi ko‘rsatkich bo‘yicha, ichki ko‘rsatkich asosidagi moslashuv bilan amalga oshadi.

G.Selye moslashuv sindromlarining umumiyligini konsepsiyasida dezodaptatsiya shaxs ehtiyojlarining ijtimoiy muhit talablariga mos kelmasligi bilan asoslanadi, deb e’tirof etadi. Bunday munosabat shaxsiy qo‘rquv holati faoliyatidir, Bu holat tashqi gomeostazning buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, bu yo‘nalishda shaxsni moslashuv darajasi uni emotsiyal xolati bilan ifodalaydi. Buning natijasida adaptatsiyaning ikki darajasi tavsiflanadi; moslashuv (shaxsda qo‘rquv hissini mavjud emasligi) va moslashmaganlik holati (qo‘rquv hissi mavjudligi) .

L.M.Shipitsina ta’rificha, aqli zaif bolalar ijtimoiy moslashuvi jarayoni ijtimoiy normalar va qadr-qimmatlar tizimiga alohida e’tiborga loyiq shaxslarni individual va guruhli hulq-atvorini moslashtirilishi bilan ifodalanadi. Alohida e’tiborga loyiq imkoniyati cheklangan bolalar rivojlanishi nuqsoni sababli tashqi muhit bilan munosabatini mustahkamlashda, o‘zgarishlarga mos xarakatlanish takomillashadi. Bu bolalar mavjud ijtimoiy normalarga bog‘liq o‘z maqsadiga erishishda qiyinchiliklarga uchraydi, shu sababli imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash tizimi maqsadi ijtimoiy qonun-qoidalari va normalarni amalga oshirishi, bolalarni jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Ko‘p psixologlar o‘z diqqatini shunga qaratishadiki, bunda bola-ijtimoiy mavjudod sifatida munosabatda bo‘lishadi. Bolalar fikrlashini rivojlanishi bu ota-onalar, kattalar bolalarga qandaydir muammosi yechishga o‘rgatishi orqali rivojlanadi deb ko‘p olimlar ta’kidlab o‘tishgan. Har bir jamoa bolalarni turli xil faoliyatga o‘rgatadi, bu esa o‘z navbatida yo‘naltirish nomini qo‘lga kiritadi (bu jarayonda tajribali odamlar bolalarga yig‘ilgan ma’naviy bilmalarni berishadi). Qachonki bolalar stol yasatishga qarashganda, idish-tovoqlar yuvishga yoki odatlarni shakllantirishiga,

asosiy ijtimoiy munosabatlarni, qadr-qimmat sistemasini o‘zlashtiradi. Bu jarayonda ma’naviy meroslarni kattaroq odamlardan qabul qiladi.

K.Nelson ta’kidlashicha, bolaning bilimi u yoki bu haqida bo‘lsa bu bolaning tafakkurini tushunish kalitidir. Shu vaqtida Riaje o‘z diqqatini bolalar bilmaydigan narsalarga qaratgan bo‘lsa, Nelson esa bolalar nimalar haqida bilimga ega ekanligi to‘g‘risida qiziqqan. Uning ta’kidlashicha: har kungi oladigan bilimlari bolani psixik jihatdan rivojlantiradi va idrok yetish qobiliyatini oziqlantiradi. Bolani bilish jarayonini asosini real holatlar tashkil qiladi: atrof-muhitni idrok qilishi, uning ijtimoiy yoki madaniy bilimida joylashgandir.

Vigotskiy bolaning murakkabroq faoliyatlarga o‘rganishda turli xil yo‘llar orqali amalga oshiradi va buni asoslab berish uchun quyidagi tushunchani kiritgan, rivojlanish joylari bo‘lib (bolalar rivojlanishi qandaydir faoliyat orqali, bilish faoliyatini ozgina rivojlaniruvchi, kattalar yordamidagi faoliyatlar).

Vigotskiy ta’kidlashicha, bolaning rivojlanishi uning ish faoliyatidir, bunda bola turli xil uning mavzularga oid mashqlar bajarishi, va bu mashqlarni bajarishi orqali intellektual rivojlanadi, bunga esa kattalar yordam berishlari talab etiladi. Kichik bolalik davrida kattalar bolalar uchun juda katta ta’sir ko‘rsatadi, uning ijtimoiy va psixik holatiga asosiy ta’sirni ko‘rsatishadi. Bola hali mustaqil faoliyat ko‘rsatolmaydi. Kattalar orasidagi eng yaqin inson bu bola uchun onasi hisoblanadi. Bola ko‘proq onasi bilan suhbatga ko‘proq kirishadi va o‘z kechinmalari bilan bo‘lishadi. Boshqa katta odamlardan esa bola bilan uning bog‘chasidagi tarbiyachisi birga bo‘ladi. Bola tarbiyachisi bilan o‘ynaydi, mehnat qiladi, sayr qiladi, kundalik mehnatlarni bajaradi. Bolalar o‘z tarbiyachilariga boshqacha munosabatda bo‘lishadi, ular bilan aloqada bo‘lib bir-birlariga mehrli bo‘lishadi, shu bilan birga bolalar tarbiyachilari tomonidan ijobiy baholarni olishga intilishadi va kattalarga bolaga yaxshiroq baho bilan munosabatda bo‘lishga undaydilar. Ular yorqin hissiy-irodaviy zavjni maqtovlar eshitganda olishadi. Kattalar bolalar bilan o‘ynaganda, tarbiyachilar predmetlar o‘rtasidagi aloqalarni tushuntirib va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirib ularni nutqini mukammal egallashlariga yordam berishadi. Eng yengil

ko‘rinishdagi faoliyat ham taqlid asosida bu ijtimoiylashish jarayonining bola va u haqida g‘amxo‘rlik qiluvchi ota-onalariga munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

Oila ijtimoiylashish instituti sifatida, bunda oila ijtimoiylashtirish funksiyasini shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi, birinchidan makroiijtimoiy ta’siri, bunga madaniy ta’siri, ikkinchidan mikroiijtimoiylashish faoliyatida bolaning o‘ziga xos xususiyatlari xarakterlanadi.

Oila ijtimoylashishning muhim instituti hisoblanadi, chunki oilani hech qanday boshqa jamoa o‘rnini egallolmaydi. Oilada aynan inson birinchi ijtimoiy moslashish bo‘lib o‘tadi. 6 yoshgacha bola uchun bu asosiy ijtimoiy muhitdir, bunda birinchi asosiy ijtimoiy munosabatni va odatlarini shakllantiradi. Bu davrda bola o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati boshqa insonlarga (yaqinlarga va umuman insonlarga) va turli xil faoliyatlar, xarakteri shakllanadi va meyorlar o‘rganiladi, ijtimoiylashish sifati rivojlanadi.

Oila bolani madaniyat jamoasiga o‘rgatadi: diniy qadriyatlarga, etnik qarashlar va ma’naviy qadr-qimmatga bola oila orqali o‘zlashtiradi.

Ijtimoiylashish oilaviy institut sifatida quyidagi funksiyalari mavjud: reproduktiv, pedagogik, xo‘jalik-huquqiy, terapevtik va boshqalar. Oilaviy institut majorasi bu ko‘p oilaviy urushlar va ayrimlar bular bolaning psixik-ijtimoiy muammolarini keltirib chiqaradi. Bular quyidagi holatlarda belgilanadi:

- Ota-onaning faqat bittasi bilan yashashi bola shu insonga moslashib taqlid qiladi, bular ko‘pincha bolalarda ko‘proq aks yetadi.
- Umumiy sonli bolalarda, oiladagi bolalarga o‘z-o‘ziga baho berishiga ta’sir qiladi ularni tug‘ilish o‘rni
- Hissiy-irodaviy sohadagi kamchilik (bola tarbiyasida ota-onalari qatnashmaganlar yoki ularni o‘rnini bosuvchi odamlarsiz) bu esa bolani hotirjamsizlantiradi.

Oxirgi vaqtarda aqli zaif bolalarbolalar ko‘payib bormoqda, statistikaga muvofiq, boshlang‘ich sinflarga qabul qilinayotgan bolalarning 30% ida nutqida kamchiligi uchraydi, bu nutq nuqsoni darajasi va xarakteri namoyon bo‘lib, ularda ijtimoiy faoliyatida ham o‘ziga xos chegaralar paydo bo‘ladi. Birinchi o‘quv yili

oxirlab qolganda esa nutqida kamchiligi bo‘lganlar soni sezilarli darajada bo‘lmaydi faqatgina 7,5% ga kamayadi. Keyinchalik bunday bolalarda muammolar tug‘ilib yangi yozuv ko‘nikmasini egallashda qiyinchilikni tug‘diradi va ijtimoiy sharoitning o‘zgarishi ham bola rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Aqli zaif bolalarda diagnostik ko‘rinishlarda dissotsiatsiya yuz berib bu bolaning ruhiy va nutqiy rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bu bolaning psixik rivojlanishini orqada qolishi sezilarsiz bo‘ladi, normaga yaqindir, bu birlamchi nutqiy patologiya shakllanishini tormozlaydi va xotira, diqqat, idrok faoliyatini normada kechishiga to‘sinqlik qiladi. Biroq og‘zaki nutq shakllanishiga va o‘z nuqsonlarini bartaraf etilsa psixik rivojlanishi normaga yaqinlashadi. Ko‘p adabiyotlarda aqli zaif bolalarbolalarda ijtimoiy moslashuv harakatchanligi sustlashadi, bu holat bola nutqidagi kamchilikni bartaraf etilganda ham o‘z asoratlarini qoldiradi. Bu bolani ichki xarakteriga ta’sir qiladi (o‘z qobiliyatlariga ishonmaslik, o‘z-o‘ziga bahoni past qo‘yishi, o‘ziga ishonmaslik va boshqalar) ijtimoiy moslashish muammolari asosida bunday bolalar psixik xususiyatlari o‘ziga xosdir. Pedagogik muammolardan biri bolalarning ulgurolmasligida (o‘qishga qiziqishi yo‘qligi, past motivatsiya va ulgurolmaslikdir).

Rus olimlari tomonidan tekshiruvlar olib borilganda bolalar ijtimoiy moslashuv ishlarini o‘rganib chiqib, nutqida patologiyasi bor bolalarda duduqlanish va ovoz buzilishlari kuzatilgan bolalarni tekshirilgan. Boshlang‘ich sinflarda o‘qiydigan bolalarda ijtimoiy muammolar haqida qator qarama-qarshiliklar tug‘ildi.

- Savollar markazida umumta’lim tarbiya zamonaviy o‘zgaruvchan jamoa va yetarli bo‘lмаган darajada aqli zaif bolalarbolalarga ijtimoiy moslashuv holatiga katta ahamiyat qarashmaydi.
- Psixolo-pedagogik ko‘rinishdagi protsessga ijtimoiy moslashish boshlang‘ich sinflarda nutqiy patologiyali va pedagogik qarashlarni chegaralanganligi sabab uni amalga oshirilishini chegaralaydi.
- Bolani ijtimoiy moslashuviga oilaning ahamiyati ham bo‘lib ota-onalar kerakli ma’lumotlarni bera olmaydilar.

Bu qarama-qarshiliklar muammolarni aniqlashga yordam berishdi va bu keyingi holda umumta’lim mакtablарida aqli zaif bolalarga ijtimoiy moslashishga pedagogik шартларини aniqlashga va shu bilan birgalikda o‘qituvchilarga yangi strukturali programma ishlab chiqishga, bu asosida boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilar uchun ijtimoiy moslashishni yaxshilashga qaratilgan. Aqli zaif bolalarbolalarni ijtimoiy moslashini yaxshilash bilan birgalikda ular

O‘zgaruvchan ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish yetaricha murakkab kechadi. Jamoaga kirish, shuningdek ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish, ko‘p hollarda havotirlanish, noqulayliklar, faollikning pasayishi va hatto sog‘liqni yomonlashuvi bilan birga kechadi.

Ko‘pincha inson assotsiativ xulq-atvorga, nevrotik reaksiyalarga va boshqa moslashishga to‘sinqlik qiluvchi hodisalarga olib keluvchi yangi sharoitga moslasha olmaydilar.

Aqli zaif o‘quvchilarni maktabga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun maxsus tashkil etilgan korreksion ish talab etiladi. Og‘ir yuqori sinf aqli zaif o‘quvchilarni maktabga tayyorlashdagi muhim omil-ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik hisoblanadi. Har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish asosi maktabgacha yosh davrida amalga oshiriladi. Bola hayotini birinchi yillaridagi tarbiyasi uni keyinchalik to‘laqonli rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasi halq ta’limi tizimining eng javobgar pog‘onasidir. Pedagogik jamoa, olimlar oldidagi umumiyl vazifa o‘quvchilar jamoasidagi barcha ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish va o‘quvchilarni tizimli maktab ta’limiga tayyorgarligini takomillashtirishdir.

Pedagoglar tomonidan o‘quvchilarni maqsadli maktabga tayyorlash mazmuni va ahamiyatini tushunish muhim rol o‘ynaydi. Bolani maktabga borishi uning hayotidagi uzilish vaqtini hisoblanadi: u atrofdagi odamlar bilan yangi turdagi munosabatlarga kirishadi, unda yangi faoliyat shakllari paydo bo‘la boshlaydi.

O‘quvchilarni maktabga tayyorlash-ko‘p qirrali, bola hayotining barcha sohasini qamrab oluvchi vazifadir. Maktabga ijtimoiy va psixologik tayyorgarlik bu vazifalarning muhim va ahamiyatli omillardan biridir.

Bolani matabga psixologik tayyorgarligi quyidagilardan qamrab oladi:

- Motivatsion tayyorgarlik (o‘quvchilardagi intilish, o‘qish istagi)
- Intellektual tayyorgarlik (bilim jarayonlarining rivojlanganligi; xotira, diqqat, tafakkur, fazo va vaqt haqidagi tasavvurlar, hayvonot va o‘simliklar haqida, ijtimoiy xodisalar haqida tasavvurlar)
- Irodaviy tayyorgarlik (o‘z-o‘zini nazorat qilish, eshita olish, bo‘ysunishni rivojlantirish)
- Ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik

Maktab ta’limiga ijtimoiy tayyorgarlik o‘zida bolani yangi muloqot shakllariga, atrofdagi olam va o‘z-o‘ziga, maktab ta’limi sharoitlariga tayyorgarlikni aks ettiradi. Tayyorgarlikning bu komponenti o‘quvchilarni boshqa o‘quvchilar bilan, kattalar bilan muloqot qilishlari uchun zarur sifatlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bola maktabga sinfga keladi, u yerda barcha o‘quvchilar umumiyl ish bilan mashg‘ul bo‘lib, u boshqa o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatishni yetarlicha mustahkam usullarini, o‘quvchilar jamoasiga kirish uchun zarur malakalarni, ular bilan hamkorlikda faoliyat yuritishni, taslim bo‘lish va himoyalananish malakalarini egallashi zarur.

Shunday qilib, bu komponent o‘quvchilarda boshqalar bilan muloqot ehtiyojini, o‘quvchilar guruhlari an’analari va qiziqishlariga bo‘ysunish malakasini, maktab ta’limi sharoitida o‘quvchi roli qobiliyatini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Maktab talablari va o‘quvchilarni ularni qabul qilishga tayyorgarligi o‘rtasida ma’lum tafovutlar kelib chiqadi. Bugungi kunda ko‘pchilik o‘quvchilar yoshining talab darajasida bo‘lishiga va yetarlicha ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishiga qaramasdan maktab ta’limiga moslashishda katta qiyinchiliklarga uchrayapti.

Maktabga kelgan o‘quvchilarda turli xil nutq kamchiliklari nutqning to‘liq rivojlanmaganligi, dizartriya, rinolaliya, duduqlanish kuzatilishi mumkin.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligiga xos belgilar: nutqning fonetiko-fonematik tomonining, leksik-grammatik qurilishi va nutqning ma’naviy tomonini buzilishi hisoblanadi. Bu o‘z navbatida maktabga yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan o‘quvchilarni maktabgacha tayyorlash jarayonini qiyinlashtiradi.

Ko‘pincha turg‘un nutqiy rivojlanmaganlik o‘quvchilarda turli nevrologik, psixopatologik sindrom bilan og‘irlashadi, vegetativ funksiyalar aziyat chekadi. Shuning uchun ularda yangi sharoitlarda o‘qish muammolari ortib boradi. Bunday o‘quvchilarda motivatsiyaning sustligi, nutqiy muloqotga ehtiyojning pasayishi, markaziy psixologik funksiyalarning shakllanishining o‘ziga xosligi, shuningdek, kattalar bilan ixtiyoriy muloqot qobiliyati, topshiriq doirasida faoliyat yuritish qobiliyatining pastligi kuzatiladi. Yuqori sinf aqli zaif o‘quvchilar uzoq muddatli o‘yin o‘ynash qobiliyatiga ega emas, ular qaysar, ba’zi hollarda esa negativizm kuzatiladi. Ularda kayfiyatning o‘zgarib turishi xarakterli bo‘lib, impulsiv holatdan tormozlanish holatiga o‘tish hollari kuzatiladi. Og‘ir yuqori sinf aqli zaif o‘quvchilarda kuzatiladigan o‘z nutqiy holatini tashkil etishdagi qiyinchiliklar ularni atrofdagilar bilan muloqotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar biror bir umumiyligi ishni kattalar ko‘rsatmasiga asosan bajarishayotgan bo‘lsa, bunda har bir bola o‘zicha, sheri giga qaramasdan, ular bilan birga ishlamasdan bajarishga harakat qiladi. Bolaning o‘yinda o‘ynayotgan roli uning temperamenti, xarakter xususiyatlari juda bog‘liq. Shuning uchun har bir jamoada “yulduzlar”, “afzal ko‘riladigan” va “yakkalanib qolgan” o‘quvchilar bo‘ladi. “Murosasiz” va “yakkalanib qolgan”lar ichida asosan kommunikativ vositalarni talab darajasida egallamagan o‘quvchilar bo‘lib, ular barcha o‘quvchilar faoliyatları turlarida muvaffaqiyatsizlik holatida bo‘ladi. Ularning o‘yin malakalari sust rivojlangan, o‘yin manipulyar xarakterda bo‘lib, bu o‘quvchilarning tengdoshlari bilan muloqot o‘rnatishga harakati muvaffaqiyatga olib kelmaydi va ko‘pincha u “murosasizlar” tomonidan aggressiv munosabatning avj olishi bilan yakunlanadi. Bunday o‘quvchilarning ko‘pchiligi uchun qo‘zg‘aluvchanlik xos bo‘lib, u turli xil nevrologik simptomlar bilan bog‘liq, agar bunday o‘quvchilarda o‘yin tarbiyachi tomonidan nazorat qilinmasa, u umuman tashkil etilmagan shaklni kasb etadi. Ko‘pincha bunday toifadagi o‘quvchilar o‘zini biror-bir ishga jalb eta olmaydi, bu ularda hamkorlikdagi faoliyatni yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi.

O‘quvchilarni atrofdagilar bilan muloqotida bolaning o‘z-o‘ziga baho berishi katta rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini anglash o‘chog‘i hisoblanadi. O‘z-

o‘zini baholash va intilishlar darajasi adekvat va noadekvat bo‘lishi mumkin. Ular yuqori va past bo‘ladi. O‘z-o‘zini baholash va intilishlar darajasi bolaning hissiyotiga, turli xil faoliyat turlarida va uning xulq-atvoridagi muvaffaqiyatlarga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Og‘ir nutq buzilishlariga ega o‘quvchilarda odatda o‘z-o‘ziga baho berish past darajada bo‘ladi. O‘z-o‘ziga past baho beradigan o‘quvchilar qat’iyatsiz, muloqotga kam kirishadigan, hech kimga ishonmaydigan, indamas, harakatlarda sust bo‘ladi. Ular juda ta’sirchan, hoxlagan paytda yig‘lashga tayyor bo‘ladi, hamkorlikda ishslashga harakat qilmaydi va o‘z-o‘zini himoya qilish qobiliyatiga ega emas.

Bunday o‘quvchilar o‘z kuchiga ishonmaydi, faoliyatga qiyinchilik bilan kirishadi. Bu toifa o‘quvchilar ular uchun qiyin tuyulgan vazifalarni yechishdan oldindan voz kechadi, ammo kattalarning emotsional qo‘llab-quvvatlashida ularni oson hal etadi. O‘z-o‘zini past baholovchi o‘quvchilar juda zaif ko‘rinadi. Bola tushunmaganman deb qo‘rquv, nima qilish kerakligi va hammasini noto‘g‘ri bajarishidan g‘avotirlanib, uzoq vaqt topshiriqni bajarishga kirishmaydi, undan kattalar mamnunligini aniqlashga harakat qiladi. Faoliyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, uni bajarish shunchalik qiyin. Ma’lumki, bunday o‘quvchilar tengdoshlari orasida past ijtimoiy mavqega ega bo‘lib, rad etilgan toifasiga tushib qoladi, ular bilan hech kim do‘splashishni xohlamaydi. Aqli zaif o‘quvchilarning ko‘pchiligidagi meyorda rivojlanayotgan 2-4 yoshli bolalarga xos bo‘lgan hamkorlikning situativ-ish shakliga ega bo‘ladilar. Kommunikatsiyaning afzal turi - bu o‘yin faoliyatidagi kattalar bilan muloqoti bo‘lib, u nafaqat mazmunan kambag‘alligi, balki qo‘llaniladigan nutqning yetarlicha tizimlashtirilmaganligi bilan ham farqlanadi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan o‘quvchilarning yarmida muloqot madaniyati shakllanmagan, ya’ni ular kattalar bilan betakalluf munosabatda bo‘ladi, ularda masofa saqlash hissi bo‘lmaydi, intonatsiyasi ko‘pincha qichqiriqli, keskin bo‘ladi, ular o‘zlarining talablarida qaysar bo‘ladilar.

Ba’zi nutqi to‘liq rivojlanmagan o‘quvchilar sharoitga bog‘liq bo‘limgan muloqotning bilish shakli ustun turadi. Ular kattalar tomonidan kitob o‘qib berilish taklifini qiziqish bilan qabul qiladi, murakkab bo‘limgan matnlarni diqqat bilan

eshitadi, ammo o‘qishni tugatgandan keyin ular bilan suhbat o‘tkazish qiyin; chunki, o‘quvchilar deyarli matn mazmuniga mos kelmaydigan savollar beradi, ular eshitganlarini qayta hikoya qilib berish qobiliyatiga ega emasdir. Hatto kattalar bilan muloqotga qiziqish bo‘lganda ham bola suhbat patida bir mavzudan ikkinchisiga o‘tib ketadi, ularning qiziqishlari qisqa muddatli bo‘lib, suhbat 5-7 minutdan uzoqqa cho‘zilmaydi. Bu toifadagi o‘quvchilarning ko‘pchiligi kattalar bilan muloqot qilmaslikka harakat qiladi. Ular kattalarga kamdan-kam hollarda murojaat qiladi, uyaladi va ular bilan aloqa qilishdan qochadi. Yuqori sinf aqli zaifo‘quvchilar shaxsini shakllanishida o‘z nuqsonini anglash muammosi juda muhim hisoblanadi. Yuqori sinf aqli zaifo‘quvchilardagi shaxsiy va hissiy-irodaviy sohalarning buzilishi nafaqat ularning ish qobiliyatini yomonlashtiradi va pasaytiradi, balki xulq-atvorining buzilishiga olib kelishi va ijtimoiy hayotga moslasha olmasligiga olib kelishi mumkin.

Shu tariqa, og‘ir nutq nuqsonlariga ega o‘quvchilarda kognitiv rivojlanish va nutqiy buzilishlar kompleksi ularda atrofdagilar bilan to‘laqonli aloqa o‘rnatishga to‘sinqilik qiladi, kattalar bilan aloqa o‘rnatishni qiyinlashtiradi va tengdoshlari jamoasida yakkalanib qolishiga olib kelishi mumkin.

Nutq kamchiligi bor o‘quvchilarda ko‘rsatilgan xususiyatlar rivojlanish vaqtida o‘z-o‘zidan bartaraf etilmaydi. Ular pedagoglardan maxsus tashkil etilgan korreksion ishlar talab etadi. Yuqori sinf aqli zaifo‘quvchilarni maktabga tayyorlashdagi ishlarni tashkil etishda ularning psixologik xususiyatlarini, nutq buzilishlari darajasini, shaxsiy sifatlarini hisobga olish samarali natijalarga erishishga imkon beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvining ilmiy – nazariy asoslarini yoritib bering.
2. Ijtimoiy moslashuv deganda nimani tushunasiz
3. Ijtimoiy-psixologik moslashish tavsifiga izoh bering
4. Aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy-moslashuv xususiyatlarini aytib bering
5. Muloqot malakalarini rivojlantirish yo’nalishlari

6. Aqli zaif o‘quvchilarning mакtab ta’limiga moslashish xususiyatlarini aytib bering
7. Aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish usullari
8. Ijtimoiy moslashuv muammosi bilan shug’ullangan olimlar tadqiqotlari

IV.BOB. Aqli zaif o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish

4.1.Aqli zaif o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan psixologik xizmat.

Maxsus muassasalarda faoliyat ko‘rsatuvchi psixolog quyidagi xususiyatlarga: sabr – toqatli, ijobiy munosabatli, his qila olish, boy tasavvurga ega bo‘lish, ishonchlilik, moslashuvchanlik, yuqori aqliy saviyaga ega bo‘lishi kerak.

Aqli zaif bolalar bilan ishslashda psixolog o‘z kasbiy faoliyatida quyidagilarni bilishi kerak:

1.Insonning psixik rivojlanishi, hayotning turli davrlarida uning yosh xususiyatlari qonuniyatlarini;

2.Insonning fe’l – atvori, ruxiyatiga xos individual xususiyatlarning namoyon bo‘lishi va anatomik – fiziologik rivojlanishning o‘ziga xosliklarini;

3.Guruh va jamoalar rivojining qonuniyatları, turli yosh bosqichlarida insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, jamoada ijobiy psixologik mikro iqlim tarkibiy qismlarini;

4.Bolalar va o‘spirinlarni ko‘zdan kechirish va tekshirishning zamonaviy uslublari, psixologiyaning bolalarga oid ijtimoiy va boshqa soxalardagi zamonaviy yutuqlaridan xabardor bo‘lishlari kerak.

Psixolog o‘z faoliyatida quyidagi vositalardan foydalanishlari mumkin: maslaxat berish, psixologik trening, psixokorreksiya, psixoterapiya va psixologik ma’rifat ishlarini olib borish.

Xar bir maxsus mакtab muassasalari o‘z kontingentidan kelib chiqib eshitish, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan, aqli zaif, nutqiy nuqsonli va boshqa jismonan cheklangan bolalar xususiyatlariga ega. Shuning uchun psixolog ish uslubi va shakli, vazifalarining o‘ziga xosligi bolalar muassasasining turiga bog‘liq. Bu muassasalar psixologining asosiy vazifasi turli diagnostik markazlar

psixologidan farqi-jismoniy va intellektual kamchiliklar orqali yuzaga kelgan rivojlanishning u yoki bu buzilishlarni psixologo-Psixologik korreksiyalashni ko‘zda tutadi. Psixologik xizmat shakllanayotgan bosqichda maxsus muassasalarda asosiy masalani hal kilish psixologik diagnostik ko‘rik o‘tkazishni talab qiladi, negaki bolalarning ko‘p qismida diagnostik markazlarning korreksion yordam xarakterini ko‘rsatuvchi xulosalari yo‘q. Bolalarni ko‘rikdan o‘tkazish yuqorida tasvirlangan qoida va sharoitlarga rioya qilgan xolda o‘kaziladi. Asosiy diqqat bolaning ko‘rik o‘tkazilayotgan paytdagi umumiy xolati, uning jismoniy va intellektual kamchiliklarga qaratiladi. Undan tashqari psixolog unga topshirilgan bolalar kontingentining rivojlanish xususiyatlari, norma va patologiyada yosh xususiyatlari, normal rivojlanayotgan bolalarda psixik jarayonlar o‘tish qonuniyatlarini bilishi kerak. Diagnostik ko‘rikda bola tarbiyalanayotgan ijtimoiy sharoitlar: uning oilaviy sharoiti, ota-onalarning ijtimoiy mavqelarni bilish muxim. Psixodiagnostik ko‘rikning asosiy maqsadi - bola rivojlanishi xususiyatlarini aniqlash. Ularni aniqlab bo‘lgandan so‘ng psixolog defektolog, logoped va psixolog va ota-onalar bilan birga korreksion rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim muassasalari faoliyatining o‘ziga xosligini nazarga olib, psixolog o‘z ish rejasini aynan shu toifadagi bolalar bilan individual ishlashga, ularning sog‘ligini tiklashga qaratadi.

Nutqiy, ruhiy-asabiy, harakat a’zolaridagi kamchiliklarni bartaraf etishda saqlanib qolgan faoliyat va imkoniyatlaridan to‘la foydalanish yo‘llarini izlaydi va bu borada muassasa vrachi va defektologlari bilan hamkorlik qiladi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim muassasasi psixologi tavsiya etilgan tashhis metodikalaridan, bolalarning yoshi, jinsi, sog‘ligi, kasallik turlariga qarab foydalanadi, olingan ma’lumotlarni muassasa defektologlari bilan bиргаликда muhokama etadi, bolalarning sog‘ligini tiklashda bevosita ishtirok etadi. Maxsus ta’lim muassasalarida xar bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini yanada to‘larok ochish orqali, bilimlarni puxta egallahashga, o‘quvchilarni faol mustakil hayotga tayyorlashni yaxshilash, jamiyatga moslashishda yordam berish ishlarini

olib boradi. Uni amalga oshirish uchun psixolog bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida yuzaga keladigan ko‘p masalalarni hal kilib, kundalik qiyinchiliklarni yengishi kerak.

Bolalarni mактабда o‘kishга tayyorligini aniqlagandan so‘ng, o‘qituvchi, oftalmolog va defektolog metodist bilan birga bolalarni mактабга moslashuvi, bilish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish maksadida bolalar bilan individual ishslash dasturini ishlab chikaradi. Dasturni amalga oshirishda mактаб Psixologik jamoasiga yordam beradi.

O‘quvchilarning individual imkoniyatlari xususiyatlari va har bir ish bosqichiga mos rivojlanish vazifalarini hisobga olib defektolog-tarbiyachi va ota-onalar bilan birgalikda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. O‘quvchilar hayotining o‘qish davrlarida bolalarni kat’iy doimiy nazorat ostida turadi. Tarbiyaviy o‘quv jaraening normal kechishiga to‘sqinlik qiluvchi o‘quvchilardan intellektual, shaxsiy va xissiy-irodaviy xususiyatlarini tashxislaydi, defektolog va ota-onalar jamoasi bilan birga ularni korreksiyalashni amalga oshiradi. O‘zlashtira olmaydigan va intizomsiz o‘quvchi bilan tashxisiy-korreksion ishlar o‘tkazadi. O‘quvchilarning, o‘qituvchilar, tengdoshlari, ota-onalari va boshka kishilar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarning buzilishining psixologik sabablarini aniklaydi va bartaraf etadi.

Mактаб ma’muriyati, o‘qituvchilar kollektivini, ota-onalarga aqli zaif bor bolalarni o‘qitish tarbiyalash va rivojlantirish muammolari bo‘yicha maslaxat beradi, ularning bilish xususiyatlarini xisobga olib diqqati, tafakkuri, idroki tasavvurlari, xotirasi, fikrashi, xarakteri va boshkalarni rivojlanishi to‘g‘risida tavsiyalar beradi. O‘qitish rivojlantirish, xaetda o‘z o‘rnini topish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, kattalar va tengdoshlari bilan mulokot qilish masalalari bo‘yicha individual va guruhli maslahatlar beradi.

Nuqsonli rivojlanish turlariga qarab bolalarning har biriga individual yondashgan holda ularga kasbiy tasavvurlar berish, kasb-hunarga yo‘naltirish va kasbga tayyorlash ishlarini murabbiy va pedagoglar bilan birgalikda olib boradi,

maktabdan keyingi hayot yo‘lini aniq va ijtimoiy maqbul tarzda rejalashtirishda ota-onalar va homiylar bilan hamkorlik qiladi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim muassasasi psixologgi tibbiy, pedagogik-psixologik ko‘rik komissiyasi ishida psixologik muammolar bo‘yicha o‘z taklif va xulosalari bilan ishtiroy etadi.

Psixologik xizmat turli psixologlar oldida turgan vazifalariga muvofiq ikki yunalishda ko‘rib chiqiladi; Psixologo-tibbiy-pedagogik konsultatsiya-P.T.P.K; turli markazlar (tashxisiy, davolash-tashkiliy konsultativ) xamda maxsus ta’lim muassasalari

Normal psixologik rivojlanishda u yoki bu tomonga og‘ishi bo‘lgan bolalarni kurikdan o‘tkazish-diagnostik konsultatsiya va markazlarning asosiy vazifalardan biridir. Bu ko‘riklarning asosiy maqsadi-bolani xar tomonlama o‘rganish, uning ruxiy jismoniy rivojlanishi buzilish sabablarini aniqlash, uni ruxiy-pedagogik korreksiyalash va davolashning mumkin bo‘lgan yullarini topish. Bunday komissiyalar va markazlar ishida xam asosiy rol psixologga tegishli bo‘ladi. Bolalar ko‘rigi xulosalarida xatolar va farq qilishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun bolalar rivojlanishdagi og‘ishlarning psixologik tashxislashning quyidagi umumiy qoidalarga amal qilishi zarur.

Birinchi qoida shundan iboratki, psixologik ko‘rik kompleks tibbiy-fiziologik psixologo-pedagogik va ijtimoiy ko‘rikning zaruriy tarkibiy qismidir. Psixologik ko‘rikdan avval tug‘ruq va xomiladorlikning qanday kechgani, bola analizi, oilaning ijtimoiy mavqeい, bolaning oilada yoki maktabgacha ta’lim muassassalari bog‘chasida tarbiyalanayotgani tug‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishiladi. Undan tashqari bola qaerda va qanday o‘qitilib-tarbiyalangani, korreksion-pedagogik yordam olgan - olmaganligi, olgan bo‘lsa qandayligi aniqlanadi.

Ko‘rikdan oldin bolaning somatik-klinik mavqe xolati xaqidagi umumiy klinik (pediatr va terapevt) ko‘rish funksiyalarining to‘liq tavsiflangan, ko‘zning utkirligi, diagnoz, ko‘z tubining xolati, rangni ajratish, ko‘z xarakati funksiyalari va boshqalar oftalmolog, otoloringolog, psixonevrolog, audiolig (nafaqat

sub'ektiv audiometriya balki yashirin imkoniyatlarni yuzaga chiqarib ob'ektiv) xulosalarni olish zarur. Elektro - ensefalografik tatqiqot ma'lumotlari muxim.

Bola haqidagi xar tomonlama aniq ma'lumotlarni to'plagandan so'ng psixologik ko'rikning xar tomonlamaliliginini amalga oshirishga o'tish mumkin.

Bu 2-qoida o'z ichiga bola psixikasini o'rganishning xar tomonlama bilish xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Uchinchi qoida - ko'rيلayotgan bola yoshi va uning rivojlanishining taxminiy darjasidir. Ko'rik uchun taqdim etilayotgan materialning shakli va mazmuni bunga mos kelishi shart. Ayniqsa birinchi va ikkinchi yosh bolalar uchun shu maqsadda o'z ichiga qo'shimcha bo'limlarni olgan 9 ta asosiy yosh bosqichlari ajratiladi. Ularga quyidagi bosqichlar kiradi xayotning birinchi yildan boshlab to 18 yoshigacha va kattaroq yoshlar.

To'rtinchi qoida shundan iboratki, ko'rik bola uchun odatdagi faoliyat shaklida o'tish kerak. Undan tashqari psixolog bolani asta-sekin predmetli xarakat va ular bilan turli muloqot turlariga jalb qilish zarur. 3 yoshli va bog'chagacha yoshdagi bolalar ko'rigi psixolog tomonidan o'yin shaklida tashkil qilingan rasm chizish va konstruktiv faoliyat ko'rinishida amalga oshadi.

Bu ko'rikning asosiy qismi nutqiy muloqotdan iborat 4-5 yoshdagi bolalar uchun kurikda faoliyatning xudi o'sha asosiy turlari saqlanib qoladi. Lekin shu bilan birga tekshiruv jarayoniga talab ortib boradi. Kattalar tomonidan bolalarga berilayotgan topshiriqlarda kattalar bilan bolalar o'rtasidagi muloqot elementlara kiritilgan.

6 yoshdan boshlab predmet-amaliy va o'yin faoliyatini majburiy o'z ichiga olgan amaliy muloqot ustunlik qiladi. 10 yoshli bolalar kurigi o'quv xarakteridagi topshiriqlar shaklida o'tkaziladi. Undan tashqari ko'rgazmali va chizishga oid topshiriqlar taklif etiladi.

Beshinchi qoida-xar bir yosh bosqichi uchun tashxisiy topshiriqlarni tanlash qat'iy ilmiy asoslangan bo'lishi shart.

Shunga muvofiq tashxislash uchun shunday topshiriqlardan foydalanish kerakki, ularni bajarish xarakteri ma'lum ilmiy malakaga mos kelsin. Shu tariqa

ruxiy faoliyaning topshiriqni to‘g‘ri bajarish uchun zarur bo‘lgan tomonlari aniqlanadi.

Oltinchi qoidaning asosi bajarish uchun taklif qilingan topshiriqning tushunarligidan iborat. Bola va o‘s mirga tug‘ri va oson bajariladigan topshiriqlar berilishi shart. Topshiriqlar xato bajarilgan xolatda, yanada kichikroq yoshga mo‘ljallangan topshiriq berib ko‘rish kerak. Shu taqlitda ko‘rikni topshiriq muvaffaqiyatli bajarilguncha davom ettirib, ko‘rik boshida notug‘ri bajarilgan topshiriqlarning murakkab variantlarigacha qaytish mumkin. Bunday usul ko‘rik boshidagi muvaffakiyatsizlik sababini aniqlash imkonini beradi. Bola funsional xolatidagi bu kamchiliklar vaqtinchalik-mi? yoki uning ruxiy rivojlanishi darajasi nisbatan past-mi?

Yettinchi qoida-ko‘rik kunigacha bola rivojlanishining maksimal imkoniyatlarini aniqlashga, ya’ni uning yaqin rivojlanish zonasini aniqlashga yunaltirilgan. Bu maqsadlarda, birinchidan tashxis to‘plami umumiylar yunaltirilgan, lekin turli darajada murakkab topshiriqlardan iborat bo‘lishi kerak. Bolaga murakkabligi ortib boruvchi topshiriqlar berilib, ulardan qaysi biri mustaqil yechish uchun qulay, qaysinisi qulaymasligi aniqlanadi. Ikkinchidan, avvalroqdan javob yoki amalning tug‘rimasligi va aniqmasligini ko‘rsatishdan diqqat bilan qarab, o‘ylab ko‘rishni taklif qilishdan iborat yordam turlari va xarakterini mo‘ljallab qo‘ymok zarur. Keyin yordam murakkab topshiriqlarni bajarish davomida taklif qilinadi. Bunday xolatlarda psixolog bola diqqatini topshiriqning yaxshi tushunilmagan yoki notug‘ri bajarilgan qismiga so‘z yoki ko‘rgazma shaklida ko‘rsatib jalb qiladi. Buning uchun topshiriqning ma’lum qismini yana bir bor o‘qib chiqish yoki takrorlash, taklif qilinadi, ob’ekt yoki chizmaning zarur joyi ko‘rsatiladi va x.k. Yordamning bu turlari samarasiz bo‘lganida psixolog topshiriqning bola xato bajargan qismini to‘g‘ri bajarishini ko‘rsatishi mumkin, so‘ng uni boshidan bajarishini so‘raydi. Aqliy va ko‘rgazmali – amaliy faoliyat mexanizmiga yanada ta’sirliroq kirish uchun noto‘g‘ri bajarilgan topshiriq yechilgan misoldan so‘ng bajarila olmaganga o‘xhash, ammo yengilrog‘idan foydalanish mumkin. U noto‘g‘ri bajarilsa

topshiriq yana soddalashtiriladi. Topshiriq to‘g‘ri bajarilganidan so‘ng birma-bir murakkablashgan variantlar taklif qilinadi.

Turli darajada murakkab topshiriqlarni mustaqil bajarish natijalari va berilgan yordam turlarining ta’sirchanligi bolalar, o‘smirlar ruxiy jarayonlari rivojlanish darajasini, xamda bu jarayonlardan korreksion-ta’lim-tarbiya sharoitida takomillashtirish va shakllantirishning taxminiy usullarini tavsiflashga asos beradi. Yuqorida bayon qilingan ruxiy diagnostik ko‘rik qoidalarini amalga oshirish, uchun uni o‘tkazishning ma’lum shartlarini bajarish zarur. Avval aytib o‘tilganidek, psixolog ko‘rik boshlanishiga qadar u xaqida barcha zarur ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart.

Psixologik ko‘rikning xar tomonlamaligi haqidagi qoidadan kelib chiqib, 6-7 yoshli bolalar uchun tashxis yig‘indisida qabul qilishni, ko‘rgazmali obrazli va ko‘rgazmali faoliyatli fikrlash tushunib anglash asoslari, obrazli va og‘zaki xotiraning xar xil funksiyalari va turlari, atrof muxit to‘g‘risidagi, mo‘ljal olish tasavvurlari, mayda motorika ko‘nikmalari va elementar matematik bilimlarni ko‘llashga qaratilgan topshiriqlarni ko‘zda tutish kerak.

Bola faoliyatini tashkil qilishni predmetlar, ularning tasvirlari, syujetli rasmlar bilan ishslashda, topshiriqlarni bajarishda kuzatish mumkin. Irodaviy sifatlar esa qiyinlashib boruvchi vazifalarni bajarishdagi qiyinchiliklarni yengishda ko‘zatiladi. Shaklan va mazmunan turli topshiriqlar bolalarda u yoki bu xissiy xolatlarni yuzaga keltiradi. Bolalardagi ahloq va ish qobiliyati xususiyatlari bir soat davomida 5-10 minut tanaffus bilan o‘tkazilgan to‘liq ko‘rik vaqtida ma’lum bo‘ladi.

Kattaroq yoki kichikroq yoshdagagi bolalar uchun ularning yosh xususiyatlarini xisobga olib tasvirlanganga o‘xshash topshiriqlar to‘ziladi.

Kattalar uchun qo‘srimcha qiziqishlari va qobiliyatlari, atrofdagilarga va o‘z-o‘ziga munosabat va boshqa, ya’ni ko‘rikdan o‘tuvchining shaxsiy xususiyatlarini aniqlash uchun maxsus topshiriqlar kiritiladi.

Psixologik tekshiruv tinch sharoitda, minimal miqdordagi, yorqin rangli bo‘laman, bolalarni chalg‘itmeydigan predmetlar bo‘lgan xonada o‘tkazilishi kerak. Bola o‘ziga ijobiy munosabatni xis qilishi kerak.

Tekshiruv yengil topshiriklardan boshlanadi, zarur bo‘lganda ko‘zda to‘tilgan yordam turlaridan foydalaniladi. Tekshiruvchi bolaning barcha xarakatlarini diqqat bilan ko‘zatadi.

Psixologda majburiy tartibda tekshiruv jarayoni xar bir gurux topshiriqlarni bajarilish vaqtini qayd qilib yozib borish uchun assistent bo‘lishi shart. Bola tekshirilayotganda uning onasi bo‘lishi mumkin. Lekin uning tekshiruv jarayoniga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi. Kuzatuv tugaganidan so‘ng psixolog ona bilan suxbatlashishi shart. Bolaga xulosa ikki bosqichda taerlanadi. Birinchi etapda psixolog assistent bilan birga barcha topshiriqlar natijasini taklif qilingan tizim bo‘yicha ishlab chiqadi, ularni muxokama qiladi, bilish qobiliyati, nutq, xissiy - irodani rivojlanish darajasi, bola axloqi xususiyatlari va uning psixik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarning taxminiy sabablari xaqida xulosalar qilinadi, ular tegishli muassasaga yo‘naltirib korreksion yordam xarakteriga oid masalani xal qiladi. Shundan so‘ng xulosalar shifokorlar va bolani ilgari ko‘rgan mutaxassislarga ma’lum qilinadi, birgalikda xulosalarni mazmuni aniqlanadi va bolani ko‘rikdan o‘tkazish natijalarining butun yig‘indisi baxolanadi.

Psixologik xizmatning ikkinchi turi – bu psixologning maxsus maktabgacha va maktab muassasalaridagi ishi.

Xar bir maktabgacha va maktab muassasalari o‘z kontingentidan kelib chiqib (eshitish, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan, aqli zaif, nutqiy nuqsonli va boshqa jismonan cheklangan bolalar) o‘z xususiyatlariga ega. Shuning uchun psixolog ish uslubi va shakli, vazifalarining o‘ziga xosligi bolalar muassasasining turiga bog‘lik.

Bari bir bu muassasalar psixologining asosiy vazifasi turli diagnostik markazlar psixologidan farqi-jismoniy va intellektual kamchiliklar orqali yuzaga kelgan rivojlanishning u yoki bu bo‘zilishlarni psixologo - pedagogik korreksiyalash.

Psixologik xizmat shakllanayotgan bosqichda maxsus muassasalarda asosiy masalani xal qilish psixologik diagnostik ko‘rik o‘tkazishni talab qiladi, negaki bolalarning ko‘p qismida diagnostik markazlarning korreksion yordam xarakterini ko‘rsatuvchi xulosalari yo‘q.

Bolalarni ko‘rikdan o‘tkazish yuqorida tasvirlangan qoida va sharoitlarga rioya qilgan xolda o‘kaziladi. Asosiy diqqat bolaning ko‘rik o‘tkazilayotgan paytdagi umumiy xolati, uning jismoniy va intellektual kamchiliklarga qaratiladi.

Undan tashqari psixolog unga topshirilgan bolalar kontingen廷ing rivojlanish xususiyatlari, norma va patologiyada yosh xususiyatlari, normal rivojlanayotgan bolalarda psixik jarayonlar o‘tish qonuniyatlarini bilishi kerak.

Psixodiagnostik ko‘rikning asosiy maqsadi-bola rivojlanishi xususiyatlarini aniqlash. Ularni aniqlab bo‘lgandan so‘ng psixolog defektolog, metodist, surdopedagog, tiflopedagog, logoped va b., tarbiyachi va ota-onalar bilan birga korreksion rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Afsuski, psixolog butun bolalar jamoasini diagnostik ko‘rikdan o‘tkazish va uning ustiga bolaning individual imkoniyatlarini va xususiyatlarini xisobga olib psixologik-pedagogik korreksion dasturlarini tuzishga qodir emas.

Diagnostik-korreksion ishni shuningdek o‘zlashtira olmaydigan va intizomsiz o‘quvchilar bilan ham olib borish zarur.

Psixolog maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar xayotidagi yoshning ulg‘ayishi va balog‘at yoshiga o‘tish vaqtida doimiy nazorat qilib turish kerak.

Bu bolalar bilan tarbiyachilar, o‘qituvchilar, tengdoshlari, ota-onalari va boshqalar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarning buzilish sabablarini aniqlash ustida xam ish olib borish kerak.

Psixologik ishning shakllaridan biri bolalar rivojlanishining, o‘qitish va tarbiyalashning psixologik muammolari, ularning diqqatini, xotira va qabul qilish qobiliyatini, fikrlashni, jismoniy va psixik funksiyalarining holati xususiyatlarini hisobga olgan xolda muassasa raxbariyati, pedagogik va ota-onalar jamoasiga maslaxat berish.

Maktab psixologiga o‘quvchilar o‘qish mobaynida, xayotda o‘z o‘rnini topish muammosi, o‘z-o‘zini tarbiyalash, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlar masalalari yuzasidan murojaat qilishlari mumkin.

Psixolog ishida psixologik ta’lim, pedagogik jamoa, ota-onalar, o‘quvchilarni psixologik bilimlarga jalb qilish muxim axamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim muasassalari va maktablarda psixologik xizmat tashxislash, korreksiya va rivojlanishni alohida ko‘rib chiqa olmaydi. Psixolog faoliyatida ular moxiyatiga ko‘ra bir turdagи ish tashxisiy korreksion yoki tashxisiy rivojlantiruvchidir.

Psixologning tashxisiy ishi bolalar bog‘chasida boshlanishi kerak. Shu maqsadda aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiligi bo‘lgan bolalarni iloji boricha kichik yoshdan rivojlanishda va maktab ta’limiga tayyorlashda zarur choralarни ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun juda bo‘lmasa 5 yoshdan hisobga olish lozim. Shu maqsadda yuqorida tasvirlangan qoidalarga binoan to‘liq diagnostik ko‘rik o‘tkaziladi, korreksion dastur tuziladi va agar bola bog‘chaga chiqmasa, ota-onalar ishtirokida amalga oshiriladi. Bir yil o‘tgandan so‘nggi ko‘rikda, bolani rivojlanishda oldinga siljishi, maktab ta’limi uchun yetarli darajaga yetganida uni 1-sinfga oladilar. Agar takroriy ko‘rikda bola maktabga tayyor bo‘lmasa, unda tayyorlanish muddati yana bir yilga cho‘ziladi. Bu xolatda boladan keyingi rivojlanishiga yordam beruvchi aloxida pedagogik tadbirlarni ko‘zda tutib, psixologik-pedagogik dastur tuziladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish boshlab psixolog bolani maktabga kirish davrini nazoratga oladi, bu vaqtida asosiy faoliyat turlari o‘yin o‘qishga almashishi yuzaga keladi. Maktab ta’limiga psixologik taergarlikni o‘z vaqtida baxolash o‘qitishda keyinchalik bo‘lishi mumkin, bo‘lgan qiyinchiliklarni oldini olishning asosiy vositalaridan biridir. Yodda tutish kerakki, psixodiagnostika bu bolalarni psixik xususiyatarini o‘z vaqtida korreksiyalash maqsadida aniqlash, aslo ularni u yoki bu psixologik va psixofiziologik belgilarga qarab ajratish emas.

Maktab psixologlariga o‘qituvchilar, tarbiyachilar, bolalarning o‘zlari psixokorreksion va maslaxat doirasida olib boradigan ishlariga beriladigan tavsiyalar tushunarli va aniq bo‘lishi shart. Maxsus ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning yuzaga kelish bosqichidagi uning asosiy maqsadi, ommaviy maktablarda xam, xar bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini yanada to‘laroq ochish orqali, bilimlarni puxta egallashga, o‘quvchilarni faol mustaqil hayotga tayyorlashni yaxshilash, jamiyatga moslashishda yordam berish-bu tub istiqbolli maqsaddir. Uni amalga oshirish uchun psixolog bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida yuzaga keladigan ko‘p masalalarni xal qilib, kundalik qiyinchiliklarni yengishi kerak. U o‘quvchining xayotga, xayotda o‘z o‘rnini topishga, jamiyatga moslashishi tayyorligini shakllantirish bilan tugaydi. Bu asosiy maqsadni bolalarni matabda o‘qitish va tarbiyalash davomida amalga oshirib borib psixolog nafaqat bolalarga balki o‘qituvchilar va ota-onalarga xam yordam beradi.

O‘quvchilarning individual imkoniyatlari xususiyatlari va xar bir ish bosqichiga mos rivojlanish vazifalarini xisobga olib o‘qituvchilar, defektolog-metodist va ota-onalar bilan birgalikda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. O‘quvchilar xayotining o‘tish davrlarida bolalarni qat’iy doimiy nazorat ostida turadi. Tarbiyaviy o‘quv jarayoning normal kechishiga to‘sinqinlik qiluvchi o‘quvchilardan intellektual, shaxsiy va xissiy-irodaviy xususiyatlarini tashxislaydi, pedagogik va ota-onalar jamoasi bilan birga ularni korreksiyalashni amalga oshiradi. O‘zlashtira olmaydigan va intizomsiz o‘quvchi bilan tashxisiy-korreksion ishlar o‘tkazdi. O‘quvchilar bilan o‘qituvchilar, tarbiyachilar, tengdoshlari, ota-onalari va boshka kishilar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarning bo‘zilishining psixologik sabablarini aniqlaydi va bartaraf etadi.

Maktab ma’muriyati, pedagogik jamoa, ota-onalar yordamga muxtoj bolalarni o‘qitish tarbiyalash va rivojlantirish muammolari bo‘yicha maslaxat beradi, ularning psixologiyasi, tafakkuri, diqqati, ongi, tasavvurlari, xotirasi, fikrashi, xarakteri va boshqalar rivojlanishi to‘g‘risida tavsiyalar beradi.

O‘qitish rivojlantirish, xayotda o‘z o‘rnini topish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, kattalar va tengdoshlari bilan mulokot qilish masalalari bo‘yicha individual va guruxli maslahatlar beradi.

O‘quvchilar bilan doimiy kasbga yo‘naltirish ishlari olib boradilar (ularning kobiliyatlari, qiziqishlarini aniqlab rivojlantiradi, adekvat o‘z-o‘zini baxolash, hayotiy rejalarini aniqlaydi va rivojlantiradi), bu ularni imkoniyatlarini xisobga olib kasbiy mavqeini anglash, mustaqil va ongli ravishda kasb, kasbiy faoliyat doirasini tanlashga olib keladi.

Maxsus maktablarda ular asosan internat tipida psixolog bir masalani xal qilishi kerak – “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi” kursini olib borishi kerak. Psixolog, o‘quvchilarni yaxshi bilgan xolda, ularning ko‘pgina qarama - qarshi xislarini tushunishga yordam berishi mumkin, madaniy va nozik xissiy kechinmalarni tarbiyalashda yordam beradi.

Undan tashqari psixolog jinslararo munosabatlarning murakkab muammolari, yigitlar va qizlar urtasida ma’lum munosabatlarni yuzaga kelishi nafaqat mumkin balki kerakligini, yekish, do‘stlashish, sevishni tushunishga tegishli ijobjiy iqlimni yuzaga kelishiga ta’sir o‘tkazadi. Bu haqida ko‘pincha oilada xam mакtabda xam unutadilar

Psixolog o‘z faoliyatini xamma narsani u juda yaxshi bilishi va aniqlashidan boshlashi zarur.

Psixik jarayonlarni rivojlantirish, xuddi korreksiya kabi uzoq davom etadi va natijasi birdan ko‘rinmaydi. Psixologik muammolarni xal qilish xar bir aloxida xolatda turlicha vaqt talab qiladi. U murakkabligiga qarab bir necha daqiqadan to bir necha oygacha o‘zgarishi mumkin.

Psixolog o‘z ishining birinchi davrida mакtabga moslashishi, mакtab esa unga moslashishi kerak. Bu vaqtda u mакtab raxbaryati, pedagogik jamoa, o‘quvchilar, ota-onalar, psixologning birinchi va bosh yordamchisi bo‘lgan okulist-oftalmolog va defektolog-metodist bilan (mavjudligiga qarab) vrach-pediatr yoki terapevt bilan suhbatlar o‘tkazadi. Pedagogik yig‘ilishlarda, ota-onalar majlislarida, darslarda qatnashadi.

Bunda alohida e'tiborni bolalarning eshitishi va ko'rishiga, ularning ko'rish idrokiga qaratish kerak. O'zi uchun xar bir o'quvchiga, eng avvalo kichik sinf o'quvchilariga ko'rik kartalari tutish kerak.

Majlislar va suxbatlarda o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari maktab psixologi ishining uslub va vazifalari bilan tanishtirish zarur. Psixolog maktabga ma'lum nuqsonli bolalar psixologiyasi soxasi mutaxassisi sifatida keladi. Undan tashqari u bolalar pedagogik va ijtimoiy psixologiyasi bilimlariga ega bo'lishi kerak. Uning ishi samarasi, o'quvchilarni rivojlanishiga yordam beruvchi asosiy psixologik shart-sharoitlarni qanchalik ta'minlay olishiga bog'liq.

Ma'lumki, maxsus maktablarda o'qitilayotgan bolalar kontingenti nafaqat ko'rish, eshitish va x.k. xolati balki psixik jarayonlar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish darajasini sezilarli xima-xilligi bilan tavsiflanadi. Undan tashqari ularda ko'prok birga kechadigan kasalliklar kuzatiladi. Ular orasidagi nutq-xarakat doirasi, buzilishlari, somatik kasalliklar keng tarqalgan. Ko'rishning buzilishi ko'prok psixik rivojlanishning ortda qolishi psixofizik og'ishlar bilan birga kechadi. Ko'rishi buzilgan o'quvchilar psixik rivojlanishini oldini olishda aloxida sharoitlar zarur. Bolalarda asosan ularning kundalik faoliyati jarayonida o'rganish kerak, ya'ni: tarbiyalab va o'qitib turib o'rganish bilan birga o'rgana turib tarbiyalash va o'qitish kerak. Bola psixologiyasini o'rganishning o'ta samarali yo'li shu maktab psixologi qo'llostida turli psixodiagnostik uslublar bor, lekin ular doim xam o'quvchilar xulqini tabiiy sharoitda ularning kundalik hayoti va faoliyati sharoitida kuzatish o'rniga o'ta olmaydi. Bunday kuzatuvni amalga oshirish imkoniyati fakat o'qituvchilar va tarbiyachilar va tarbiyaviy ishni amalga oshirishda o'qituvchi xam xal qiluvchi rolga ega. Maktab psixologi qo'yilgan bunday ishning tavsifi va umumiylazmuni aniqlaydi.

Korreksion ishni esa asosan pedagog va ota-onalar amalga oshiradilar. Lekin ishni shunday tashkil qilganda ham vaqt taqchilligi maktab psixologini o'z faoliyatini asosan qiyin o'quvchilarga yordam berish bilan cheklashga majbur qiladi. Aslida barcha o'quvchilar psixologik yordamga muxtoj.

Muammolar soniga-bilish faoliyatini, o'qish qobiliyatini rivojlantirish, o'qishdagi qiyinchiliklarni yengish, shaxslararo munosabatlar, o'ziga kasb tanlash.

Nixoyat, didaktik va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijalarini izchil baxolash zaruriyatini unutmaslik kerak.

Bularning xammasi mактабга psixologik xizmatni faqatgina psixologning ishi deb tasavvur qilish mumkin emas. Albatta, u bu xizmatning bosh yo'naltiruvchi shaklidir, lekin yakka emas. Psixolog ishida albatta butun pedagogik jamoa faol ishtirok etishi shart. Defektologning eng yaqin yordamchisi deb bilish muximdir.

Psixologik xizmat faoliyatini, undan tashqari mактаб pedagog xodimlarini o'ziga xos psixologlashtirish jarayoni deb qarash xam muxim. Mактаб psixologi - pedagogik jamoada umuman psixologiya fani va qisman oligofrenopsixologiya fani vakilidir.

Mактаб psixologik xizmati oldida turgan vazifalarga muvofiq oligofrenopsixolog xizmatini quyidagi asosiy turlarni aniqlash mumkin:

O'z ichiga aqli zaif bolalarning shaxsiy va bilish rivojlanishlarini chuqr tekshirishlarni olgan psixodiagnostika.

Aqli zaif bolalarning bilish va shaxsiy rivojlanishidagi izdan chiqishlarini yo'qotishga qaratilgan psixokorreksiya.

O'quvchilar, ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar tomonidan psixologga yechishda yordam so'rab kelingan muammolarni tez xal qilishda psixologik maslaxat berish.

Psixologik ta'lim-pedagogik jamoa, ota-onalar va o'quvchilarni psixologik bilimlarga jalb qilish.

Psixolog yechayotgan konkret vaziyatga, muammolar qarab ishning ko'rsatilgan turlaridan xar biri o'z vaqtida asosiy bo'lishi mumkin.

Aqli zaif bolalar psixodiagnostikasi asosiy vazifaga- aqli zaif bolalar shaxsi va bilish doirasi rivojlanishini korreksiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Psixologik xizmat deganda nimani tushunasiz.
2. Psixologik ko‘rikning umumiy qoidalari
3. Yordamchi maktab psixologi faoliyatiga izoh bering.
4. Psixologik xizmat yo‘nalishlari
5. Psixologik tashxis qoidalari
6. Psixolog, defektolog, ota-onalar xamkorligi
7. Psixologo-tibbiy-pedagogik konsultatsiya vazifalari
8. Psixologik tekshiruv qoidalari

4.2. Aqli zaif o‘quvchilar bilan olib boriladigan psixokorreksion ish turlari.

“Korreksiya” so‘zi lotin tilidan tarjima qilinganda (lot-correctio) tiklash, qisman to‘g‘rilash yoki o‘zgartirish ma’nosini anglatadi. “Ruhiy rivojlanishni (korreksiya qilish) tiklash” iborasi defektologiya fanidan birinchi marta rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarga ruhiy-pedagogik yordam ko‘rsatishning bir shakli sifatida ishlatilgan. U bola ruxiy va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarini, kamchiliklarni to‘g‘rilash o‘rnini to‘ldirishga qaratilgan pedagogik ta’sirlar yig‘indisini anglatgan.

Amaliy psixologiya fanining rivojlanib borishi bilan “tiklash” tushunchasi nafaqat rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan, balki ruhiy sog‘lom bolalar psixologiyasi va ularga ruhiy yordam ko‘rsatishda ham keng qo‘llanila boshlandi.

Ruhiy tiklashning ta’sir doirasini sog‘lom bolalar bilan ishslashda ham keng qo‘llanilishi quyidagi sabablarga bog‘liqdir.

1. O‘qitish tizimiga yaxshi o‘zlashtirishi uchun bolaning ijodiy va intellektual zaxira kuchlarining maksimal rivojlanishi talab qilinadigan yangi dasturlarning faol kiritilishi.

2. Bolalarni o‘qitishda har biriga alohida yondoshuvchi va har bir o‘quvchining ruhiy xususiyatlarini hisobga oladigan, shu bilan birga ruxiy – pedagogik tiklashning turli usullari yordamida maorif tuzimini odillashtirish.

Shu tufayli, rivojlanishidagi nuqsonlarni to‘g‘rilashdan, toki sog‘lom bolani ruxiy rivojlanishini keng qo‘lash imkoniyat va sharoitlarini barpo etishga qaratilgan ruhiy tiklash ta’sir kuchlari vazifalari va yo‘nalishlarining aniq o‘zgarishlari yuzaga keladi.

Hozirgi vaqtda ruhiy tiklash bolalar va o‘smirlarga ruhiy yordam ko‘rsatishda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ruhiy tiklash tushunchasining keng qo‘llanilishiga qaramasdan, uni amaliyatda qo‘llash borasida turli xil kelishmovchiliklar mavjud.

Masalan: ayrim mualliflar (A. S. Spivakovskaya, 1988) ruhiy tiklashni, bolalardagi asab-ruhiy o‘zgarishlarning oldini olish yo‘llaridan biri deb hisoblaydi. Boshqalar esa, bola shaxsiyatining va intellektual zahira kuchlarining rivojlanishidagi qulay imkoniyat va sharoitlarni vujudga keltirishga qaratilgan ruhiy ta’sir ko‘rsatish usuli, (G. V. Burmenskaya, O. A. Karabanova, A. T. Lidere, 1990) yoki ruhshunos tomonidan ruhiy sog‘lom odam xulqini yoki ruhiyatini to‘g‘rilashga qaratilgan usullar yig‘indisi sifatida (R. S. Iyeyemov, 1993) tushunishmoqda.

Ruhiy tiklash maxsus psixologiya va patopsixologiyada bola ruhiy rivojlanishidagi buzilishlarni to‘g‘irlashga yo‘naltirilgan ruhiy ta’sirning bir usuli sifatida o‘rganiladi.

Aksariyat hollarda, ruhiy tiklash tushunchasida, psixoterapiya tushunchasi bilan almashtiriladi. Psixoterapiya (Grek tilidan psyche – qalb va therapeia – davo, tarbiya) – bu tashkil etilgan davo tadbirlarining maxsus usullari tuzimidir. Ruhiy tiklash esa shu iboradan kelib chiqqan holda, tiklashga, ya’ni u yoki bu buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan. Lekin, ruhiy tiklash va psixoterapiya tushunchalari o‘rtasidagi tafovut ularning shaxsga maxsus ta’sir ko‘rsatishi bilan emas, balki psixoteropiya bilan faqat maxsus tibbiy ma’lumoti bor mutaxassislar ruhiy tiklash bilan esa ruxshunoslari (psixologlar) shug‘ullanadi degan fikrlar

tufayli yuzaga kelgan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, psixoterapiya xalqaro tushuncha hisoblanib, jaxonning ko'pgina mamlakatlarida tom ma'noda ruxshunos mutaxassislari tamonidan amalga oshiriladigan usullarga nisbatan qo'llaniladi.

Biz ruhiy tiklash va psixoterapiyaga, ruhiy ta'sir ko'rsatish usuli sifatida qarashimiz mumkin. Bir qator mualliflar qo'llanilish doirasiga qarab, psixoteropiya va ruhiy tiklash o'rtasida farq borligini ta'kidlaydilar.

Agar, psixoterapiya asosan nevrozlar va turli psixosomatik kasalliklarni davolashda qo'llanilsa, ruhiy tiklanish esa ruhiy shifoxonalargada keng qo'llaniladi. (V. P. Kritskaya, T. K. Meleshko, Y. F. Polyakov, 1991). Boshqa mualliflar esa, ruhiy tiklash ta'sir doirasini bevosita tibbiy psixoterapevtik masalalarni ham etish bilan birgalikda ularni oldini olish maqsadida ham qo'llanilishini ta'kidlaydilar (R. A. Zashepitskiy 1983, G. A. Isurina 1983). "U yoki bu buzilishlarining rivojlanishida ruhiy va ijtimoiy – ruhiy sabablarning ta'siri qanchalik ko'p ahamiyatli bo'lsa, - deb yozadi G. L. Isurina, - ruhiy tiklash usullari nisbati shunchalik ko'p bo'ladi".

A.A.Osipova esa, ruhiy tiklashning: klinik sog'lom kishilarga qaratilgan;
Shaxsning sog'lom tomonlariga qaratilgan;

Shaxsning xulq-atvoriga va rivojlanishining o'zgarishlariga yo'naltirilgan maxsus qirralarini alohida ta'kidlaydi. Muallifning, psixoterapiyadan farqli ravishda, faqat nosog'lom shaxslargina ruhiy tiklash manbai bo'lishi mumkin degan fikirlariga qo'shilib bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, ruhiy tiklash jarayonida bemorlar bilan bir qatorda sog'lom shaxslar ham qatnashishi mumkin. Sog'lom, ya'ni rivojlanishi biologik manbalar bilan og'irlashmagan bolalarni ruhiy tiklashning asosiy maqsadi: ularga to'liq ruhiy va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat.

Noto'g'ri (anomal) rivojlanishni ruhiy tiklash bilan tibbiy ruxshunoslar, pato- va neyroruhshunoslar shug'ullanadilar.

Noto'g'ri rivojlanishning har bir ko'rinishi o'ziga xos maqsad, vazifa va ruhiy tiklash usullari mavjud. Masalan, bolalar ruhiy kasalliklarida (bolalarning

erta autizm sindromi, shizofreniya va boshqalar), ruhiy tiklash bolaning kayfiyatini ko'tarish, uning sharoitiga moslashuvini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini vujudga keltirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bolalarning somatik kasalliklarida, ularni o'z-o'zini baholash qobiliyatini, ruhiy tiklash, kasallikning kechishiga xos va mos qarshi reaksialarini ishlab chiqish, shaxsiy nazoratni takomillashtirish, bolada sharoitga moslashuvni tiklash asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi kechikayotgan bolalarda, kechikish ko'rinishiga qarab, ularning atrof-muhitga qiziqish faolligini rivojlantirish, faoliyatining sharoitni baholash qobiliyatini rivojlantirish, intellektual va mnistik vazifalarini optimallashtirish va nazoratga yo'naltirilgan bo'ladi.

Anomal rivojlanishni ruhiy tiklash jarayonida bola rivojlanishi xususiyatlarining murakkab tomonlarini kasallik bilan bog'liq bo'lgan rivojlanishidagi ijtimoiy sharoitlari, shaxsiyati o'zgarishining darjasini kabi holatlarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, ruhiy tiklashni keng va tor ma'nolarda ko'rib chiqish mumkin. Ruhiy tiklashni keng ma'noda bolalar shaxsiy xususiyatlari va ruhiy vazifalari rivojlanishdagi kamchiliklari aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan klinik-ruhiy-pedagogik ta'sirlarni tushunamiz. Tor manodagi ruhiy tiklash deganda, bolaning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishini muvofiqlashtirish, ruhiy vazifalar va jarayonlar rivojini optimallashtirishga ruhiy ta'sir usuli tushuniladi.

D. B. Elpon, ruhiy tiklashning yo'nalishi va aniqlash usuliga qarab uni ikki turga bo'lib o'rganishini tavsiya qiladi:

rivojlanishdagi siljishlar belgilariga qaratilgan – simptomatik va rivojlanishdagi siljishlar manbai va sabablarini yo'qotuvchi ruhiy tiklash.

Bolalardagi bir xil belgilar turli sabablar oqibatida kelib chiqishi va shuftufayli, bolaning ruhiy rivojlanishiga turli xil ta'sir ko'rsatishi mumkunligi sababli simptomatik ruhiy tiklash muayyan kamchiliklarga ega. Masalan, Enurez (**peshobni** ushlab turolmaslik) kasalligi bo'lgan bolalar uchun, bu nuqsonni

bartaraf etishga qaratilgan mushaklarni bo'shashtirivchi maxsus mashqlar foydali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, asosan favqulodda holatlarda, ruhiy tiklash to'liq o'tkazilganligiga qaramasdan bu holat qayta takrorlanishi mumkin. Agar biz ekurezning asosiy sabablarini bilsak, ruhiy tiklashning bu usuli yetarli bo'lmaydi. Bu xolat psixogen (masalan, boladagi qo'rquv) yoki biologik (ichki a'zolar anomaliyasi) tufayli ham bo'lishi mumkin.

Shu sababli, ruhiy tiklash rivojlanishdagi siljishlarning tashqi belgilari emas, balki bu siljishlarni keltirib chiqargan manbalarga chuqur asoslangan bo'lishi kerak.

Rivojlanishda muammolari bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan amaliy, ruhiy tiklash ishlarida rivojlanishdagi buzilishlarning bir nechta turlari farqlanadi.

Biologik – miya ichki tuzilishi rivojlanishining susayishi bilan bog'liq buzilishi sababari.

Tibbiy – bola rivojlanishidagi buzilishlar sabablarini kasallik sifatida tushuntiriladi. (kelib chiqishi, rivojlanishi, klinik belgilari).

Interraksion model- bolalar va o'smirlar rivojlanishidagi siljishlarni shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarning buzilishi sabablari bilan bog'laydi. Masalan: Erta vujudga kelgan sensor va ijtimoiy deprivatsiya, bu yo'nalish tarafdarlarining fikriga, bolaning ruhiy rivojlanishida qaytarib bo'lmas o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Pedagogik model – bolaning ruhiy rivojlanishidagi ijtimoiy va pedagogik o'quvsizlik natijasidagi buzilish sabablarini o'rganadi.

Faoliyat modeli – bolada yetakchi faoliyat turining vujudga kelmaganligi oqibatida yuzaga kelgan nuqsonlar sabablarini o'rganadi.

Ruhiy tiklash tamoyillari Ruhiy tiklash samaradorligi asosan, ruhiy tuzilish nuqsoni va uning sabablari tahliliga bog'liq bo'ladi. Bola anomal rivojlanishining o'ziga xosligi va murakkabligi, uning tahlili va ruhiy tiklash ta'sirlarga chuqur uslubiy yondashishni talab qiladi. Boshlang'ich g'oyalari asosiy hisoblangan prinsiplarni ishlab chiqish, ruhiy tiklash nazariyasi va amaliyotida o'ta muhim

hisoblanadi. Ruhiy tiklanishning asosiy g'oyalari hisoblangan asosiy prinsiplar, psixologiyaning quyidagi fundamental hollariga asoslangan:

- Shaxs- bu butun hayoti davomida ommaviy ong va hatti-harakatlarni o'zlashtirish natijasida shakllangan murakkab yagona psixologik tuzilma hisoblanadi (B.G. Ananев, L.I. Bojovich, L.S. Vigotskiy, P.Y. Galperin, V.V. Davidov, A.V. Zaporojets, Leontev, S.L. Rubinshteyn, D.B. Elkonin).
- Bolaning ruhiy rivojlanishi va shaxsiyati kattalar bilan muloqatda bo'lgandagina shakllanishi mumkin (Lisina, Lomov va boshqalar).
- Yetakchi faoliyatning shakllanishi bola ruhiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, maktabgacha bo'lgan davrda o'yinlar, boshlang'ich sinflarda o'quv faoliyati (D.B. Elkonin va boshqalar).
- Anomal bola rivojlanishining ham xudi sog'lom bola rivojlanishidagi qonunlar asosida amalga oshadi. Yaxshi o'ylab chiqilgan sharoitlar mavjud bo'lganda hamma bolalar rivojlanish qobiliyatiga ega bo'ladilar (L.S. Vigotiskiy, M. Montessari).

Yagona klinik- ruhiy-pedagogik ta'sirlar yig'indisi sifatida ko'rinish mumkin bo'lgan- ruhiy tiklash komplekslilik tamoyil anomal rivojlanishdagi ruhiy tiklashning muhim tamoyil hisoblanadi.

Ruhiy tiklanish samaradorligi, ma'lum darajada bola rivojidagi klinik va pedagogik sabablarining hisobga olinishiga bog'liq bo'ladi. Masalan: Agar, ruxshunos klinikada bolalarning muloqot jarayonining optimallashtirish maqsadida o'tkazayotgan kommunikativ mashg'ulotlarda **o'zga** muhitni yoki klinik sabablarni hisobga olib, bu mashg'ulotlar o'z natijasini bermaydi.

Ruhiy tiklash ikkinchi tamoyili bu aniqlash va ruhiy tiklanishning uyg'unlashuvi tamoyili. Bolaga ruhiy tiklash kerakligini hal qilishdan oldin uning ruhiy rivojlanishining o'ziga hos tamoillarini, ma'lum psixologik yangiliklarni taraqqiy etish darajasini, o'zining yoshiga nisbatan shaxsiy va boshqa shaxslar bilan aloqalari, bilish qobiliyati, ko'nikmalari darajalarining mos kelishini aniqlash lozim bo'ladi. Ruhiy tiklash ishini vazifalari bolaning yaqin va aktual rivojlanishi chegaralarini to'liq ruhiy aniqlangandagina to'g'ri qo'yilishi

mumkin. L.S. Vigotskiy “....rivojlanishni aniqlashda izlanuvchining vazifasi, faqatgina ma'lum belgilarni aniqlash va ularni sanab o'tish yoki tartibga solish, hamda tashqi o'xhash belgilarni guruxlashdan emas, balki, bu tashqi ma'lumotlarni fikran qayta ishlab chiqish yordamida rivojlanish jarayonining ichki tub mohiyatiga kirib borishga bog'liqdir” deb ta'kidlaydi (Vigotskiy L.S. 1983).

D. B. Elkonin ruhiy tashxis qo'yish bolalarni tanlab olish emas, balki, ularning rivojlanishi ustidan aniqlangan buzilishlarni ruhiy tiklash maqsadida nazoratga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Rivojlanishdagi aniqlangan buzilishlarni tuzatishni o'z vaqtida ertaroq boshlash uchun rivojlanish jarayoni borishini nazorati alohida e'tibor bilan olib borilishi kerak- deb ta'kidlaydi.

Aniqlash va ruhiy tiklash usullari tizimi va tanlovi bolaning kasalligiga, uning yosh jihatlariga, har bir yosh davriga mos asosiy faoliyati hususiyatlariga xos bo'lishi kerak. Ruhiy diagnostika va ruhiy tiklash bir- birini to'ldiruvchi jarayonlar hisoblanadi. Ruhiy tiklash muolajasining o'zida juda katta diagnostik imkoniyatlari mavjud. Masalan: insonning moslashuv qobiliyati hech qaysi psixologik tekshiruv o'tkazganda ham, ruhiy tiklashning guruh bo'lib o'tkaziladigan mashg'ulotlardagi kabi ochilmaydi. Bolaning ruhiy kechinmalari turli o'yinlar vositasida o'tkazilgan ruhiy tiklash mashg'ulotlarida to'laligicha chuqur ko'rindi. Bir vaqtning o'zida, ruhiy diagnostika ruhiy tiklash imkoniyatlarni ham o'z ichiga oladi, Xususan ma'rifiy tajriba o'tkazilganda ishlatiladi.

Ruhiy tiklanishning uchinchi tamoyili – bu, shaxga yondashuv tamoyilidir. Shaxsga yondashuv – bu bolaga, uning barcha murakkab va shaxsiy hususiyatlarini butunligicha hisobga olgan holda yondashuvidir. Ruhiy tiklash jarayonida shaxsning qaysidir alohida vazifasi yoki ajratilgan ruhiy holatini emas, balki butun shaxsni nazarda tutamiz. Ruhshunos, ruhiy tiklash ta'sirining turli usullaridan foydalanganda faqatgina umumlashtirilgan meyorlar (yoshi, jinsi, kasallik turlari) gagina tayanmasligi kerak. Spivakovskayaning fikriga

ko‘ra, ruhiy tiklash jarayonida biz faqatgina qaysidir bir belgiga emas balki, “har bir ruhiy tiklash ishtirokchisining u yoki bu ruhiy sifatlarini rivojlantirishga sharoit yaratishga e’tibor berishimiz kerak” (Spivakovskaya A.S. 1988,54 b.)

To‘rtinchi tamoyil – bu ruhiy tiklanishning ierarxik (ko‘tarilib boruvchi) tamoyili, L. S. Vigotskiy qarashlariga asoslangan. Uning fikriga ruhiy tiklashning asosiy mohiyati sifatida, bolaning faoliyati va shahsiy rivojlanishining yaqin chegaralarini tashkil etish lozim bo‘ladi.

Shu tufayli, ruhiy tiklash, bola yoshining o‘ziga xos mohiyatini tashkil etivchi psixologik yangi tuzimalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan holda ko‘riliishi lozim. Bolada mavjud bo‘lgan ruhiy qobilyatlarni mashq qidirish, ruhiy tiklash ishlarini samarali qilmaydi, chunki bu holda o‘qitish rivojlanishni yangi sifatli o‘rniga ko‘tarmasdan, faqatgina uning faqat miqdoriy jihatdan o‘sishini takomillashtiradi. Masalan: **Assounativ** ruxshunoslar fikriga ko‘ra bola aqliy rivojlanishi ruhiy tiklash boladagi sensomotor qobilyatlarini rivojlanishga mo‘ljallangan maxsus mashqlar ko‘rinishida o‘tkazilishi lozim (M. Montessori) ruhiy tiklanish markaziga bola ruhiy rivojlanishining sensomotor vazifalarni murakkablashtiruvchi miqdoriy jarayon sifatida tushuniladigan mavjud o‘lchami joylashtiriladi. Bola rivojlanishining yaqin chegarasiga mo‘ljallanib o‘tkaziladigan ruhiy tiklash bolaning maxsus faolligini talab etadi va ilgarilab boruvchi xarakterga ega. Boladagi mnemik vazifalarini ruhiy tiklash uchun fikrlash jarayonlari (tahlil, sintez, umumlashtirish)ni rivojlanish zarur.

Bolaning mavzularni eslab qolish jarayonida fikirlash qobilyatlarini ishlatganda, oddiy yod olish mashqiga qaraganda eslab qolish samaradorligi yaxshi bo‘ladi.

Oltinchi tamoyili – ruhiy tiklashning kazual prinsipining ishlatilishi bola ruhiy rivojlanishidagi buzilishlarning manbaalari va sabablarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan kassalik belgilari va ularning sabablari o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab **nerarxiyasi** (rivoji) buzilishining tashkil etilishi ruhiy tiklashning maqsad va vazifalarini belgilaydi. Masalan: bolalardagi xulq

atvor va enotsional buzilishlarga birinchi sabab ijtimoiy sabablar bo‘lagni kabi, biologik sabablar yoki ularning qo‘shilishi ham bo‘lishi mumkin.

Agar bolaning emoqnonal buzilishlarining sabablari oilaviy mojarolar bo‘lsa, ruhiy tiklash jarayoni oilaviy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Agar markaziy asab tizimining rezidual – organik yetishmovchiligi **emosional** buzilishning sababi bo‘lsa, dori – darmonlar bilan birgalikda emoqional muvozanat buzilishini pasaytiruvchi mashg‘ulotlar ruhiy tiklash asosiy bo‘lishi lozim.

Ruxiy tiklash usullarining klassifikatsiyasi (tasnifi)

Ruhiy tiklash ishini tashkillashtirish usullariga qarab ikki asosiy qismga ajratiladi yakka holda va guruh bilan.

Yakka holda o‘tkaziladigan ruhiy tiklashda ruxshunos tomonidan ma’lum bir bolaga bevosita ta’sir o‘tkaziladi va buning uchun turli yo‘llarda foydalinadi.

Guruh bilan o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda esa yosh jihatidan bir xil va o‘xhash muammolarni bo‘lgan bolalar guruhi bilan o‘tkaziladi.

Buholda guruh ishtirokchilariga maxsus jarayon tashkil etish yo‘li bilan maqsadga erishiladi.

Ruhiy tiklash masalalariga qarab, uning quyidagi turlarini farqlash mumkin: o‘yinlar yordamida ruhiy tiklash, oilaviy, **netropsixologik**, shaxsiyatni rivojlantirishni ruhiy tiklash va boshqalar.

Ruhiy tiklash ta’sirlari tabiatning yo‘nalishiga qarab ikki qismga bo‘linadi: simptomatik va kazual, tiklash ta’sirlariga qarab direktiv va podirektiv turlarga bo‘linadi.

Bir qator mualliflar ruhiy tiklash tashkillashtirishni uch turga bo‘lishni tavsiya qilishadi: umumiyl, xususiy va maxsus ruhiy tiklash.

Umumiyl ruhiy tiklash deganda – bolaning ijtimoiy muhitini mutadillashtiradigan umumpedagogik tadbirlar tushuniladi. Unga bolaning yoshi va shaxsiy qobilyatlariga mos **psixofiziologik** va emotSIONAL mashqlarni muvofiqlashtirish kiradi. Umumiyl ruhiy tiklash vazifalari ruhiy gigiyena, ruhiy

profilaktika, pedagogik etika va deontalogiya vazifalari bilan qo'shilib ketadi. Ular tarbiyaviy o'quv tadbirlarni tashkillashtirish jarayonida hal etiladi.

Xususiy ruhiy tiklash – bu ruhiy pedagogik ta'sirlar yig'indisidir, ya'ni bu maxsus ishlab chiqilgan ruhiy mashqlar. Musiqa bilan davolash, oilaviy ruhiy tiklash kabi tadbirlar tizimidir. Maxsus ruhiy tiklash – «bu bola yoki bir gurux bolalari bilan bola shaxsiyatini shakillantirishda erishiladigan eng samarali aniq vazifalar o'tkaziladigan uslubiy va tashkiliy ishlar usullari jamlanmasi hisoblanadi ..» (Shevchenko, 1995, 11-b). Maxsus ruhiy tiklashning asosiy maqsadi – noto'g'ri tarbiyaning asoratlarini to'g'irlash.

Shunday qilib, ruhiy tiklash umumiy, xususiy va maxsus muolajalar yordamida amalga oshiriladigan ruhiy ta'sir usuli sifatida o'r ganiladi. Bunday bo'linish, nisbiy bo'lib, bolalar rivojlanishining shaxsiy xususiyatlari va ruhiy vazifalaridagi nuqsonlarni tuzatishga qaratilgan ruhiy ta'sir jarayoni sifatidagi ruhiy tiklanishning asosiy talabiga javob bermaydi. Ruhiy tiklash jarayonida ruhshunos umumiy xususiy va maxsus usullardan foydalanishi mumkin.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlarni ruhiy tiklash usullarini turlarga ajratganda **orizontogenez** ko'rinishlariga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi va shu tufayli quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- ruhiy kam rivojlanganda r.t.
- ruhiy rivojlanish to'xtab qolganda r.t.
- jarohatlangan ruhiy rivojlanishda r.t.
- ruhiy rivojlanish yetishmaganda r.t.
- buzilgan ruhiy rivojlanishda r.t.
- noto'g'ri ruhiy rivojlanishda r.t.

Dizontogenezning bir turi alohida holda juda kam uchraganligi sababli, bunday bo'linish nisbiy ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. Masalan: buzilgan rivojlanish, ruhiy kam rovojlanish bilan yoki to'xtab qolgan ruhiy rivojlanish bilan; noto'g'ri ruhiy rivojlanish ko'pchilik hollarda ruhiy rivojlanish to'xtab qolgan paytda yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, ruhiy tiklash jarayonlarini

aniq bir turdag'i bemorlar guruhiga qo'llanilishiga qarab guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlarga ruhiy yordam ko'rsatish amaliyotida ruhiy tiklash quyidagi guruhlarga ajratgan ma'qul.

1. Bola emoqnonal rivojlanishi ruhiy tiklash.
2. Sensor – perceptiv va intellektual faoliyatni ruhiy tiklash.
3. Bolalar va o'smirlar xulq avtorini ruhiy tiklash.
4. Shaxsiy rivojlanishini ruhiy tiklash.

Ruhiy tiklash guruxlarga ajratishning bu usuli bolalar ruhiy va jismoniy rivojlanishini barcha turdag'i buzilishlari mazmuni va ruhiy yo'nalishlarini aniq ko'rsatadi.

Ruhiy tiklashning nazariy modellari.

Ruhiy tiklash ta'sirlarini o'tkazishda qo'yiladigan maqsad va vazifalar ruhiy rivojlanishining nazariy modellari bilan bevosita bog'liq bo'lib, shular yordamida aniqlanadi.

Ruhiy tiklash nazariy modellari juda xilma – xildir. Ular ikki guruhga bo'linadi: vatanimizdagi va xorijiy.

Vatanimizdagi psixologiyada rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlar bilan o'tkaziladigan ruhiy tiklash ishlarida maqsadlar, bolaning kattalar bilan birgalikdagi harakatlarda ishlatiladigan faol faoliyat jarayonlari sifatida bola ruhiy rivojlanishi qonunlarini tushinishi bilan aniqlanadi.

O'z navbatida, bu yerda ruhiy tiklash maqsadlari yo'nalishlari aniq ko'rsatilgan.

1. Bola yoki o'smir rivojlanishi ijtimoiy holatni mo'tadillashtirish.
2. Bola faoliyatining har xil turlarini rivojlantirish.
3. Yangi, yosh ruhiy tuzilmalarni shakllantirish.

Xorijiy psixologiyada, bola rivojlanishidagi qiyinchiliklar sabablari, shaxsning ichki a'zolaridagi buzilishlar sifatida (3 Freydi M. Klain va boshqa), yoki yetishmovchiliklar oqibati sifatida o'r ganiladi. Shunga qarab, ruhiy tiklash vazifalari belgilanadi. Birinchi holatda (ruhiy dinamik yo'nalish) – bu shaxsiyat

bugunligini tiklash va ruhiy dinamik kuchlarni muvozanatlashtirish ikkinchi holatda esa (xulq-atvor yo‘nalishi) – bu bola xulq – atvorini muxitini o‘zgartirishi va uning xulq atvorini yangi ko‘rinishlarga o‘rgatish orqali takomillashtirish.

Ko‘pgina tanqidiy fiklarga qaramasdan bu yo‘nalishlar bizning fikrimizga alohida e’tibor talab qiladi. Ruhiy dinamik yo‘nalish markazida ruhiyatning dinamik tomonlari bilan bog‘liq intilish biror narsaga bog‘lanish ichki ziddiyatlarning borligi rivojlanishi shaxsdagi ichki “Men”ni rivojlanishi va ishslashini ta’minlaydigansovollar turadi.

Bola yoki o‘smirlar tushunarsiz bo‘lgan kasallik belgilari va kechikmalarini aniqlash, bu yo‘nalishda olib boriladigan ruhiy tiklash ishlarining maqsadi hisoblanadi. Qo‘yilgan maqsadlar ruhiy tiklash ta’sir yo‘llarini belgilaydi. Lekin, bu usulni bolaning erta bolalik davrida o‘tkazish imkoniyati yo‘q. Shu tufayli ruhiy – dinamik yo‘nalish ichida ikkita assosiy usul taklif etilgan: o‘yinlar bilan davolash va art-davolash. Keyin xar ikkalovi xam ruhiy – dinamik yo‘nalishdagi chiqib, alohida usul sifatida rivojlangan. Boshqa tomondan esa, ruhiy-dinamik yo‘nalish tarafdarlari bolalar bilan ruhiy tiklash ishlari olib borilganda ota- onalarning faol ishtirok etishiga katta e’tibor berishgan. Ota–onalarning ruhshunoslar bilan hamkorligi ruhiy tiklash tadbirlar samaradorligini yanada oshiradi.

Rivojlanishida muammolar bo‘lgan bolalar va o‘smirlar bilan o‘tkaziladigan ruhiy tiklash tadbirlar A.Adler yo‘nalishiga alohida e’tibor berish lozim, chunki, ijtimoiy muhitning bir qismi hisoblangan shaxs bo‘linmaydigan bir butun hisoblanadi. Insonning ijobiy tabiatini tahlil qilib, A. Adler shuni ta’kidlaydi, har bir inson erta bolalik davridayoq o‘zining taqdirini barpo etadi, hayot tarzini shakllantiradi. Insondagи o‘z-o‘zidan qoniqmaslik majmuasining o‘rnini o‘rganib borib A. Adler, - ijtimoiy muhit, qoniqmaslik va uni bartaraf etish uchligi insonning hayotdagi maqsadlarini aniqlashda muhim o‘rin tutishini tushingan.

Umuman olganda, u insonning butin umri davomida hulq- atvori deyarli o‘zgarmaydi, faqat uning munosabatlari turli o‘zgaradi holos, shundan kelib chiqib, ruhiy tiklashning asosiy maqsadi- shu munosabatlarning ruhiy tekshiruvidan iborat bo‘ladi. A. Adler yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan ruhiy tiklash maqsadlarini oydinlashtirib, quyidagi fazifalarni ta’kidlash lozim: Qoniqmaslik hissini Ruhiy tiklash; ijtimoiy qiziqishni shakllantirish; yangi hayot tarzini ishlab chiqishga qaratilgan hatti harakatlarni ruhiy tiklash. Bular, ishtirokchining mashg‘ulotlarga bo‘lgan ijobiy qarashlarni shakllantirish, shaxsiy qarashlarini tahlil qilish va qayta ishlash, rag‘barlantirish. Ruhiy tiklash shuning asosiy talabi. Ikki tomonlama ishonch va umumiylar maqsadlarni oldiga qo‘yishdan iborat.

Ruhiy tiklashning Rodjer yo‘nalishi- insonning ijobiy tabiatiga va unga xos, o‘z-o‘zidan foydalanishga bulgan intilishga diqqattli qaratadi.

Rodjer fikricha, ruhiy salomatlik asosi, insonning shaxsiy imkoniyatlari bilan belgilanadigan ideal “Men”ning real “Men”ga nisbati, o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishi, o‘ziga ishonchi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra r.t. natijalari o‘zini hurmat qilish, o‘ziga to‘g‘ri baxo berish, shaxsiyatini rivojlanishi uchun sharoit yaratish kabi xususiyatlarni orttirish bilan belgilanadi. Rodjer, ruhshunos bilan ishtiroqchi o‘rtasidagi iliqlik, ishonchga katta etibor beradi.

Xulq-atvor yo‘nalishidagi r.t. maqsadi – xulq-atvor moslashuvi ko‘rinishidagi turlarni shakllantirishg, undagi moslashuvni buzilishga olib keluvchi xulq-atvorni to‘xtatishga qaratilgan bo‘ladi. Bular turli ruhiy boshqaruv mashqlari va xulqiy mashg‘ulotlar orqali erishiladi. Xulq-atvor yo‘nalishidagi ruhiy r.t.da ruhshunos o‘z fikrini o‘tkazuvchi faol o‘rinni egallaydi, hamda o‘qituvchi, rahbar hisoblanib bolaning samarali xulq–atvorga intilishiga ko‘rmaklashadi. Shu yo‘nalishga asoslangan holda, xulq-atvorni shakllantirishning bir nechta usullari ishlab chiqilganki, ular yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Xulq-atvorni yangi stereotiplarini qurish;
- Mavjud bo‘lgan moslashmagan stereotiplarni so‘ndirish;

- Xulq-atvorning yangi stereotiplarini yuzaga chiqarish uchun sharoitlarni tushunib yetish.

Kognitiv yo‘nalish alohida etiborni talab qiladi, asosan ravojlanishida muammolari bo‘lgan o‘smirlar r.t.da kognitiv yo‘nalishda birinchi navbatda ruhiyatning o‘rganish tizimlariga aohida etibor qilinadi, shaxsga, uning tuzilishiga va fikrlash qobiliyatiga tayaniladi. O‘smir tomonidan, xulq atvorini o‘zgartirgan holda o‘zini, va atrof muhitni qabul qilishni o‘zgarishlari r.t. mashg‘ulotlarida bosh vazifa hisoblanadi. Kognitiv yo‘nalishda r.t.ning ikki turi farqlanadi: kognitiv-tahliiy va kognitiv-xulqiy. Birinchi holda asosiy vazifa – o‘smirga tushunarli bo‘lgan va u mustaqil ishlay oladigan ruhiy muammoning modelini tuzishdan iborat bo‘ladi. Ikkinci holda esa, o‘smir oldida turgan muammolarni hal etishda eng kerakli bo‘lgan hulq atvor modelini tuzishdan iborat bo‘ladi; boshqa so‘z bilan aytganda hayotdagi real holat to‘g‘risidagi noto‘g‘ri fikrlarni tekshirish taklif etiladi. Kognitiv yo‘nalish asosida ko‘plab psixotexnik usullar yaratilgan, ular ruhiy rivojlanishda muammolari bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni r.t.da muvaffaqiyat bilan ishlatilishi mumkin.

Shunday qilib. R.t. muammosiga turlicha nazariy yondoshishlar har xil r.t. texnologiyalarining rivojlanishiga yordam beradi. Ruhiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar va o‘smirlar r.t. texnologiyalarini ishlab chiqishda alohida nazariy yo‘nalishlarga tayanmasdan, balki ko‘pgina nazariy yo‘nalishlarga asoslangan ruhiy ta’sir usullarini ishlatish tavsiya etilishini alohida ta’qidlash lozim.alohida r.t. texnologiyalarini ishlab chiqish aniq ruhiy vazifalarga bog‘liq bo‘ladi, ular o‘z navbatida esa bolada va uning ota-onasidagi muammolarning rivojlanish darjasini bilan aniqlanadi.

Muammoli rivojlanish turlarining klassifikatsiyasi (tasnifi).

Bolalik davri ruhiy buzilishlarni o‘rganishda ontogenetik yondoshuvdan vatanimizdagi va xorijdagi ko‘pgina taniqli klinitist-olimlar tomonidan samarali foydalanilgan va foydalanib qilinmoqda (Ozeretskiy va boshq.).

Tibbiy va biologik adabiyotlarda ontogenetik va dizontogenetik iboralari keng qo‘llaniladi. Unumbiologik rejada ontogenetik o‘simlik yoki tirik organizmning

paydo bo‘lishidan toumrining oxirigacha bo‘lgan shaxsiy rivojlanish sifatida o‘rganiladi. Ontogenet prenatal (tug‘ilishgacha) va postnatal (tug‘ilgandan keyingi) farq qilinadi.

V.V.Kovalyov fikriga ko‘ra, shaxsning ruhiy rivojlanishi, ya’ni ruhiy ontogenet postnatal ontogenezning asosiy qismi hisoblanadi (Kovalyov, 1985). Eng keskin rivojlangan ruhiy ontogenet bolalik va o‘s米尔lik, ya’ni alohida ruhiy funksiyalar va shaxs to‘la shakllanadigan davrga to‘g‘ri keladi.

Fiziologlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy rivojlanadigan davrlari va tabaqalanish nazariyasi bolalar va o‘s米尔lardagi ruhiy kasalar klinikasi patogenezining yoshga nisbatan qonuniyatlarini tahlil qilish uchun katta imkoniyatlar beradi. Yosh fiziologiyasi borasida olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ontogenet davrida bosh miyaning faoliyati munosabatining bir-biridan farq qiluvchi har xil davrlari (tabaqalari) almashadi, lekin munosabatning yangi ko‘rinishlari eskisini siqib chiqarib tashlamasdan, ularni, o‘zgartiradi va o‘ziga bo‘ysundiradi (Ushakov va boshq.). mualliflar tabaqalashni biogenetik nazariyasiga asoslanib, shaxsiy rivojlanishning to‘rtta asosiy davrlarga ajratadilar.

Savol va topshiriqlar

1. “Korreksiya” va “Korreksion ish” tushunchalariga izoh bering.
2. Ruhiy tiklash deganda nimani tushunasiz.
3. Ruhiy tiklashn tamoyillarini yoritib bering.
4. Ruhiy tiklash usullarining tasnifi
5. Ruhiy tiklashning nazariy modellari
6. Ruhiy tiklash turlari
7. Ruhiy tiklash guruhlari
8. Muammoli rivojlanish turlarining klassifikatsiyasi

Glossary

Atamalar	Atamalarning ingliz tilida nomlanishi	Atamalarining o‘zbek tilidagi ma’nosi
Bilish jarayoni	Learning process	Psixik aks ettirish jarayoni bo‘lib, bilimlarni egallash va uni o‘zlashtirishni ta’minlaydi
Suhbat	Conversation	Psixologiya metodlaridan biri bo‘lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bilvosita ma’lumot olishdan iborattdir
Psixologiya metodlari	Psychological methods	Psixik hodisalarini va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomonidan o‘rganishning asosiy usullaridir
Sotsiometriya	Sociometry	J.Moreno tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodidir
Faoliyat	Activity	Insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishiga, uni qayta qurishga yo‘naltirilgan faoliyatdir
Kommunikatsiya	Communication	Kommunikatsiya (lotincha kommunicatio-aloqa, til va boshqa belgilar vositasida

		axyuorot bilan almashish)
Nutq	Speech	Odamlarning til vositasida muloqotda bo‘lish jarayonidir
Oligofreniya	Oligophrenia	(yunoncha oligos-kam, oz va phen-aql) aqli zaiflik, psixik funksiyalar rivojlanishining ortda qolishi
Korreksiya metodikasi	Correction method	Ta’limiy maqsadga erishishni ta’minlashda qo‘llanuvchi maxsus ta’limiy shakl va vositalar majmuasi
Ijtimoiy adaptatsiya	Social adaptation	Lotincha adaptation-moslashhtiraman va socium jamiyat so‘zlaridan olingan bo‘lib, shaxsning jamiyatda qabul qilingan insoniy qadriyat, maqsad, axloqiy me’yorlarni qabul qilish va egallash yo‘li bilan ijtimoiy sharoitlariga moslashishini bildiradi. Alovida yordamga muhtoj bola shaxsining ijtimoiy moslashuvi maxsus yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi.
Intellekt	Intellect	Intellekt (lotincha intellectus-tushunish, tushuncha so‘zidan) insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, aqli
Integratsiya ta’limi	Integration training	Aqliy yoki jismoniy

		rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning sog‘lom tenqurlari jamoasida ta’lim olishi, integratsiya ta’limi imkoniyati cheklangan bolani muammo sifatida ko‘radi, hamda pedagoglar tomonidan alohida guruh bolalarini guruh, sinf sharoitida o‘qitilish va tarbiyalash yo‘l va vositalarining qo‘llanilishini nazarda tutadi.
Irsiyat	Heredity	Organizm va nerv tizimi xususiyatlarining o‘tmish avlodlar tajribasida tarkib topib, mustahkamlanib, keyingi avlodlarga o‘tish jarayoni. Ba’zi bir rivojlanishidagi muammolar (masalan: eshitishdagi nuqsonlar, duduqlanish, aqli zaiflik)
Kompensatsiya	Compensation	Ta’lim-tarbiya jarayonida sog‘lom sezgi a’zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me’yordan chiqqan analizator o‘rnini to‘ldirish (qoplash)
Korreksiya	Correction	(yunoncha correctio-tuzatish) alohida yordamga muhtoj bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarini

		pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay bartaraf etish
Maxsus psixologiya	Special psychology	Aqliy yoki jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari va bor kamchiliklarni korreksiya qilish yo‘llarini o‘rganuvchi fan
Murakkab nuqsonlar	Complicated defects	Ikki va undan ortiq kamchiliklarning birga kelishi (masalan: eshitish-ko‘rish, eshitish-ko‘rish-aqliy, aqliytayanch-xarakat a’zolari faoliyatidagi og‘ishlar) bunday buzilishlar bolaning ruhiy rivojlanishiga o‘ziga xos ravishda ta’sir etib, maxsus korreksion ta’sirni talab etadi
Oligofrenopedagog	Oligophrenic pedagogue	Aqliy rivojlanishida ortda qolgan bolalarga ta’lim-tarbiya beruvchi defektolog-o‘qituvchi
Profilaktika	Prophylactic	Yunoncha prophylaktikos-saqlash, oldini olish, maxsus ta’lim tizimida aqliy va jismoniy muammolar va ular oqibatlarining oldini olish chora-tadbirlari majmui tushuniladi
Psixoterapiya	Psychotherapy	(yunoncha psyche-qalb, therapea-

		davolash) bemorlarga psixik ta'sir ko'rsatish yordamida davolash. Aqliy yoki jismoniy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonida ba'zan psixoterapiyaning tushuntirish, ishontirish, gipnoz ko'rinishlaridan foydalaniladi
Reabilitatsiya	Rehabilitation	Kasal yoki rivojlanishida muammosi bo'lgan shaxslar organizmi buzilgan funksiyalarning hamda mehnatga bo'lgan layoqatlarining tiklanishi, rabilitatsiya tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy tadbirlar majmuasi asosida ta'minlanadi
Ruhiy rivojlanish	Psychological development	Inson hayotining turli bosqichlarida bilish faoliyati va shaxsiy xislatlarining shakllanishi va takomillashuvi
Musiqaterapiya Artterapiya	Musical therapy Art therapy	Musiqa bilan davolash hissiyotlarning pasayishi, qo'rquv, nutq kamchiliklari, tarbiyaning buzilishi kabi nuqsonlarda yordam beradi
Biblioterapiya	Bibliotherapy	Biblioterapiya uslubi o'zida kitobshunoslik, psixologiya, psixoterapiya,

		psixokorreksiyaning murakkab qo'shilmasini mujassam etadi. Biblioterapiya-bolaga maxsus yo'nalish berish, yo'naltiruvchi ta'sir etib, maxsus tanlangan adabiyotlarni normallashtirish yoki optimallashtirishga qaratiladi.
Aqli zaiflik	Mentally retarded	Bosh miyaning organik jihatdan jarohatlanishi natijasida psixik birinchi navbatda intellektual rivojlanishning turg'un pasayishi tushuniladi. Birinchi marta psixiatr F. Platter (1537-1614) ruhiy kasalliklar orasidan aqli zaif bolalarni ajratib berdi. Aqli zaif bolalarni tasniflash, ularga klinik tasnifnomalarish ishlari F. Pinel (1775-1838), /. Eskirov (1772-1840) tomonidan bajaridi. J. Eskirov birinchi marta "aqli zaiflik" atamasini fanga kiritadi.
Aqliy rivojlanish	Mental developing	Bolaning yoshi va hayotiy tajribasining ortishi hamda tarbiyaviy ta'sirlar bilan

		bog`liq holda uning fikrlash faoliyatida sodir bo`ladigan sifat va miqdor o`zgarishlari.
Aqli zaiflikning darajalari	Kind of mentally retarded	Butunjahon sog`liqni saqlash tashkiloti (BSST) tomonidan aqli zaiflikning to`rt darajasi ajratib ko`rsatilgan. Ya`ni: <ol style="list-style-type: none">1. Yengil (kam)2. O`rta3. Og`ir4. Chuqur
Yengil nuqson	Missing light	Bular maxsus sharoitda bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta`lim tarbiya olganlaridan keyin o`qishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.
Pedagogik qarovsiz bolalar	Pedagogical neglected of the children	Psixikasi normal bo`lib ,ular noto`g`ri tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o`quvchilar qatoriga o`tib qoladilar. Xolbuki, ruhan sust rivojlangan bolalarda shaxsiyatning har tomonlama noto`g`ri rivojlanishi markaziy nerv sistemasidagi yengil darajadagi organic jarohatlanish bilan bog`liq.

Kompleks yondashuv	An integrated approach	Pedagoglar jamoasining muayyan sotsial muhitda o`sayotgan har bir bola qobilyatlarining rivojlanish darajasi va hayot tajribasidan qat`iy nazar uning muvaffaqiyatli ta`lim olishi va rivojlanishi uchun ijtimoiy psixologik shart- sharoit yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat tizimidir.
Harakatni idrok etish	Reflex movements	Obyektlarning yoki kuzatuvchining o`zining fazodagi o`zgarishlarining vaqtida aks etishi, bu turli analizatorlarning o`zaro munosabati tufayli ta`minlanadi.
